Til – dil tarjimoni
O'zbek xalq maqoli

1991-yildan chiqa boshlagan

2021-yil. 12-son

ISSN 2010-5584

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

til_adabiyiot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyiot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyiot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyiot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz

YANGI 2022 - YIL QUTLUG' BO'LSIN!



"YANGI O'ZBEKISTON" bog'ida yangi yil shukuhi kezmoqda

Ushbu sonda

Dolzarb mavzu
Nom qo'yish – ham san'at, ham ilm
3-bet

Tahlil
Asqad Muxtor falsafiy lirikasi mohiyati
19-bet

Tadqiqotlar
Mubolag'a imkoniyatlari va shoir mahorati
40-bet

Mulohaza
Lingvopoetik paradigma va gerbarizm
44-bet

Свет негаснущих имен
Писатель, ученый, провидец
79-bet



OYBEK BOYATOV,
Toshkent shahar Yakkasaroy tumanidagi 91-IDUM O‘zbek tili fani o‘qituvchisi

MUVAFFAQIYATIMDA HAMKASBLARIM VA SEVIMLI NASHRIMIZNING HISSASI KATTA

Men 2020-yilda oliy ta’lim dargohini tamomlab, Toshkent shahar Yakkasaroy tumanidagi 91-IDUMda o‘zbek tili o‘qituvchisi bo‘lib ish boshladim. Bu maktabda ancha bilim va amaliy tajribaga ega bo‘ldim. Maktab direktori Aziza Temirovaning har bir o‘qituvchiga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi menga yanada ishonch, kuch bag‘ishladi. Iyul oyida “Yilning eng yaxshi o‘zbek tili fani o‘qituvchisi” tanloviga onlayn ariza yuborib, sentabr oyining birinchi yarmida tanlovning tuman bosqichida ishtirok etdim, ikki shart: mantiqiy fikrlash testi va taqdimotida 1-o‘rinni qo‘lga kiritdim.

Bu mening o‘z kasbimga e’tiborim, mehrimni yanada oshirdi, g‘ayrat-shijoatga undadi, ayniqsa, maktab jamoasining muvaffaqiyatimdan xursandligi qalbimni g‘ururga to‘ldirdi. Hamkasblarim ishonchi va ota-onamning duolari bilan tanlovning respublika bosqichida ham faxrli 3-o‘rinni qo‘lga kiritdim. Shuningdek, “Xalq ta’limi a’lochisi” ko‘krak nishoni va 10 mln so‘m pul mukofoti bilan taqdirlandim.

Albatta, ushbu yutuqlarimda sevimli “Til va adabiyot ta’limi” – “Преподавание языка и литературы” – “Language and literature teaching” jurnalining ham alohida hissasi bor. Jurnal talabalik davrimdayoq mening maslahatchim, ko‘makchimga aylangan edi. Hozirda o‘z hisobimdan ushbu nashrga 2022-yil uchun obuna bo‘ldim. E’tiborlisi, tanlovga tayyorgarlik jarayonida nashrning *tilvaadabiyot.uz* veb-sayti orqali avvalgi yillarda chop etilgan sonlari bilan ham tanishish foydali bo‘ldi.



Sizga ham sevimli nashrimizning 2022-yilgi sonlariga obuna bo‘lishingizni tavsiya etaman.

1991-yildan chiqa boshlagan

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ПРЕПОДАВАНИЕ ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

2021-yil. 12-son.

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:

Dilshod KENJAYEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Nargiza RAHMONQULOVA
Yorqinjon ODILOV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Valijon QODIROV
Baxtiyor DANIYAROV
Abdurahim NOSIROV
Tolib ENAZAROV
To'lqin SAYDALIYEV
Ravshan JOMONOV
Zulxumor MIRZAYEVA
Qozoqboy YO'LDOSHEV
Nilufar NAMOZOVA
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinbosari)

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Yuliya MUSURMANOVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10,
(71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyot ta'limi"dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga. 2021.25.12. da topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x841/8. Shartli bosma tabog'i 6,0. «Times» garniturasi. 10, 11 kegl. «ECO TEXTILE PRODUCT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Manzil: Toshkent sh. Mirobod tum., Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Buyurtma ___ Adadi 3560 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

MUNDARIJA

DOLZARB MAVZU

Tolib ENAZAROV. Nom qo'yish – ham san'at, ham ilm ... 3
Nadira RASULOVA. Onlayn muhit – talabalarning ingliz tiliga asoslangan muloqot madaniyatini rivojlantirishda muhim omil ... 4

DARS – MUQADDAS

Sadoqat RO'ZIYEVA. Mohir-u mehr-u mahorat ... 6

METODIK TAVSIYA

Mo'tabar TAJIBAYEVA. Og'ir nutq nuqsoni bo'lgan bolalarni savodga tayyorlash ... 8

TAHLIL

Gulnora MUQIMOVA. O'zbek tili o'simlik nomlarining leksikografik talqini ... 9
Gulshod KARIMOVA. Grammatikalizatsiya va uning boshqa yondosh hodisalarga munosabati ... 12
Mo'min TURDIBEKOV. Turkiy toponomikaning lingvistik tahlili ... 14
Nilufar NAMOZOVA. Hajviy publitsistikada munosabat va nuqtayi nazar ... 15
Normuhammad UBAYDULLAYEV. Adabiyot darslarida ijodkor shaxsini o'rganish ... 18
Jo'rabek ISLOMOV. Asqad Muxtor falsafiy lirikasi mohiyati ... 19
Gulnoza JO'RAYEVA. Hajviy-majoziy she'riyatning o'ziga xos xususiyatlari ... 21
Farizod AKROMOVA. O'rta asrlar adabiyoti tarixiy bosqichlari ... 22
Turg'unoy KAZIYEVA. Fanlararo integratsiyalashuvda fonetik uslubiyatning o'rni ... 24

TILSHUNOSLIK

Muniraxon MUXITDINOVA. Chet til kommunikativ kompetensiyalarini masofaviy o'qitish texnologiyalari yordamida rivojlantirishning psixolingvistik jihatlari ... 26
Dildora YULDASHEVA. To'qimachilik va yengil sanoat sohasi terminlarining o'ziga xos xususiyatlari ... 28
Dilnoza ABDUKABIROVA. Main types of phraseological units and their peculiarities ... 29
Sayyora KABILOVA. Metaphor in newspapers ... 30

TARJIMASHUNOSLIK

Saida SULTANOVA. Zamonaviy ilmiy-uslubiy adabiyotlarda talabalarni badiiy tarjimaga o'rgatish masalalari ... 33

TADQIQOTLAR

Dilnoza MAMATOVA. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini oshiruvchi omillar ... 35
Dilorom ABDULLAYEVA, Ruqiya ASHURBAYEVA. Integratsiya va uning ta'lim tizimidagi ahamiyati ... 38
Muzaffar MAMATQULOV. Mubolag'a imkoniyatlari va shoir mahorati ... 40
Arslon ESHMURODOV. Milliy internet jurnalistikasining jamoatchilik fikriga ta'siri: manipulativ holat, muammo va yechim ... 41

MULOHAZA

Nazokat YUSUFJONOVA . Ta'lim turkman tilida olib boriladigan maktablarning 7-sinf "Adabiyot" darsligida xalq dostonlari mavzusining o'rganilishi ... 44

KICHIK TADQIQOTLAR

Orzigul HAMROYEVA. Shamsiddin Qays Roziyning "Al-mo'jam fi ma'oyiri ash'or ul-ajam" asarining o'rganilishi ... 45
Elmurod NASRULLAYEV. Navoiyning tasavvuf ta'limotiga munosabati ... 47

ИСПОЛЬЗУЙТЕ ЭТИ МАТЕРИАЛЫ

Хилола ЮНУСОВА. Технология интеллектуальных игр на практических и семинарских занятиях по филологическим дисциплинам ... 49

ЯЗЫКОЗНАНИЕ

Фахриддин АБДУРАХМАНОВ. Лексико-семантические классы глаголов трехактантных предложений в современном русском яыке ... 53
Дилором ИСЛОМОВА. О некоторых функциях индикатора *аул* в русских топонимах ... 55

ИЗУЧАЕМ ИНОСТРАННЫЕ ЯЗЫКИ

Беккенбауэр РЕЙМОВ, Саида СУЛТАНОВА. Изучение фразеологизмов, характеризующих эмоциональное состояние человека, в лингвокультурологическом ракурсе ... 57
Дилором Холматова. Презентация материалов по этнографии на занятиях по русскому языку как иностранному ... 58

ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ

Юлия Тинькова. Изучение авторской песни в школе ... 61
Эльвина УМЕРОВА, Севара СУЛТАНОВА. Поэтика аллегории в творчестве Антуана де Сент-Экзюпери ... 62

НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

Оксана ГИБРАЛТАРСКАЯ. Учебник-хрестоматия в высшей школе: pro et contra ... 64
Дилдора ХАШИМОВА. Роль электронного учебника в совершенствовании речевых навыков и умений в учебно-профессиональной сфере ... 66
Озода ГУЛЯМОВА. Языковая экспликация когнитивно-стилистических особенностей фонетических средств категории интенсивности ... 69
Тимур АЛИМОВ. Перевод языка как практическая теория языка ... 71

ФОРМЫ ОБУЧЕНИЯ

Гулноза САБИРОВА. Лингвистический аспект формирования англоязычной речевой компетенции школьников на основе Web-технологий ... 73
Дилдора ТОЛИПОВА. Использование коммуникационной сети при изучении русского языка как иностранного ... 75

ОБСУЖДАЕМ, СПОРИМ

Рамина ЯГАФАРОВА. Какой сленг и зачем употребляют в средствах массовой информации? ... 77

СВЕТ НЕГАСНУЩИХ ИМЕН

Анатолий ЛИХОДЗИЕВСКИЙ. Писатель, ученый, провидец ... 79

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ ПРЕПОДАВАНИЕ LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING ***jurnali***

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining Filologiya va Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

VATAN ICHRA SHU GO'ZAL CHAMAN UCHUN YASHAYLIK!

Davlatimiz rahbarining "O'zbekiston Qahramoni va xalq shoiri Abdulla Oripov tavalludining 80 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi Qarori asosida respublikamizning turli hududlarida, tashkilot va muassasalarda yil davomida ko'plab tadbirlar o'tkazildi. Shoirning betakror she'riyati, ibratli hayot yo'li, davlat va jamoat arbobi sifatidagi faoliyatini yortitish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirildi.



Davlat rahbari Qaroriga ko'ra, Toshkent viloyatining Qibray tumanida joylashgan "Yangi Arg'in" mahallasidagi shoir yashagan xonadonda yodgorlik lavhasi o'rnatish belgilangan edi. Joriy yilning 26-mart kuni Abdulla Oripov yashab, ijod qilgan "Do'rmon" ijod uyi hududida joylashgan xonadonda o'rnatilgan barelyefning tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Yozuvchilar uyushmasi tomonidan "Tanlangan asarlar" turkumida Abdulla Oripov asarlari ikki jildligi, "So'z chamani" ruknida "Abdulla Oripov"ning she'rlar kitobi, "Adabiy meros" ruknida "Shoirning tug'ilishi" nomli to'plam, qoraqalpoq tilida "Oqar daryo" she'rlar to'plami, Abdurahim Erkayevning "Abdulla Oripov dahosi" nomli esse-kitobi, shoir ijodidan rus tiliga tarjimalar jamlangan "Ветер моего края" nomli kitob hamda ustoz shoirga bag'ishlangan "Abdulla Oripov zamondoshlari xotirasida", "E'tirof" to'plamlari yil davomida chop etildi.

Joriy yilning aprel oyida Respublika Xalq ta'limi vazirligi, Prezident ta'lim muassasalari agentligi, Respublika Ma'naviyat-ma'rifat markazi hamkorligida o'tkazilgan "Abdulla Oripov izdoshlari" ko'rik-tanloviga mamlakatimizdagi to'qqiz mingga yaqin maktab o'quvchilari jalb etildi. Shuningdek, xalq ta'limi tizimida "Men nechun sevaman O'zbekistonni?" mavzusidagi insholar tanlovi, "Mitti yulduz jilolari" nomli ijodiy bellashuvlar tashkil etildi.

Respublikamizdagi barcha oliy ta'lim muassasalarida shoir hayoti va ijodiga bag'ishlangan adabiy kechalar, ilmiy konferensiya va mushoiralar o'tkazildi.

Alisher Navoiy nomidagi davlat akademik katta teatrida O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Madaniyat vazirligi hamda boshqa tashkilotlar hamkorligida shoir xotirasiga bag'ishlab o'tkazilgan tantanali adabiy-badiiy kecha ham taniqli davlat va jamoat arboblari, shoir va yozuvchilar, adabiyotshunoslar, xorijlik mehmonlar, talabalar, ijodiy tashkilotlar vakillari, ommaviy axborot vositalari xodimlari va keng jamoatchilik vakillarini jamladi. Tadbirda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, xalq shoiri Sirojiddin Sayyid, TURKSOY xalqaro tashkilotining Markaziy Osiyo bo'yicha vakili Xo'jageldi Kultegin, Tojikiston Yozuvchilar ittifoqi raisi, Tojikiston xalq shoiri Nizom Qosim, Qirg'iz Respublikasi Milliy yozuvchilar uyushmasi raisi Nurlan Qallibekov, Qoraqalpog'iston Yozuvchilar uyushmasi raisi, O'zbekiston xalq yozuvchisi Kengesboy Karimov so'zga chiqib Abdulla Oripov ijodining turkiy xalqlar adabiyoti rivojidagi o'rni va ahamiyati haqida gapirdi.

Shuningdek, Abdulla Oripov tavalludining 80 yilligi munosabati bilan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomondan yil davomida Adiblar xiyobonida taniqli ijodkorlar, olimlar, madaniyat va san'at namoyandalari ishtirokida shoir ijodiga bag'ishlangan turli uchrashuvlar, davra suhbatlari, kitobxonlik kechalari o'tkazilgani, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutida Abdulla Oripov nomidagi bog' va muzey ochilgani, Qarshi shahrida Abdulla Oripov nomidagi ijod maktabida shoir xotirasiga ehtirom sifatida mo'jaz muzey tashkil etilgani, Qashqadaryo viloyati Koson tumanida ikki qavatli, 120 o'ringa mo'ljallangan Abdulla Oripov nomidagi kutubxona foydalanishga topshirilgani, shoirning hayoti va ijodi haqida "Yurtim shamoli" nomli hujjatli film suratga olinib, uning taqdimoti o'tkazilgani singari xabarlar respublikamiz ommaviy axborot vositalarida e'lon qilib borildi.

Bir so'z bilan aytganda, o'zbek adabiyoti va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan xalq shoiri, taniqli davlat va jamoat arbobi, O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi muallifi Abdulla Oripov tavalludining 80 yilligiga bag'ishlangan anjumanlar xalqimizning sevimli farzandiga katta hurmat-ehtirom ifodasiga, uning "O'zbekiston – yagona Vatan uchun yashaylik, Vatan ichra shu go'zal chaman uchun yashaylik", deya qilgan da'vatlari baralla yangragan ilhombaxsh tadbirlarga aylandi. Xalqimiz suyukli shoirini doimo ardoqlab yashashini yana bir bor his etdik.

Nilufar Qambar qizi tayyorladi.

Tolib ENAZAROV,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori

NOM QO'YISH – HAM SAN'AT, HAM ILM

Nomlarning leksik-semantik va ma'no ko'lamiga xos nomlilik xususiyatlari ilm-fanning "Onomastika" (Nomshunoslik) va "O'zbek nomshunosligi" sohalarida ham amaliy, ham nazariy jihatdan tadqiq etiladi. Nomlarning nafaqat atash ma'nosi, balki nomlangan kishilar taqdiriga ta'siri ham jiddiy kuzatishlarga manba bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Bu haqida Ziyovuddin Rahim quyidagilarni qayd etgan: "Ma'lum bir ism ismlanayotgan narsa yoki shaxsga ta'sir qilishini ko'p yillar va davrlar mobaynida olib borilgan kuzatuv va tekshirishlar tasdiqlaydi. Bular husn, og'irlik va yengillik, latofat va noziklik, epchillik va yalqovlik, jasurlik va qo'rqoqlik hamda shu kabi boshqa sifatlarda o'z aksini topadi"[1].

Manbalardan olingan ma'lumotlarga ko'ra bir oilada tug'ilgan chaqaloqqa nomni shoshma-shosharlik bilan ota-onalarning o'zlari berishibdi. Ammo bu bola hech qancha vaqt o'tmay kasallanib vafot etibdi. Shu tarzda bu oila beshta chaqaloqni yerga qo'yibdi. Oltinchi farzand tug'ilganda mahallalaridagi keksalardan ismini qo'yib berishlarini so'rashibdi. Keksalar oldin ota-onaning, bolaning qachon, qay vaqt tug'ilganini, avlodlari, ularning kasb-korlari, qaysi urug', qabilaga mansubligi, qiziqishlari, qo'yingki, shu oila a'zolariga tegishli barcha narsalarni so'rab-surishtirishibdi. So'ng keksa otaxonlar o'zaro kelishgan holda chaqaloqqa **O'lmas** deb nom beradigan bo'lishibdi. Shu sabab bo'libdimi, ishqilib, bola unib-o'sib ketibdi. Biroq keyingi tug'ilgan qizaloqqa yana ota-onaning o'zlari nom berishibdi. Biroq bola tez-tez kasal bo'lib, kundan kunga holsizlanib boraveribdi. Farzandining dardiga chora izlab halovatini yo'qotgan ota-ona yana keksalarga bolalarining taqdiri – nomi masalasida murojaat qilishibdi. Keksalar uzoq so'rab-surishtirishlardan keyin chaqaloqqa **Tursunoy** deb nom berishibdi. Shundan boshlab boladagi kasallik alomati sekin-asta yo'qolib, o'sib-ulg'ayibdi. Bunday holatlar rivoyat emas, bor haqiqat. Bunda nomlardagi[2] ixtisoslashgan nomlik ma'nosi, sehr, qudrat va unga ixlos o'z ifodasini topgan. Har bir mahalla, guzar, tuman va qishloqda mana shunday tarzda nom qo'yish holatlari uchraydi.

Yuqoridagilardan anglashilib turibdiki, bir oilaning yangi tug'ilgan bolalariga ism berish maqsadida ikkita nom qo'llangan: **O'lmas** va **Tursunoy**. Ulardan biri ikki bo'g'inli, ikki unlili, uchta undoshli nom bo'lsa, ikkinchisi uch bo'g'inli, uch unlili hamda to'rtta undoshli nom xolos. Ularda ko'zga tashlanadigan sehr yo'q, lekin bu nomlarda ko'zga tashlanmaydigan nomlik ma'nosi, ya'ni mehr-u sehr o'z ifodasini topganligi uchun bu chaqaloqlar ularning oldingi bolalariday achchiq qismatdan qutulishgan, ya'ni unib-o'sib, ulg'ayishgan. Mazkur nomlarda hammaning, shu jumladan, keksalarning nomlarga bo'lgan sodda, samimiy ixlosi-yu o'tgan qadim o'tmishdan chiqarib olishgan xulosalari bor. Mana shu holatlar bizning nazarimizda nomga bo'lgan ixlos sifatida shakllandiki, endi bu nomlar o'sha bolalarning ota-onasi-yu, o'zlari uchun eng mo'tabar va mo'jizakor so'zlardan biri bo'lib qoldi. Mana shunday mo'tabar, sehrli nomlar sirasiga ***Eshboy, Qo'ldosh, Do'stmurod, Yo'ldosh, Qutlug'beka*** singari ismlarni ham kiritish mumkin.

Nomlar har bir xalqning til boyligi bo'lgan so'zlar va o'sha xalqqa xos milliy psixologiya ta'sirida yuzaga keladi. Shuning uchun nomlar lingvistik va ekstralingvistik omillar mahsuli ekanligi e'tirof etiladi. Nomni hosil qilishda ham lingvistik omil (so'z, qo'shimcha)lar bilan birga tilga bog'liq bo'lmagan ekstralingvistik omillar, ya'ni milliy, ma'naviy urf-odatlar, ijobiy hamda salbiy taqlidlar ma'lum ma'noda hissa qo'shadi. Mana shu ekstralingvistik omillar sirasiga nomga bo'lgan ixlos, nomda milliy an'analarning ifodalanishi kabilarni kiritish mumkin. Har kim o'z nomi, ya'ni ota-ona tomonidan bo'lgan avlod-ajdodlariga xos ismlarini e'tirof etishi, e'zozlashi, hurmat qilishi lozim. Nom(lar)ni e'tirof etish, hurmat qilish, e'zozlash ularni to'g'ri aytish, yozish va ilmiy asoslarda ishonchli tahlil hamda talqin etishdan boshlanadi. Mana shu holga quyidagilarni misol sifatida keltirish o'rinli: agar kishi yashab turgan joyidan uzoqroqqa borib kelsa, o'zi yashaydigan joy, uning nomiga o'zgacha mehr bilan qaray boshlaydi. Bu – yurtning qadriga yetish, insoniy qadriyatlarni e'zozlash, samimiylik ufurib turgan ixlos ifodasi. Odatda, xalqimizda chaqaloqqa ism oila a'zolari, keksalar bilan maslahatlashgan holda, shuningdek, ushbu ismning o'z atroflaridagi mehnatkash, dono, tadbirli, yaxshi hunarli, bilimdon, mard, tanti, to'g'riso'z kishilar ismi bo'lishi, kitoblar, matbuot sahifalari va yana o'z tushuncha, aqida va ko'nikmalaridan kelib chiqib qo'yiladi. Bunda yana bir jihat ham borki, ism tanlashda bolaning tug'ilgan joyi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, agar chaqaloq kuyovning o'z uyida tug'ilsa, unga ism berish ancha erkin bo'lgan. Agar chaqaloq kelinning otasi uyida tug'ilsa, unda o'g'il bolalarga ***Boboqul, Bobomurod, Bobonazar, Otamurod, Tog'aymurod*** kabi ismlar qo'yilgan. Qizlar kelinning otasining uyida tug'ilganda, bunday ismlar berish rasm bo'lmagan. Qadimda ism chaqaloqni beshikka solish arafasida berilgan. O'tmishda qo'llangan ismlarda etnopsixologik o'ziga xoslik, milliy tarix – taqdir, orzu va umidlar mujassamligini ko'rish mumkin. Bunday ismlar sirasiga o'g'il bolalarga qo'yiladigan ***Itolmas, Tongotar, Abray*** *(obro'li bo'lsin)*, ***Soat, Soatqul, Eshdavlat, Eshmurod, Jumanazar, Jandor*** *(Bo'ri)*, ***Quvondiq, Botir, Burgut,***

A'zam, Suvon, Egamberdi, Eshtemir va hokazolar hamda qizlarga qo'yiluvchi ***Bo'rigul, Xursand, Oysha, O'g'iloy, Ulbo'sin, Ulbosh, Oyto'la, Oytosh, Oysaxat, Oysuluv, Oymomo, Qizlarxon, Qumri, Qizlarbosh, Qorasoch, Ultuv, Qizlarbas, Uldana*** kabi ismlar kiritilgan. Shu sababli ham ismlarda insonlar taqdirining ko'p jihatlari yashirin, sirli va sehrli shakllarda o'z ifodasi topgan.

Nom – ixlos. Shunga ko'ra milliy qadriyatlar ham unda o'z aksini topadi. Xususan, ilgari vaqtda agar oilada oldingi farzand turmagan bo'lsa, o'g'il bolaning sochini olishda yomon ko'zlardan asrash maqsadida bolaning boshida bir necha tola soch kokil sifatida qo'yilgan. O'tmishda ajdodlarimiz chaqaloqlarning bevaqt o'laverishi yoki kelajakda baxtsiz, omadsiz bo'lishi, turli kasalliklarga chalinishi, nogiron bo'lib qolishi va nosog'lom tug'ilishini ma'lum yovuz kuchlar, chaqaloq dushmanlarining ishi deb tushunishgan. Yosh bolaning dushmani deya aytilgan bunday yovuz kuchlar xayoliy, afsonaviy, ba'zan esa moddiy tushunchalar, narsa hamda obyektlardan tashkil topgan va ular mamlakatimizning turli hududlarida turlicha tasavvur qilingan va atalgan: *ko'zikish, pari, pari qoqish, ajina, chilton, alvasti, ajdaho, maston, yong'oq tagida yotib qolish, xosiyatsiz yerda bemahal uxlab qolish, farzandsiz ayolning suqi (yomon nazari), Azroil, ichikish, xosiyatsiz kiyimlarni kiydirish, ota-onaning gunohi (yoki noo'rin harakati), chaqaloq tug'ilgan joyning, bolaga qo'yilgan nom(ism) ning xosiyatsizligi yoxud nomning chaqaloqqa og'irlik qilishi, jin, o'tgan ajdodlar ruhi, shaytonlash, yel qoqish, xosiyatsiz shabada tegishi, ins-u jins, ayaz, shayton, dev, ko'z tegishi, kinna kirishi, suqlanishi* va boshqalar. Odamlar, aniqrog'i, ota-ona, bobo-buvilar juda qadimdan chaqaloqlarni bunday yovuz kuchlardan himoya qilish chora-tadbirlarini axtarishgan.

Ismlar mas'uliyati bundan ancha yillar oldin tan olingani kabi ayni vaqtda ham xalqimiz tomonidan e'tirof etilib kelinmoqda. Masalan, E.Qilichev nomlarni "*tabarruk nomlar*" deb baholasa[3], boshqa bir muallif tomonidan "*Nom qo'yish ham san'at*", deb ta'kidlangan.[4] Turk olimi Vahdaddin Yasharning "Hamma narsa bolam uchun. Bola tarbiyasi o'yinchoq emas" nomli asarida ham nomning bolalar hayotiga ta'siriga maxsus to'xtalingan: "*Hatto farzandlarimiz uchun tanlangan ism uning kelajakda qanday inson bo'lishiga ta'sir qilishini unutmaylik. Bolaga yaxshi tarbiya berish va munosib, chiroyli ism tanlash har bir ota-ona uchun farz va muhim vazifalardandir*"[5]. Xullas, nomlar insonlarni hayotga boshlovchi, kelajakka da'vat etuvchi so'z hisoblanadi. Bolaga nom berish, ism tanlashda ota-ona, shuningdek, bobo va buvilarning mas'uliyati cheksiz ekanligini esdan chiqarmaslik kerak.

Demak, nomlar, eng avvalo, dunyodagi xalqlarning milliy an'ana va ma'naviy qadriyatlari ko'rinishidagi ma'naviy merosi bo'lib, u insonlar o'rtasida munosabatlar samimiyligining belgisi bo'lgan ism(nom)larga oid samimiy va ishonchli ixlosning ramziy ko'rinishi hisoblanadi. Bu esa nomlarda ma'lum ma'noda tarix, geografiya, taqdir, milliy iftixor, milliy manfaat, milliy an'ana va qadriyatlar yashiringanligini ham ko'rsatib turibdi.

---

[1] Ziyovuddin Rahim. Ism qo'yish odoblari. – Toshkent, 2009. 12-bet.
[2] Mazkur ishda nom termini ikki ma'noda qo'llandi: 1) umuman nomlar ma'nosida, ya'ni kishi ismi etnonim, fitonim, toponim, kosmonim, oronim, oykonim, zoonim kabi atoqli otlarni anglatadi; 2) kishi ismi chaqaloqlarga qo'yiladigan nomlar ma'nosini ifodalaydi.
[3] Qilichev E. O'zbek tili onomastikasi. – Toshkent, 2004. 14–15-betlar.
[4] Enazarov T. Nom qo'yish ham san'at // Nutq madaniyati masalalari. Ilmiy to'plam. – Toshkent, 1993. 227–228-bet.
[5] Vahdadin Yashar. Hamma narsa bolam uchun. Bola tarbiyasi o'yinchoq emas. – Toshkent: Yurist-media markazi, 2009. 42-bet.

Nadira RASULOVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Ingliz tili funksional leksika kafedrasi ingliz tili o'qituvchisi

ONLAYN MUHIT – TALABALARNING INGLIZ TILIGA ASOSLANGAN MULOQOT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MUHIM OMIL

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida", 2013-yil 27-maydagi "2013–2016 yillarda ta'lim muassasalarining chet tillar kabinetlarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya, o'qitishning texnik vositalari va anjomlari bilan jihozlash (qo'shimcha jihozlash)ni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarida ta'lim muassasalarida chet tillarni o'qitish tizimini zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari yordamida rivojlantirish kabi vazifalar belgilab berilgan.

Globallashuv sharoitida jamiyat hayotining barcha sohalarida ishlab chiqarish, ish yuritish jarayoni ax-

borot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda olib borilmoqda. Bugungi kunda hech bir sohani mazkur texnologiyalar xizmatisiz tasavvur etish qiyin. Mobil telefon, kompyuter, noutbuk va Internet tarmog'i zamonaviy ta'limning muhim tarkibiy vositalariga aylanmoqda. Bu kabi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan yoshlar, shu jumladan, talabalar o'quv jarayonida samarali va maqsadli foydalanishlarini tashkil etish masalasi ham muammo sifatida qaralmoqda. Onlayn muhitda axborot-kommunikatsiya vositalarining talabalar hayoti, o'quv-bilish faoliyatidagi o'rnini inobatga olgan holda talabalarning ingliz tiliga asoslangan muloqot madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan jarayonda ulardan maqsadli, o'rinli va samarali foydalanish zarurati tug'ilmoqda.

Shu sababli talabalarda ingliz tilida nutq madaniyati, muloqot malaka va ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida *Facebook* va *Telegram* ijtimoiy tarmoqlarida sahifalar shakllantirish maqsadga muvofiq deb hisoblanmoqda. Talabalar orasida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish keng tarqalgan mavjud sharoitda muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga oid sahifalarni shakllantirish pedagogik, amaliy-metodik jihatdan samarali ekanligi ko'p bosqichli tajriba ishlari davomida o'z tasdig'ini topmoqda.

Zamonaviy o'qitish tizimining asosiy talablaridan biri bu – talabalarning nafaqat o'quv jarayonini, shu bilan birga, ularning o'qishdan tashqari vaqtlarini ham to'g'ri va samarali tashkil etish hisoblanadi. Misol tariqasida biz *"Chat improving of communication"* nomli sahifani keltirishimiz mumkin. Bu sahifani shakllantirishdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad ijtimoiy tarmoqlar orqali talabalarning nafaqat ingliz tili bo'yicha bilim doirasini kengaytirish, balki ularda og'zaki, yozma nutq ko'nikma va malakalarini rivojlantirishdan iborat bo'ladi.

Facebook va *Telegram* ijtimoiy tarmoqlaridagi ushbu sahifada muntazam ravishda ingliz tilida muloqot madaniyatini rivojlantirish, yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarini shakllantirishda nimalarga e'tibor berish kerak ekanligi to'g'risida postlar chop etib boriladi. Masalan, *"8 Ways to Master the Art of Communication"* nomli onlayn material berilgan. Mazkur maqolada muloqotning samarali kechishida sakkizta tamoyilga e'tibor berish kerakligi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Bundan tashqari ingliz tilida so'z boyligini oshirish o'qib tushunish ko'nikmasini shakllantirish, fikrlarni yozma va og'zaki muloqot jarayonida aniq va tushunarli ifoda etishga yordam beradi. Shu sababdan Facebook va Telegram ijtimoiy tarmoqlaridagi *"The art of communication"* sahifasida *"Develop Your English Vocabulary"* nomli onlayn material berilgan bo'lib, ingliz tilida so'zlar va ularning ma'nolarini o'rganish, ularni samarali yodlash usullari va xotiraning imkoniyatlari bayon etilgan. Mazkur material asosida talabalar so'z boyligini kengaytirishda nimalarga e'tibor berish, vaziyat va mutaxassislikdan kelib chiqib qanday turdagi so'zlarni o'rganish va ulardan samarali foydalanish kerakligi haqidagi ma'lumotlarni bilib olishlari mumkin.

Yuqorida qayd etib o'tilgan materiallar talabalarga lingvistik jihatdan yozma va og'zaki nutq madaniyatini rivojlantirishga yordam bersa, ingliz tilida muloqot (til) etiketi ham muhim o'rin tutadi. "Muloqot (til) etiketiga rioya qilish uning samaradorligini ta'minlaydi", deydi inglizlar. Bunda muloqot (suhbat) jarayonida ijobiy mazmundagi so'zlardan foydalanish, ammo vulgar (qo'pol, so'kish va haqorat qilishda ishlatiladigan) so'zlardan foydalanmaslik muhim.

Yuqorida aytib o'tilgan ijtimoiy tarmoqlardan boshqa Internet tarmoqlari foydalanuvchilariga qulaylik yaratish maqsadida talabalarda nutq madaniyatini rivojlantirish bo'yicha bir qancha materilalar *Google Drive* platformasiga ham joylashtirilgan. *Google Drive* platformasi o'quv materiallari, *Doc* va *PDF* formatidagi kitob va maqolalar, prezentatsiya, audio va video materiallarni yuklash va saqlash imkonini beradi.

"The art of communication" papkasida, shuningdek, talabalarning ingliz tiliga asoslangan muloqot madaniyatini rivojlantirishga yordam beradigan ilmiy ishlar, jumladan, *"Advanced communication skills", "Notes on communication", "Developing communication skills for life and work"* kabi ishlar bilan tanishish mumkin.

Hujjatlar ingliz tilida o'ziga xos yondashuv asosida yuritilsa, o'zbek tilida ular boshqacha shaklga ega bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra, talabalar *Facebook* va *Telegram* ijtimoiy tarmoqlarida tarjimayi hol, ariza, tushuntirish xati, tilxat, xabarnoma, tabriknoma, taklifnoma, tavsifnoma kabi hujjatlarning muqobil – o'zbekcha hamda ingliz tilidagi ko'rinishlari bilan tanishtiriladi.

Facebook va *Telegram* ijtimoiy tarmoqlarida shakllantirilgan *"The art of communication"* sahifasi materiallari bilan talabalarni tanishtirish, ularni o'qituvchi tomonidan beriladigan amaliy topshiriqlarni bajarishga yo'naltirish maqsadida ular uchun "Muloqotning onlayn muhiti" nomli texnologiya tavsiya etiladi. Mazkur texnologiya o'z mohiyatiga ko'ra, nafaqat talabalarning ingliz tiliga asoslangan muloqot madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi, shu bilan birga, ular keyinchalik kasbiy faoliyatda bu kabi ijtimoiy tarmoqlar xizmatidan o'quvchilarga bilim berishda ham foydalanish malakalariga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ – 2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi qarori // http://www.lex.uz/docs/3171590.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi PQ – 1875-son "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori // http://www.lex.uz/docs/2126032.

3. Зимняя И.А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня, 2003. № 5. – С. 34–42.

Sadoqat RO'ZIYEVA,
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi

MOHIR-U MEHR-U MAHORAT

(8-sinf, III chorak)

Darsning mavzusi: Sodda gap va gap bo'laklari yuzasidan tahlil.

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy maqsad: o'quvchilarda sodda gap va gap bo'laklari yuzasidan tahlil haqida tushuncha hosil qilish;

b) tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarni ona Vatanga muhabbat, mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash;

d) rivojlantiruvchi maqsad: sodda gap va gap bo'laklarini to'g'ri tahlil qila olishga o'rgatish; o'quvchilarning so'zlarni tanlash, ularni muayyan tartibda joylashtirish va nutqda to'g'ri qo'llay olish ko'nikmasini rivojlantirish.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism.

O'quvchilar bilan salomlashilgach, davomat aniqlanadi va sinf tozaligi tekshiriladi. O'quvchilarning darsga tayyorgarligi ko'zdan kechiriladi. Dars musobaqa usulida olib borilishi aytiladi va sinf o'quvchilari uch guruhga bo'linadi.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Uyga vazifa sifatida berilgan 99-mashq o'qituvchi tomonidan ko'rib chiqiladi. O'tilgan mavzu **"Mantiqiy tafakkur"** o'yini yordamida mustahkamlanadi. Buning uchun o'qituvchi tomonidan berilgan izohtalab so'zlar mazmuni lug'atlar yordamida sharhlanadi. O'quvchilar tomonidan berilgan javoblar quyidagi slayd yordamida tekshiriladi va baholanadi:

T/r	So'zlar	Mazmuni
1	Bakovul	Podshoh, xon va lashkarga ovqat tayyorlovchilar ustidan nazorat olib boruvchi, bosh oshpaz
2	Shig'ovul	Buxoro va Xiva xonliklarida elchilarni kutib olish, xon huzuriga olib kirish, saroydagi qabul marosimlarini boshqarish va nazorat qilish bilan shug'ullangan shaxs
3	Salom og'asi	Amir, xon saroyida rasmiy marosimlarga boshchilik qilib, uni nazorat qilib turuvchi shaxs
4	Dodxo	1) Buxoro xonligida adolat, haq-huquq istovchilardan amir nomiga ariza qabul qiluvchi va uning javobini arzchilarga yetkazuvchi amaldor; 2) Qo'qon xonligida qozixona ishlari ustidan nazorat olib boruvchi amaldor

III. Yangi mavzu bayoni.

Yangi mavzu bayoni darslikdagi 119-mashqni bajarish bilan boshlanadi. Mashq sodda gap tahliliga asosan ko'rib chiqiladi. Buning uchun dastlab sodda gap tahlili bo'yicha tushuncha beriladi.

Tahlil namunasi:

Shubhasiz, inson ilm va mehnat bilan baxtli bo'ladi.

Gapda so'zlarning bog'lanishi:

– *inson baxtli bo'ladi* – tobe bog'lanish, moslashuv, kesim va eganing shaxs-sonda mosligi (III shaxs, birlik);

– *ilm bilan va mehnat bilan* – teng bog'lanish, **va** teng bog'lovchisi yordamida bog'langan;

– *ilm bilan baxtli bo'ladi* – tobe bog'lanish, boshqaruv, *bilan* ko'makchisi orqali bog'langan.

Gap bo'laklarini aniqlash:

Shubhasiz, inson ilm va mehnat bilan baxtli bo'ladi.

– uyushiq bo'lak: *ilm bilan, mehnat bilan*;
– ajratilgan bo'lak yo'q;
– kiritma: *shubhasiz*;
– undalma yo'q;
– gap bo'laklarining joylashuvi me'yoriy.

Gapning qurilishi:

– ifoda maqsadiga ko'ra – darak gap;

– his-hayajonning ifodalanishiga ko'ra – his-hayajonsiz gap;

– tuzilishiga ko'ra – sodda gap, yoyiq sodda gap, to'liq gap, egali gap.

Yuqoridagi tahlil asosida mashq va topshiriqlarni guruhlarga bo'lib beramiz.

Har bir mashq va topshiriqda tahlilning bir elementi mashqlar shartiga ko'ra amalga oshiriladi.

119-mashq. 1-guruh: "Oqilona javob" deb nomlangan matndan egali va egasiz gaplarni toping:

T/r	Matndagi gaplar	Egali gaplar	Egasiz gaplar
1	Alisher Navoiy Husayn Boyqaro saroyida bosh vazirlik qilgan kezlarida podsho doim uning so'zlariga quloq solib, shoir bilan maslahatda ish tutar ekan.	Egali gap, yoyiq gap	–

2.	Kunlardan bir kun erta tongda Husayn Boyqaro saroyga kirib ketayotib Navoiyga qarabdi-yu, ko‘rsatkich barmog‘i bilan boshini ko‘rsatibdi.	Egali gap, qo‘shma gap	–
3.	– Abdulatif, bunchalar parishonxotir bo‘lmasangiz, axir siyohdonni ag‘darib yubordingiz.	Egasiz gap, shaxsi ma’lum gap, qo‘shma gap	–

2-guruhga ushbu mashq matnida berilgan gaplarni gap bo‘laklari jihatidan tahlil qiladi:

– Kechirasiz, ustoz, – unga yuzlanibdi shogirdi, – haligi muammoning sababini o‘ylab xayolim qochibdi.

Shunda Navoiy shogirdlariga bo‘lgan voqeaning sir-asrorini aytib berishga majbur bo‘libdi:

– Husayn Boyqaro mendan: “Boshga baloni nima keltiradi?” – deb so‘radilar. Men esa: “Til”, – deb javob berdim.

Shogirdlar Navoiyning ziyrak va donishmandligiga yana bir marta qoyil qolishibdi.

3-guruh 120-mashqni bajaradi. Mashq shartiga ko‘ra quyida berilganlar ichidan yuqoridagi matnning umumiy xulosasi topiladi.

1. Tilingni avayla, omondir boshing. (Yusuf Xos Hojib) 2. Aytilgan so‘z – otilgan o‘q. (Maqol) 3. Noorin so‘z boshga balo keltirar. 4. So‘zingni o‘ylab so‘zla, qayg‘u-alam kelmaydi. (Yusuf Xos Hojib) 5. Podsho oldida uch toifadin guzir yoqdir: birinchisi – olimi boamal, ikkinchisi – vaziri sohibra’y, uchinchisi – munshiyi rostnavis. (Gulxaniy)

Yechim: Berilgan mashqdagi 1-, 3-, 4-gaplar yuqoridagi matn g‘oyasiga to‘g‘ri keladi.

Guruhlar javoblariga ko‘ra o‘qituvchi tomonidan rag‘batlantirib boriladi.

1-guruh 101-mashq matnida berilgan gap kesimlarini topib, ularni ot kesim va fe’l kesimga ajratadi:

T/r	Ot kesimli gap	Fe’l kesimli gap
1.	Fuqarolar bilan muloqot usullari va ularga ta’sir o‘tkazish yo‘llari sodda va tushunarli bo‘lmog‘i lozim.	Farobiy shunday yozadi.
2.	Hukmdorlar dorini bemorning sevimli va ko‘p tanovul qiladigan taomiga qo‘shib ichiradigan mahoratli tabibga o‘xshamog‘lari lozim.	Bu mamlakatni boshqaruvchi hukmdor ham o‘z mavqeyini butkul yo‘qotadi.
3.	Zero, mehr-u muhabbat va rag‘batlantirishlar fuqarolar bilan muomalaning eng asosiy usulidir.	Mamlakat esa halokatga yuz tutadi.

2-guruh 102-mashq matnida berilgan gaplarning egalarini topadi:

*1. Xushomadni yo‘qotishga uringan **hukmdor** o‘ziga nisbatan nafrat uyg‘otib qo‘yishi mumkin. 2. Buning sababi shunday izohlanadi: **tabiblar** deydilarki, sil kasalligini boshlang‘ich davrda **aniqlash** qiyin, ammo **davolash** oson. 3. Agar **xastalik** o‘tkazib yuborilgan bo‘lsa, aksincha, uni **aniqlash** oson-u **davolash** mushkul.*

3-guruh 121-mashq matnida berilgan gaplarning kerakli o‘rinlarida tirelarni to‘g‘ri qo‘yishi kerak bo‘ladi:

1. Olimlar, fozillar, adiblar – davlatning tanasidagi kuch. Ularga iltifot va ikromda bo‘l… Shunday yo‘l tutginki, hukumatingda orif arboblar, fazilatli insonlar va olimlar ko‘paysin. (U.G‘oziy) 2. Faqat o‘z shaxsiy manfaati haqida qayg‘urib burchni unutmoqlik – o‘taketgan pastkashlik. 3. Inson zotiga mansub odamlar bir-biriga o‘xshamaydilar. Ularning o‘xshash tomoni – bitta. U ham bo‘lsa, barchaning pirovard maqsadi – mukammallik.

Guruhlarning javobi umumlashtirilib, o‘qituvchi tomonidan qo‘shimcha ma’lumotlar beriladi:

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Mavzu **“Siz buni, albatta, uddalay olasiz!”** o‘yini yordamida musobaqa usulida mustahkamlanadi. Buning uchun guruhlardan berilgan qoliplarga so‘z shakllardan mosini qo‘yib gaplarni shakllantirish so‘raladi. Quyida biz Bernard Shouning hikmatli so‘zlaridan foydalandik:

1. To‘ldiruvchi + aniqlovchi + to‘ldiruvchi + ega + to‘ldiruvchi + hol + kesim. (7 ta so‘z)

2. To‘ldiruvchi + ega, ega + kesim. Ega + to‘ldiruvchi + kesim, ega + to‘ldiruvchi + kesim. (10 ta so‘z)

3. Bog‘lovchi + to‘ldiruvchi + kesim, ega + to‘ldiruvchi + kesim. (5 ta so‘z)

4. Ega + to‘ldiruvchi + aniqlovchi + aniqlovchi + to‘ldiruvchi + to‘ldiruvchi + hol + kesim. (8 ta so‘z)

5. Aniqlovchi + to‘ldiruvchi + to‘ldiruvchi + aniqlovchi + hol + aniqlovchi + ega + to‘ldiruvchi + kesim. (9 ta so‘z)

6. Aniqlovchi + ega + kesim, aniqlovchi + ega. (5 ta so‘z)

So‘z shakllari

T/r	1	2	3	4	5
1	ota-onalar	optimist	farzandlariga	jamiyatga	hissa qo‘shadi
2	o‘ylab topgan bo‘lsa	bolalarni	optimistlar ham	samolyotni	pessimist
3	hech narsani	agar	parashutni	unvonlar	to‘g‘ri
4	o‘ylab topilgan	katta	istamasang	eng	o‘rgatmaydi
5	tarbiyalash uchun	odam	pessimistlar ham	aslidagiday	odamlar haqida
6	xizmat qilgan	mamlakat	mamlakat uchun	o‘rganishni	tarbiyalashidir
7	xabardor qilish uchun	hayot	insoniyat uchun	ushaladi	pessimistlarning
8	ko‘rinishi kerak	xalqni	ixtiro qilgan	bolalarini	orzulari
9	qilishi mumkin bo‘lgan	va	optimistlarning	qo‘rquvlari	xizmati

Jami: 45 ta so‘z shakli.

Topshiriqning javobi:

1. Bolalarni to‘g‘ri tarbiyalash uchun ota-onalar farzandlariga aslidagiday ko‘rinishi kerak. (To‘ldiruvchi + aniqlovchi + to‘ldiruvchi + ega + to‘ldiruvchi + hol + kesim)

2. Jamiyatga optimistlar ham, pessimistlar ham hissa qo‘shadi. Optimist samolyotni o‘ylab topgan bo‘lsa, pessimist parashutni ixtiro qilgan. (To‘ldiruvchi + ega, ega + kesim. Ega + to‘ldiruvchi + kesim, ega + to‘ldiruvchi + kesim)

3. Agar o‘rganishni istamasang, hayot hech narsani o‘rgatmaydi. (Bog‘lovchi + to‘ldiruvchi + kesim, ega + to‘ldiruvchi + kesim)

4. Unvonlar mamlakat uchun katta xizmat qilgan odamlar haqida xalqni xabardor qilish uchun o‘ylab topilgan. (Ega + to‘ldiruvchi + aniqlovchi + aniqlovchi + to‘ldiruvchi + to‘ldiruvchi + hol + kesim)

5. Odam mamlakat va insoniyat uchun qilishi mumkin bo‘lgan eng katta xizmati – bolalarini tarbiyalashidir. (Aniqlovchi + to‘ldiruvchi + to‘ldiruvchi + aniqlovchi + hol + aniqlovchi + ega + to‘ldiruvchi + kesim)

6. Optimistlarning orzulari ushaladi, pessimistlarning qo‘rquvlari. (Aniqlovchi + ega + kesim, aniqlovchi+ ega)

V. O‘quvchilarni baholash va rag‘batlantirish.

Dars so‘ngida yig‘ilgan ballar hisoblanib, g‘olib guruh e’lon qilinadi va rag‘batlantiriladi. Darsdagi ishtirokiga ko‘ra barcha o‘quvchilar baholanadi.

VI. Uyga vazifa.

103-mashq. Maqollardagi bo‘sh o‘rinlarni quyidagi so‘zlardan tanlab to‘ldiring: *bog‘, haqiqat, adolat, tog‘, xalq, olomon, daraxt, buta, qozi, boy, odil*.

1. … kishi oyday, oqib turgan soyday. 2. …ning yuzi yorug‘, qo‘li uzun. 3. Haq ishni … qo‘llar. 4. Yolg‘iz … o‘rmon bo‘lmas. 5. Ko‘p biriksa , … qular.

Mo‘tabar TAJIBAYEVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti magistranti

Методик тавсия

OG‘IR NUTQ NUQSONI BO‘LGAN BOLALARNI SAVODGA TAYYORLASH

Og‘ir nutq nuqsoniga ega bolalar murakkab nutq buzilishi bilan tavsiflanadi, bunda nutq tizimining tovush va semantik tomoni bilan bog‘liq bo‘lgan barcha komponentlar shakllanishi eshitish va aqlning normal bo‘lmasligi bilan buziladi. Bunda osongina aniqlanadigan va, ko‘pincha, tashxisni aniqlovchi ko‘rsatkich sifatida qabul qilinadigan tovush talaffuzidagi kamchiliklarga qo‘shimcha ravishda nutq funksiyalarining butun majmuasi buziladi: fonetik nutq rivojlanmaganligi, murakkab bo‘g‘inli so‘zlar talaffuzining buzilishi, so‘z boyligining yetarli darajada rivojlanmasligi, nutqda agrammatizmlar. Bularning barchasi, birgalikda, og‘ir nutq nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘qish va yozishni o‘rgatishda qiyinchiliklarga olib keladi.

O‘tkazilgan monitoring natijalariga ko‘ra o‘g‘ir nutq nuqsonli maktabgacha yoshdagi bolalarning 74 foizi o‘qish va yozishni o‘rganishda, tovushlarni tavsiflashda qiynaladi, fonematik eshitishi zaif rivojlangan bo‘lib, harflarni yomon eslab qoladi, so‘zlarni ovozli tahlil qilish, so‘zlarni bo‘g‘inlarga, gaplarni so‘zlarga ajratishda qiynaladi.

Bolalarda savod egallashga bo‘lgan qiziqish 5–7 yoshdan shakllana boshlaydi. Og‘ir nutq nuqsoni bo‘lgan bolalarni savodga tayyorlashda quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

– fonematik idrokni rivojlantirish;

– tovushlarni talaffuz qilish va ularni eshitib farqlash, tovushlarni analiz-sintez qilish ko‘nikmalarini shakllantirish;

– aqliy operatsiyalarni shakllantirish (hikoyani jumlalarga, gaplarni so‘zlarga, so‘zlarni bo‘g‘inlarga, bo‘g‘inlarni tovushlarga bo‘lish hamda tovushlarni bo‘g‘inlarga, bo‘g‘inlarni so‘zlarga va boshqalarga birlashtirish);

– qo'yilgan vazifani tushinish, yechimini topish va uni mustaqil bajarish malakasini o'stirish;

– mayda qo'l motorikasi va grafik qobiliyatlarini rivojlantirish.

Nutqiy tovushlarni farqlash – fonematik eshitish – aytilgan gapning ma'nosini tushinish uchun asosdir. Nutqni tushunish shakllanmagan bo'lsa, bola o'ziga aytilgan so'zni emas, balki eshitilgan so'zni idrok etadi (eslaydi, takrorlaydi, yozadi). Fonematik idrokning rivojlanmaganligi, ayniqsa, maktabda yozish va o'qishni o'rgatishda aniq namoyon bo'ladi. Aynan shu sababdan ham savodga tayyorlash jarayonida fonematik idrokni rivojlantirishga e'tibor qaratiladi.

Tovushlarni eshitib farqlashga o'rgatishda bolalar tovush va harfni farqlashga o'rgatiladi, tovushlarning harfiy ifodalari bilan tanishtiriladi. Tanishtirish jarayonida kartochkalardan foydalanish, unli tovushlarni yorqin ranglarda, undosh tovushlarni ko'k rangda ifodalash yaxshi natija beradi, bu bolani unli va undosh tovushlarni farqlashga o'rgatadi. Bolaga dastlab unli tovushlar tanishtiriladi, tovushlarni quyidagi ketma-ketlikda o'rganish tavsiya etiladi: o, a, u. Birinchi tovushni o'zlashtirmaguncha, keyingi tovushga o'tilmaydi. Bolaga harfiy belgi ko'rsatiladi va tovushni aniq ifodalab talaffuz qilinadi, bunda bola lablarni aniq ko'rib turishi kerak. Tovushlarni odamlar yoki hayvonlar harakati bilan bog'lash lozim (qizca qanday yig'laydi – a-a-a-a, paravoz qanday ovoz chiqaradi – u-u-u-u va h.k.).

Harfiy ifodani yaxshi eslab qolish uchun turli xil usullardan foydalanish mumkin: **dirijor** – bolaning qo'li bilan havoda harf chiziladi, so'ng bola o'zi chizadi; **arxitektor** – berilgan harfni gugurt cho'pidan, tayoqchadan yasash; **kim birinchi** – bolaga *a, o, u* unlisi bilan boshlangan suratlar ko'rsatiladi, bola suratni nomlaydi, uning birinchi tovushini cho'zib talaffuz qiladi va o'sha unli ifodalangan harfni topib ko'rsatadi. Avval unli tovushlar, so'ng undosh tovushlarning harfiy ifodasi bilan tanishtiriladi. Tovushlarni tanish, farqlash bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Savodga o'rgatishning tovushlarni analiz-sintez qilish metodologiyasi K.D.Ushinskiy va D.B.Elkoninning nazariy-amaliy ishlanmalariga asoslanadi. Ushbu usul o'qishga o'rgatishning ishonchli va muvaffaqiyatli usuli sanaladi. Bu o'qishga o'rgatish tizimi bo'lib, o'rganishning bininchi bosqichida so'zlar, bo'g'inlar tarkibi harflar va tovushlarga bo'lib o'rganilsa, ikkinchi bosqichda harf-tovushlarni bo'g'in va so'zlarga birlashtirib o'qishga o'rgatiladi.

Mayda qo'l motorikasining yuqori darajada rivojlanishi miya yarimsharining funksional yetukligi, bolaning o'qishga psixologik tayyorligini ko'rsatadi. Mayda qo'l motorikasini rivojlantirishga qaratilgan o'yinlar va mashqlar miya yarimsharining ishlashini saqlash vositasi hisoblanadi. Bunday o'yinlar jarayonida bolalar e'tibori, eshitishi, ko'rishi, motor xotirasi yaxshilanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qish va yozishga o'rgatishda fazoviy tasavvurlarni shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega. Ular nafaqat umumiy fazoviy tasvirlarni, balki yozish va o'qish jarayonida so'z va harflar ketma-ketligini ham o'z ichiga oladi. Fazoviy mo'ljal olish tasavvurlari yetarli shakllanmaganligi o'qish va yozish jarayonlari rivojlanishiga ta'sir qiladi. Yozishni o'rganish uchun bola fazoviy ketma-ketlikni, grafik belgilar va vaqtinchalik tovush komplekslarini o'zaro o'zgartirishni o'rganishi lozim. Shuning uchun nutqni idrok etish va fazoviy mo'ljal olish komponentlarini bir-biridan ajratib bo'lmaydi.

Xullas, og'ir nutq nuqsoniga ega bolalar nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etish uzoq muddatli va murakkab jarayon bo'lsa-da, logopedik mashg'ulotlar natijasida bolalar asta-sekin to'g'ri nutqni, nutq komponentlarini o'zlashtira oladilar. Savodga o'rgatish jarayonida har bir bolaning individual xususiyatlarini inobatga olish, savod o'rganish jarayoniga salbiy ta'sir etuvchi omillarni bartaraf etish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ayupova M.Y. Logopediya. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2011.
2. Волкова Л. Логопедия. – Москва: Владос, 2004.
3. Левина Р.Е. Основы теории и практики логопедии. – Москва: Просвещение, 1967.

Tahlil

Gulnora MUQIMOVA,
Buxoro viloyat XTXQTMOHM Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasi o'qituvchisi

O'ZBEK TILI O'SIMLIK NOMLARINING LEKSIKOGRAFIK TALQINI

She'riy asarlarda ayollar tasvirida fitomorflardan foydalanish qadim an'anaga ega. Jumladan, Alisher Navoiy ijodida ham ma'shuqa tasvirida fitonim metaforalar ko'p uchraydi:

Arg'uvon – burchoqdoshlar oilasiga mansub bahorda gullaydigan qizil gulli daraxtlar turkumi. Yevropa va Osiyoda keng tarqalgan. "Qutadg'u bilig" asarida, Atoiy va Lutfiy ijodida ham uchraydi. Lekin Navoiy bu obraz-

ga alohida e'tibor qaratgan. Uni turli ramzlarda qo'llagan, xususan:

1. Qizil gul:

Yuzung hajrida bilkim, qon yoshim oqmish
chaman ichra,
Qachon ko'rsangki, har bir shox uza gul
arg'uvon bo'lmish.
(g'aroyib us-sig'ar, 244-g'azal)

Shoir g'azalda metaforadan mohirlik bilan foydalanganki, oshiqning ko'zidan oqqan qizil ko'z yoshining arg'uvon kabi qizilligi aytilgan.

2. Ma'shuqa ruxsori:

Qomatingdek bog'i husn ichra yo'q sarvi ravon,
Orazingdek xud qoni sarf uzra arg'uvon.
(Navodir ush-shabob, 444-g'azal)

Bu parchada arg'uvondagi qizillik ma'shuqa yuzining qizilligiga ko'chirilgan.

3. Mashuqa libosi:

Ul bahori husnning ruxsorini dehqoni sun,
Arg'uvon-u to'n uza aylabdurur olu guli.
(Badoe' ul-vasat, 35-qit'a)

4. Oshiq ko'zidagi yosh:

Qon yoshim sayliki tutmish dasht birla tog'ni,
Arg'uvon-u loladin o'zga ne butkay ul sudin.
(Badoe' ul-vasat, 459-g'azal)

"G'aroyib us-sig'ar"da arg'uvon va sarvga bag'ishlangan 447-raqamli maxsus g'azal bor. O'zbek tili V tomli izohli lug'atining I jild 103-betida arg'uvon haqida qisqacha ma'lumot berilgan: 1. Yog'och o'ymakorligida ishlatiladigan, bahorda ochiladigan qirmizi gulli daraxt (burchoqdoshlar oilasiga mansub daraxtlar turkumi). Ibodillo… otni oldidagi qator arg'uvon daraxtlarining biriga bog'lab qo'ydi. (H.G'ulom, "Mash'al")

O'TIL I jildida arg'uvonning ko'chma ma'nosi kiritilmagan, Sh.Sirojiddinov muharrirligi ostida chiqarilgan "Alisher Navoiy: qomusiy lug'at"ning 75-betida arg'uvon fitonimining yuqoridagi 4 xil ko'chma ma'nosi berilgan. Agar O'TILga ham shunday ma'lumotlar kiritilsa, o'quvchi g'azal tahlili jarayonida bu so'zlardan unumli foydalangan bo'lardi.

Navoiy g'azallarida berilgan yana bir fitonim – binafsha. **Binafsha** – gunafshadoshlarga mansub ko'p yillik o'simlik. Binafsha gullarining doimo egilib chayqalishi hamda xushbo'yligi turli poetik obraz va ma'nolarni ifodalaydi. Tasviriy adabiyotda inson aqli bilishi ojiz bo'lgan ilohiy hikmat ma'nosida qo'llangan. Navoiy she'riyatida yorning burama sochi va halqa-halqa zulfi binafshaga o'xshatiladi:

Shikanj turrasidinkim girih yozilmaydur,
Binafshaedurur, ammo hanuz ochilmaydur.
(Navodir un-nihoya, 204-g'azal)

Bo'stonafro'z – gultojixo'roz. Bo'yi bir yarim metrgacha o'sadigan, hidsiz, qizil rangda gullaydigan o'simlik haqida Alisher Navoiyning "G'aroyib us-sig'ar"dagi 346-g'azalida shunday satrlar bor:

Bo'ldi bo'stoni uzoring bodadin afruxta,
Mayni go'yo bo'stonafro'z ila rang aylading.

Parchani o'qir ekanmiz, shoir bo'stonafro'zdagi qizillikni may rangiga ko'chirganligining guvohi bo'lamiz.

Mumtoz adabiyotda **nargis** fitonimi ham ko'p kuzatiladi. **Nargis –** chuchmomadoshlar oilasiga mansub xonakilashtirilgan sariq, oq rangli bahor guli. Qadimda obraz va ramz sifatida ham qo'llangan. Yunon mifologiyasida bu gul bahorda qaytib keladigan yer osti ma'budi Persefinga atalgan. Asotirlarda g'ozal chehrali yigitning o'ziga o'zi mahliyo bo'lib o'lishi to'g'risidagi naql bilan bog'langan. Nargis degan yigit timsoli o'ziga bino qo'yganlik va manmanlik ramziga aylangan. Gullar tilida Nargis xohish va xudbinlikni anglatadi. Sharq adabiyotida ushbu gul jodu, ohu, hindu, kofir, kufur, jallod, balo, bodom istilohlari bilan birga ma'shuqaning ko'zlariga muqoyasa qilinadi:

Ko'zung shamoyilini nargis ar ko'ra olmas,
Sanga ne fikr ko'zi chiqsun ulki bo'ldi hasus.
(Nabodir ush-shabob, 122-g'azal)

Nilufar – nilufardoshlarga mansub suvda o'sadigan ko'p yillik o'simliklar turkumi. Nilufar ramz sifatida xitoy, hind, yapon, misr san'at va badiiy adabiyotida keng qo'llaniladi. Nilufar – dunyo timsoli, uyg'onish, go'zallik, hayot, baxt, poklik va ma'naviyat ramzi. Sharq adabiyotida nilufar ma'sumlik va sodda g'ozallikni ifodalaydi. Navoiy asarlarida, asosan, moviy rangli nilufar guli tasvirlanadi:

Tutti ko'k feruzagun jomini shingarfi bulut,
Soqiyo, nilufari jom ichra gulgun boda tut.
(Badoe' ul-bidoya, 70-g'azal)

Yorning libosi va shunga monand osmon rangli nilufarga muqoyasa qilinadi:

Qo'y dur-u feruza bahsinkim, nujumu charxni
Nilufar bargi uza shabnamcha ko'rmas himmatim.
(G'aroyib us-sig'ar, 393-g'azal)

"Sab'ai sayyor" dostonidagi moviy rang qasrda aytilgan "Mehr va Suhayl" hikoyatida nilufar guli asosiy detal vazifasini bajargan. Dostonda u sadoqat, muhabbat va jasorat ramzi sifatida qo'llangan:

Ko'ngli gar nilufarg'a rog'ib edi,
Mehr ila nilufar munosib edi. (Sab'ai sayyor, 24-bob)

RA'NO – bir tomoni qizil, bir tomoni sariq rangdagi gul. Ushbu ramz Navoiy she'riyatida yorning go'zal chehrasi, xush qaddi va tabiiy tarovatini ifodalab keladi:

Qasdima azm atti, vah, o'lmakdin o'zga chora ne
Kim, erur ham jilva ofat, ham qaddi ra'no balo.
("Badoe' ul-vasat", 600-g'azal)

SABZA – yashillik, ko'kat, ko'klam, maysa.

Ko‘kragimdur subhning pirahanidin chokrok,
Kirpikim shabnam to‘kilgan sabzadin namnokrok.
(“Navodir ush-shabob”, 326-g‘azal)

SAVSAN – ignabarglilar oilasiga mansub o‘simlik, gulsapsar. Gullari oq, sariq va ko‘k bo‘ladi. Filgo‘sh va zanbaq degan nomlari ham bor. Savsan ramzlar tilida hurlik timsolidir. Navoiy she’riyatida savsanning barcha turlari o‘z o‘rnida qo‘llanilib, turli axloqiy va estetik vazifalarni bajargan. “Badoe’ ul-vasat” devonining 399-g‘azalida savsan obrazi har bir baytda qo‘llanilib, turli jihatlariga e’tibor qaratilgan:

Bu chaman kayfiyatin
Ozodaekim qildi fahm,
O‘n tilli savsandek o‘lsa
Hayrat aylar lol ani.

SANDAL – marjono‘tdoshlar oilasiga mansub doim yashil o‘simlik, yoqimli hid taratuvchi daraxt. A.Navoiyning “Nabodir ush-shabob” asarining 356-bobida sandal fitonimi ishtirokida quyidagi g‘azal berilgan:

May bila mayxonaning xishtin tosh uzra hal qiling,
Chun xumoridin sudo o‘lsa ani sandal qiling.

SARV – janubiy o‘lkalarda tik o‘sadigan, ignabargli va doim yashil daraxt. Asl vatani Livan, Kipr va Sitsiliya orollari hisoblanadi. Ushbu daraxt qadimdan turli ma’nolarning ramzi va timsoli bo‘lib kelmoqda. Masalan, yunon asotirlarida sarv ayriliq ramzi sanaladi. “Tavrot”ga ko‘ra sarv abadiylik xususiyatiga ega bo‘lganligi uchun Nuh alayhissalom o‘z kemasini sarv yog‘ochidan yasaydi. Zardushtiylar e’tiqodiga ko‘ra Kashmirda ekilgan sarvni Zardusht Kashmirdan olib keladi. Arab xalqi bu daraxtni shajarat ul-hayot (tiriklik daraxti) deb ataydi.

Sarvning bir necha turlari bor. Sarvi sihiy – ikki shohi tik o‘sadigan sarv bo‘lsa, sarvi noz – shoxlari odam qo‘llaridek ikki tomondan pastga moyil sarv turidir. Sarvi ozod esa shox-shabbasiz, tik o‘sadi. Xalq orasidagi e’tiqodga ko‘ra qayerda sarv bo‘lsa, ilon in quradi. Shuning uchun ko‘p hollarda yorning xush qomati sarvga, sochi esa ilonga o‘xshatiladi:

Gul parishon o‘ldi-yu sarvi sihiy topti shikast,
Bog‘ aro gulgasht ul sarvi gulandom aylagach.
(“Favoyid ul-kibar”, 97-g‘azal)

SUMAN – yasmin guli zaytundoshlar turkumiga kiradi. Mumtoz adabiyotda, jumladan, Navoiy ijodida uning barglari ma’shuqaning go‘zal oq yuziga, xushbo‘yligi muattar sochlariga muqoyasa qilinadi. Navoiy she’riyatida suman so‘zi negizida yasalgan quyida so‘zlarni uchratamiz: **sumanbar** – oqbadan go‘zal; **sumanbez** – xush ifor taratuvchi; **sumanso** – sumandek oppoq, go‘zal; sumanso(y) – xushbo‘y hid taratuvchi; yor zulfining sifati; **sumanbo‘y** – sumandek iforli.

Lek ul tikanlar ichra xayoling bila ko‘ngling
O‘ynar magar gul uzra-yu ag‘nar suman aro.
(“G‘aroyib us-sig‘ar”, 21-g‘azal)

TABARXUN – qizil novdali daraxt. Ayrim lug‘atlarda keltirilishicha, tabarxun – qizil novdali tol daraxtidirkim, uning egma shoxlaridan shotirlar o‘zlariga tayoq yo‘nib olganlar. “Farhangi Nazzom”da berilishicha, qizil tolning shirasi qizil rangda bo‘lganligi uchun tabarxun deb atalgan. She’riyatda qizil rang, qonli yosh ma’nosida ham keladi:

Tushub tufroqqa Shopuri jigarxun,
Qilib qon yoshi mujg‘onin tabarxun.
(“Farhod va Shirin”, 51-bob)

O‘SMA (VO‘SMA) – qoshga qo‘yiladigan tabiiy bo‘yoq. Navoiy asarlarida ma’shuqaning qoshlarini yashiltob qora (lojuvard) rangga kiritishi bilan birga oshiq qalbidagi ishqni yanada kuchaytiradigan pardoz vositasi.

G‘UNCHA

1. Ochilmagan gul, gulg‘uncha:

Qiliptur guli otashin g‘unchasi,
Ko‘ngulni o‘kush so‘zi hijron manga.
(“Navodir ush-shabob”)

2. Ilohiy go‘zallikning kamolga yetmagan yoki pinhon (saqlanadigan) tajalliysi, oshiq ko‘ngliga yuborilgan ilohiy asror:

Gul kibi soch xurdakim, yel yirtibon toroj etar,
G‘unchakim, o‘z naqdini og‘zida pinhon aylamish.
(“G‘aroyib us-sig‘ar”)

Xullas, etnik madaniyat, milliy tafakkurning izlari iboralar ma’nosida aks etishini lug‘atlardagi izohlar, badiiy asar matnlarini kuzatish orqali ham bilib olish mumkin. Til va madaniyat munosabati, til hodisalaridagi madaniy qarashlarning aks etishi lingvomadaniy hodisa yoki madaniy belgilar sifatida qayd etilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.Sirojiddinov. Alisher Navoiy: qomusiy lug‘at. – Toshkent: Sharq, 2016. I–II jildlar.
2. Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo‘ng‘urov R., Rustamov H. O‘zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1983.
3. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: O‘zME, 2000. IV jild.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006–2008. I–V jildlar.
5. O‘zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1983.
6. O‘rinboyev B., Qo‘ng‘urov R., Lapasov J. Badiiy tekstning lingvistik tahlili. – Toshkent: O‘qituvchi, 1990.
7. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish / Darslik. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.
8. Qo‘ng‘urov R. O‘zbek tilining tasviriy vositalari. – Toshkent: Fan, 1997.
9. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. – Toshkent: Sharq, 1998.
10. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1979.
11. Husayniy A. Badoe’ us-sanoe’. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1981.

Gulshod KARIMOVA,
Ichki ishlar vazirligi akademiyasi o'qituvchisi,
filologiya fanlari nomzodi

GRAMMATIKALIZATSIYA VA UNING BOSHQA YONDOSH HODISALARGA MUNOSABATI

Ma'lumki, til – bevosita kuzatib bo'lmaydigan semiotik belgilar va ularning bog'lanishini ta'minlovchi qonun-qoidalar yig'indisidan tashkil topgan murakkab tizim. Biroq mazkur tizim o'z-o'zi uchun emas, balki nutqning shakllanishi uchun xizmat qiladi. Shunday ekan, til belgilari nutqiy voqelanish jarayonida evolutsion taraqqiyot og'ushida ba'zi o'zgarishlarga uchrashi muqarrar. Bunday o'zgarishlar hamma tomonidan bir xil qabul qilinmaydi. Xususan, ayrim tilshunoslar tadqiqotimiz obyekti bo'lgan grammatikalizatsiyani konversiya bilan mushtarak hodisa deb tushunadilar. Bizningcha, bu ikki hodisa o'rtasida o'ziga xos farqli jihatlar mavjud bo'lib, bu xususda o'zbek tilshunosligida aniq to'xtamga kelinmog'i lozim. Zotan, konversiya va grammatikalizatsiya hodisalari o'rtasida ma'no siljish nuqtayi nazaridan qisman umumiylik mavjud bo'lsa-da, mazkur jarayonlar quyidagi xususiyatlariga ko'ra o'zaro tubdan farqlanadi: grammatikalizatsiyada so'zning lug'aviy ma'no bildirish xususiyati yo'qola borib, grammatik ma'no kuchayadi. Bu jarayonda so'z ma'nosida ro'y beradigan turli darajadagi mavhumlashish yaqqol ko'rinadi: *ala turur men – aladurmen – alamen*. Konversiya esa so'zning o'z shaklini o'zgartirmagan holda bir turkumdan boshqa turkumga funksional almashinuvi yoki to'liq ko'chishidir. Endi savol tug'iladi: xo'sh, so'z turkumlari orasida yuz beradigan ko'chishning funksional almashinuvi va birining ikkinchisiga ko'chishi – to'liq ko'chish xarakteridagi ko'rinishlari qanday o'ziga xos xususiyatlarga ega?

Funksional almashinuvda so'z faqat matnda boshqa turkumga xos bo'lgan sintaktik vazifani bajaradi. Har bir so'z turkumi o'ziga xos semantik-grammatik belgilarga ega. So'zlar o'z turkumi doirasidagi vazifalarni bajarishi, unga xos bo'lgan leksik-grammatik xususiyatlarga ega bo'lish bilan birga boshqa so'z turkumi o'rnida ham qo'llanishi mumkin. Bunda so'z bir turkumdan ikkinchi turkumga butunlay o'tib ketmaydi, balki matndan tashqarida o'z turkumini saqlaydi. Til sathida ot, sifat, son va olmosh uzviy aloqador. Buning asosiy sababi hali so'z turkumlari orasida qat'iy farqlanishlar bo'lmagan – ot, son, sifat, olmoshlarning hammasi umumiy ism turkumi doirasida o'rganilgan davrlarga borib taqaladi. Shu sababdan nutq jarayonida narsa-buyumni belgisi yoki miqdori orqali anglatish hodisasi ancha faol. So'zning bir turkumdan boshqasiga ko'chishi tilda katta rol o'ynaydi. Chunki u fikrni jonli ifodalashda semantik-stilistik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqacha aytganda, konversiya tilning nominativlik imkoniyatini kengaytirib, fikr ifodalash usullarining rang-barang bo'lishi uchun xizmat qiladi.

So'zlarning turkumlararo funksional ko'chishi juda ko'p uchraydigan hodisadir. Amaliy jihatdan qariyb har qanday so'z o'z turkumidan boshqasiga ko'chishi mumkin. Mazkur jarayon faqat matnda voqe' bo'ladi: ot→sifat, ot→ravish, ot→fe'l, ot→olmosh, ot→son; sifat→ot, sifat→ravish, sifat→son, sifat→olmosh, sifat→fe'l; ravish→ot, olmosh→ravish, olmosh→sifat; son→ot, son→ravish, son→olmosh; sifatdosh→ot, sifatdosh→sifat, sifatdosh→harakat nomi, sifatdosh→ravish; ravishdosh→ravish.

Bir so'z turkumining ikkinchisiga o'tishi – to'liq ko'chish esa uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllanuvchi murakkab hodisa hisoblanadi. Bizningcha, konversiya jarayonini so'z yasash usullaridan biri sifatida ko'rsatish maqsadga muvofiq emas. Zero, bir turkumdagi so'zning boshqa turkumga ko'chishi deganda til taraqqiyoti natijasida bir turkumdan ikkinchi turkumga o'tgan so'z nazarda tutiladi. Bunda mazkur so'zning grammatik mohiyati, qisman ma'nosi o'zgaradi. Sifatlarning otga ko'chishi ham shunday hodisa sanaladi. Masalan, *qiz, o'g'il, erkak, ayol, kasal, chol* kabi so'zlar asli sifat bo'lib, keyinchalik otga aylangan. Bunday so'zlarning otga ko'chganini yoki ko'chayotganini ko'rsatuvchi belgi ularning sifat bilan ifodalangan aniqlovchi olishida ko'rinadi: *yosh yigit, qari chol, chiroyli ayol* kabi. Sifat (yoki boshqa biror turkum so'zi) ning otlashuvi esa gapda uning ot bajaradigan sintaktik vazifada kelishidir.

O'zbek tilida so'z turkumlarining biridan ikkinchisiga to'liq ko'chishi konversiyaning birinchi usuli singari faol bo'lmasa-da, uchrab turadi. To'liq ko'chish leksemada yangi sifat xususiyatlarining asta-sekin va uzoq vaqt davomida to'planib borishi bilan so'zda yangi leksik-grammatik jihatlarning voqe bo'lishi natijasida yuzaga keladi. Bir turkumdan boshqasiga o'tish hodisasida so'zdagi o'z turkumiga xos belgilar shu qadar kuchsizlanadiki, oqibatda u ikkinchi turkumga xos xususiyatlarga ega bo'lib, shu kategoriyaga ko'chadi. Ularda ko'chganlik sezilmas holga kelganligi tufayli o'zi ko'chgan turkumning tarkibini boyitadi. Amaliy jihatdan quyidagi so'z turkumlarida to'liq ko'chishga xos xususiyatlar ko'proq uchraydi: ot→sifat, ot→ravish; sifat→ot, sifat→ravish; son→olmosh, son→ravish; sifatdosh→sifat; ravishdosh→ravish.

Konversiya jarayoni qaysi turkumlar doirasida yuz berishiga ko'ra bir qancha turlarga bo'linadi. O'zbek tilida so'z turkumlari o'rtasidagi almashinuvning asosiy ko'rinishi otlashish – substantivatsiyadir. Nutqda boshqa so'z turkumlarining otga ko'chishiga otlashish deyiladi. Otlashish, ayniqsa, sifatlarda kuchli. Chunki ot bilan sifat qat'iy farqlanmagan kategoriyadir: chunonchi, ot bilan sifatning bir-biridan ayrilmaslik xususiyati ma'lum darajada hozirgi tilimizda ham bor. Ot predmetning nomini anglatsa, sifat belgining nomini anglata-

di. Matnda predmetni belgisi orqali bildirish juda ko‘p uchraydi. Sifatning otlashishi, birinchidan, so‘zning otga xos grammatik belgilar (kelishik, egalik, ko‘plik)ni qabul qilishi, ikkinchidan, otning tashqi shakliy belgilarini olmasdan, sintaktik holat orqali sodir bo‘ladi. Ikkala holatda ham so‘z otga butunlay ko‘chmaydi. Nutq sathidan tashqarida sifatligicha qoladi.

Semantik maydonda ot bilan son o‘rtasida umumiy bog‘liqlik mavjud. Ularning biri predmet nomini, ikkinchisi miqdorini ko‘rsatadi. Til sathidagi bunday aloqadorlikdan nutqda keng foydalaniladi. Ya’ni matnda predmetni miqdori orqali anglatish hodisasi ko‘p kuzatiladi. Son otlashganda otga xos grammatik belgilarga ega bo‘ladi va gapda u bajaradigan sintaktik vazifalarni bajaradi. Nutqdan tashqarida o‘z turkumi doirasida qoladi. Son → ot hodisasida ot ifodalanmay, son uning o‘rniga ko‘chadi. O‘zbek tilida ayrim so‘zlarning son ma’nosida (bir soni o‘rnida *yakka, yolg‘iz* so‘zlari, ikki soni o‘rnida *qo‘sh, juft* so‘zlari) qo‘llanishi hodisasi ham uchraydi.

Olmoshlar ma’no jihatdan boshqa so‘z turkumlaridan ma’lum darajada farqlanadi; ot, sifat, son kabi predmetning nomi, belgisi, miqdorini bildirmay, ular o‘rnida almashinib qo‘llanadi. Olmoshlar nutq jarayonida otlashadi.

Sifat otlashgani singari nutqda boshqa so‘z turkumlarining ham sifat turkumi vazifasida ishlatilishi uchraydi. Sifatlashish hodisasi tilshunoslikda adyektivatsiya deb nomlanadi. Bu hodisaning o‘zbek tilidagi asosiy ko‘rinishi otlarning sifat o‘rnida kelishidir. Ma’lumki, sifat, son kabi turkumlar sifatlovchi bo‘lib keladi. Ot esa bunday xususiyatga ega emas. Adyektivatsiya jarayonining yuzaga kelish nuqtasi sintaktik sath bo‘lib, bunda ot o‘z turkumiga xos leksik-grammatik belgilardan mahrum bo‘ladi, ya’ni u narsa nomini emas, balki sifatlanmishdan anglashiladigan predmetning materialini, shaxsning xususiyatini bildiradi. U gapda sifat kabi sintaktik vazifa bajarsa-da, sodir bo‘layotgan jarayondan tashqarida otligicha qolaveradi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, til sathida ot, sifat, son va olmosh o‘zaro uzviy aloqador. So‘z turkumlari orasidagi ana shu ichki aloqaning mustahkamligi konversiya (xususan, funksional almashinuv) jarayonining faol namoyon bo‘la olish imkoniyatini keltirib chiqaradi. Tildagi bunday chambarchas bog‘liqlikdan nutqda ham unumli foydalaniladi. Natijada yuqoridagi so‘z turkumlari o‘rtasida ma’lum bir so‘zning matnda o‘z kategoriyasidan tashqari boshqa turkumga xos vazifani ham bajarish imkoniyati tug‘iladi: semantik maydondagi yaqinlik nutq jarayonida sodir bo‘ladi. Ba’zi ot, son, sifatlarning nutqda asl ma’nosini umumlashtirib, olmoshga siljishini ham shu qatorga kiritish mumkin. Oqibatda boshqa so‘z turkumlarining olmoshga funksional-grammatik jihatdan ko‘chishi – pronominalizatsiya hodisasi sodir bo‘ladi. Olmoshlashish natijasida ot predmetni, sifat belgini, son esa miqdorni bildirmay, ularga ishora qiladi. Boshqa so‘z turkumlarining matnda ravish bajaradigan vazifada kelish hodisasiga adverbializatsiya deyiladi. Ravishlashish jarayoni tilimiz tarixida ham ko‘p uchraydi. Xulosa qilib aytganda, kategoriyalar o‘rtasidagi ko‘chish jarayoni – konversiyada funksional almashinuv va to‘liq ko‘chish o‘zaro farqlanadi. Nutq hodisasi hisoblanmish funksional almashinuvda so‘zdagi sintaktik vazifa hamda morfologik paradigmaning o‘zgarishi asosiy rol o‘ynaydi. U so‘zning nutq sathida boshqa turkum vazifasini bajarish uchun moslashuvi bo‘lib, ifoda usullarini rang-barang qilib, nutqning uslubiy jihatdan ixcham bo‘lishini ta’minlaydi.

Konversiyaning ikkinchi ko‘rinishi to‘liq ko‘chish bo‘lib, bunday so‘zlar ko‘chgan turkumiga xos barcha belgilarga ega bo‘ladi va shu turkum tarkibini boyitadi. To‘liq ko‘chgan so‘zlarda ikkinchi turkumga xos xususiyat turg‘un va doimiydir. To‘liq ko‘chish til hodisasidir. Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, birinchidan, konversiya bir qarashda leksik ma’noning grammatik ma’no tomon siljishi bilan bog‘liq hodisa, ya’ni grammatikalizatsiyaga o‘xshab ketadi. Lekin grammatikalizatsiyada semantik yoki fonetik o‘zgarish ro‘y beradi: *aytib yuboraman – aytvoraman; yoza oladi – yozoladi*. Bu o‘rinda jonli so‘zlashuv nutqi ta’siri ostida ayrim so‘zlarning qisqartirib talaffuz etilishi; tovush qisqarishi, ya’ni eliziya hodisasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ikkinchidan, konversiyaga uchragan so‘z bir turkumdan boshqasiga ko‘char ekan, ma’lum sintaktik vazifani ham bajaradi. Grammatikalizatsiyada esa ma’lum leksema yordamchi so‘z yoki qo‘shimchaga aylanib, hech qanday sintaktik vazifa bajarmaydi. Uchinchidan, grammatikalizatsiyada so‘zning lug‘aviy ma’nosi yo‘qoladi, konversiyada grammatik vazifa o‘zgaradi. Grammatikalizatsiyada bir so‘z boshqa turkumga o‘tganda grammatik ma’no kasb etadi, konversiyada esa ma’nosini yo‘qotmaydi, balki yangi ma’noga ega bo‘ladi. Masalan, *yolg‘ondan, birdan, chindan* kabi son va sifatlar o‘z ma’nosidan chiqib ravishga o‘tgan. Demak, grammatikalizatsiya asosida, eng avvalo, mustaqil so‘zning desemantizatsiyalashuvi yotsa, konversiyada semantik-sintaktik boshqalik asosiy rol o‘ynaydi. Shuningdek, bu o‘rinda konversiya, asosan, so‘zning sintaktik vazifasi o‘zgarishi bilan bog‘liq jarayon ekanligini, grammatikalizatsiya esa leksik ma’noning susayib, grammatik ma’noning kuchayishi bilan xarakterlanishini ta’kidlab o‘tish joiz. Demak, konversiya va grammatikalizatsiya jarayonlari tilshunoslikning o‘zaro farqlanuvchi hodisalari bo‘lib, ularni aralashtirmaslik maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бабайцева В.В. Гибридные слова в системе частей речи современного русского языка // Русский язык в школе, 1971, №3.
2. Бабайцева В.В. Явления переходности в грамматическом строе русского языка и методика их изучения. – Москва: МГПИ, 1988.
3. Баудер А.Я. Части речи как структурно-семантические классы слов в современном русском языке. – Таллин: Валгус, 1982.
4. Гак В.Г. Теоретическая грамматика французского языка. – Москва: Высшая школа, 1979.
5. Грамматикализация синтагмемы. edu.ulsu.ru.
6. Eltazarov J. Grammatikalizatsiya hodisasi // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1992. 5–6-sonlar.

Mo'min TURDIBEKOV,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

TURKIY TOPONOMIKANING LINGVISTIK TAHLILI

Har bir kishining o'z nomi – ismi bor. Bir xil ismli kishilar – adashlar ko'p bo'lgan holda ular laqab bilan farqlanadi. Familiyalar ham aslida kishilarni bir-biridan farqlash uchun xizmat qiladi. Dunyodagi barcha joy, narsaning o'z nomi bo'lib, ular geografik nomlar yoki toponimlar deb ataladi va toponimika fanining o'rganish obyekti hisoblanadi. Joy nomlari, ya'ni toponimiya bir necha turga bo'linadi: gidronomiyada daryo, ko'l, dengiz, soy, kanal, qo'ltiq, bo'g'oz, sharsharalar nomlari; oronimiyada yer yuzasining relyef shakllari – tog'lar, cho'qqilar, qirlar, vodiylar, tekisliklar nomlari; oykonimiya, polinimiya yoki urbanonomiyada qishloq hamda shaharlarning nomlari; mikrotoponimiyada kichik obyektlar: buloqlar, quduqlar, dalalar, o'tloqlar, daraxtzorlar, jarlar, yo'llar, ko'priklar va hatto atoqli otga ega bo'lgan ayrim daraxtlar nomlari o'rganiladi. Bundan tashqari, turli xalq, urug'-aymoq nomlari bilan atalgan toponimlar ham bo'lib, ular etnotoponimlar deyiladi. Kishi ismlari bilan yuritiladigan toponimlar antropotoponimlar deb yuritiladi.

Quruqlikdagi geografik obyektlar – tog', daryo, tekislik, ko'l, qirlar, buloqlar, va boshqa nomlarning makon hamda vaqt mobaynida mujassamlashuvi haqida bilim berish o'quv fani vazifasiga kiradi. Tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy obyektlarning nomlari ma'lum makon, hudud, akvatoriya va muayyan davrlarda hamda aniq bir tilda muayyan tarixiy hodisa bilan bog'liq bo'ladi. Shuning uchun toponimika fanida geografik obyektlariga atoqli ot – toponim – tabiiy xususiyat, lisoniy – milliy jihat va tarixiy geografik yodgorliklar deb qaralishi talab etiladi. Aynan shu lisoniy, tarixiy va geografik xususiyatlar tahlil etilganda geografik nomlarning ahamiyati yaqqol namoyon bo'ladi. Geografiya fanini o'rganish jarayonida geografik atoqli otlar – toponimlar va fan qonunlari, tushunchalari mazmunini izohlaydigan termin va iboralar mazmuni – izohini bilish zarur. Toponimika va geografik atamashunoslik hududi shular haqida bo'lajak geograflarga bilim beradi. Ko'plab geografik nomlar bilan ish ko'rishga to'g'ri keladi. Osiyo, Yevropa, Amerika, Avstraliya, Afrika Antraktida, Shimoliy Muz okeani, Atlantika, Hind va Tinch okeani materik ko'tarilmalari va okean botiqlari planetar makrotoponimlar ma'nosi atalish tarixi, shuningdek, mikrotoponimlarning nima uchun shunday nomlanganligini bilish geografning kasbiy burchi sanaladi. Borsakelmas, Mingbuloq, Qoraxotin, O'yoqog'itma, O'lik dengiz, Aniba, Ajal vodiysi kabi o'rtacha kattalikdagi botiqlarning nomlanish tarixini bilish geografiya fanlarining ommabop va qiziqarli jihatlarini ta'minlaydi. Shuningdek, tabiiy fanlarning tayanch tushunchalari bo'lgan geografik qobiq, biosfera, litosfera, troposfera, landshaft, landshaft qobig'i, ekologiya, gidrosfera, geosinklinal platforma, qalqon, antikliza, antiklinal, sinklinal, transgritsiya eperogenik, regretsiya, fiord, shelf ekotizim, fiyon, bora, samum, eroziya geotizim va boshqa tushuncha hamda iboralar borki, bunday ilmiy atamalarning mazmun-mohiyatini bilish bilan birga bu so'z birikmalarining kim tomonidan va qachon fanga olib kirilganligi haqida ham fikr yuritish toponimika hamda geografik atamashunoslik fanining vazifasiga sanaladi. Sayyoramizdagi eng yirik makrotoponimlar, mezotoponimlar bilan birga Sharq, O'rta Osiyo, O'zbekiston hamda respublikadagi mintaqalarning geografik nomlari geografik tarixiy va lisoniy toponimik tahlil etiladi. Toponimlar tahlilida ularning geografik jihatlari – o'rni, tabiiy geografik, ijtimoiy-iqtisodiy geografik xususiyatlari – qiyofasi, fe'l-atvori, rangi, soni, o'lchamlari, qanday mujassamlashganiga urg'u beriladi. Obyektlarning geografik joylashuvi inson tafakkuri mahsuloti bo'lgan chizma vositalar – geografik xaritalarda aks etadi va bu noyob ixtiro aslida matematik qoidalar asosida tuzilishini hamma biladi. Insoniyat hayotida beqiyos katta ahamiyat kasb etuvchi geografik xaritalarni atoqli otlardan iborat bo'lgan joy nomlarisiz tasavvur etish mumkin emas. Zero, joy nomlari yozilmagan bunday xaritalar shartli belgilar tasvirlangan chizmalardan boshqa narsa bo'lmay qoladi. Shunday ekan, geografik nomlarning joylashuvida mujassamlashgan, atoqli otlar tushirilgan chizmalar geografik-xaritografik-matematik mazmun kasb etadi.

Atoqli rus olimi N.I.Nadyojdin toponimlar xususida so'z yuritib, ularni "Yer bamisoli bir kitobdirki, unda insoniyat tarixi geografik nomlar bilan bitilgan"ligini e'tirof etadi va nomlarni "Yer tili" deb ta'riflaydi. Hozirgi zamon o'zbek milliy geografiyasining asoschilaridan biri Hamidulloh Hasanov fikricha, "Joy nomlarini tabiat, tarix, hayot, insoniyat ko'zgusi desa bo'ladi".

Geografik nomlar haqidagi ilm bo'lgan toponimika, asosan, uch fan – tilshunoslik, tarix va geografiya fanlarining manfaatlari tutashgan joyda vujudga kelgan. Qadimgi yunon tilidan tarjima qilinganda topos – joy, nomos – nom "joy nomi" mazmunini beradigan toponimika muayyan tildagi geografik nomlarni to'plash, ularning rivojlanishi, o'zgarish tendensiyalari, areallarini aniqlash, nomlarning muhim leksik-semantik xususiyatlarini yoritish, toponimik lug'atlar tuzish, joy nomlari transkripsiyasi kabi masalalarni tadqiq etadi. Sayyoramizdagi har qanday geografik joy o'z atoqli nomiga ega bo'lib, ular toponimlar deb yuritiladi. Joy nomlarini tadqiq etuvchi mutaxassislar toponimistlar bo'lib, har bir geografik obyektning turini geografik tahlil etishda maxsus ilmiy tushunchalardan foydalaniladi. Yer yuzasi relyeflarining nomlari – oronym; daryo, buloq, ko'l, botqoq, geografik nomlar – gidronimlar; qabila, xalq, elatlar nomi – etnonimlar, umuman, joy, tekis-

lik, yuza nomlari – urbonimlar, kishilar ismi shariflari qo‘yilgan nomlar – patronimlar deb yuritiladi. Ba’zan patronimlar – antpatronimlar deb ham ataladiki, bunda kishilarning laqabi, taxallusi, ismi va oilasi nomi bilan bog‘liq bo‘lishiga e’tibor qaratiladi.

Dastlab har qanday geografik obyekt oddiygina turdosh ot – terminlar bilan atalgan. Bunday terminlar bora-bora atoqli otga – nomga aylangan. Masalan, qadimgi turkiy xalqlar katta daryoni o‘kuz, edil, jayhun deb ataganlar. Amudaryoning qadimgi nomi Jayhun, O‘kuz; Volga daryosining qadimgi nomi esa Edil bo‘lgan. Demak, ular “katta daryo” ma’nosini anglatgan. Muayyan hududda qadimda qanday urug‘, qabila, xalq yashaganligini shu yerdagi joy nomlaridan bilib olsa bo‘ladi. Chunki ilmiy tilda etnonimlar deb ataluvchi toponimlar ularning nomi bilan atalgan bo‘ladi.

Toponimika fani tilshunoslik, tarix va geografiya fanlari o‘rtasidagi oraliq fan hisoblanadi va Yer haqidagi geografiya, geologiya, biologiya fanlariga ancha yaqin muammolardan bahs etadi, o‘zaro manfaatlarida mushtaraklik bo‘lgan geologiya, geomorfologiya, biogeografiya fanlari bilan chambarchas bog‘liqlikda rivojlanadi. Zero, geologiya Yerning ichki xususiyatlarini, qazilma boyliklarini aniqlashda tayin bir nom bilan ataluvchi hudud bilan ish ko‘rganligi uchun toponimika qonun-qoidalariga bo‘ysunadi.

Toponimlarni o‘rganishning eng muhim amaliy ahamiyatlardan biri kartografiya uchun nomlarni xaritada tasvirlash bo‘lib, geografik obyektlarning nomlari xaritalar mazmunining asosini tashkil etadi va, avvalo, xaritalar yozuvi sifatida mujassamlashadi. Bularni amalda bajarish uchun xaritalarni tuzish bilan bog‘liq dala va laboratoriyada nomlarni aniqlashga qaratilgan bir qancha ishlarni bajarish talab etiladi. Nomning joyda qanday atalishi, uning qaysi tilda qanday yuritilishi, qanday ma’noni anglatishi, talaffuzi va yozuvdagi imlosi bilan aloqador ishlar shular jumlasidandir. Nomlarni aniqlash kartografik amaliyotning maxsus tarmog‘i bo‘lib, bu soha kartografik toponimika deyiladi va geografiyaning bir tarmog‘i sifatida amalda qo‘llaniladi.

Sayyoramizning istalgan joyida ro‘y berayotgan tabiiy, iqtisodiy, siyosiy hodisalarning makonini aniq tasavvur etish geografik dunyoqarash hisoblanadi. Materik, okean, davlatlarning joylashgan o‘rni, qiyofasi, ozmi-ko‘pmi tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy xususiyatlari haqida ma’lumotga, ularning o‘rni borasida tasavvurga ega bo‘lish geografik madaniyatdir. Geografik dunyoqarash va madaniyat, albatta, joy nomlari – toponimlar orqali mujassamlashgan. Shunday ekan, geografik obyektlarning nomlari – toponimlar, asosan, geografik ta’lim jarayonida anglashiladi. Toponimikaning geografiya ta’limida o‘rganilishining ahamiyati ham shunda. Shuningdek, ommabop va qiziqarli o‘quv predmeti sifatida ta’riflangan geografiya fani orqali nomning ma’nosi, atalish tarixi, aniq xususiyatlari haqida ham ma’lumot berib borilganda, ushbu fanning jozibadorligi yanada oshadi.

Geografik xaritalardagi istalgan atoqli otlar zamiriga yashiringan tabiat, tarix va lisoniy belgilardagi oshkora yoki yashirin ishora tahlil etilganda ko‘p jihatlar oydinlashadi.

Xullas, muhim madaniy va tarixiy ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan toponimiya tabiiy voqeliklar, har bir hududning rivojlanish xususiyatlari, odamlar dunyoqarashini aks ettiradi va tarix, etnografiya, tilshunoslik fanlari bilan bog‘liqlikda rivojlanadi, ma’lum darajada o‘zida insoniyat jamiyati hayotining ijtimoiy, iqtisodiy va geografik jihatlarini aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Savinov D.G. Qadimgi turkiy madaniy majmuaning shakllanishidagi “skif” va “hunnik” qatlamlari to‘g‘risida // Qozog‘iston arxeologiyasi masalalari. – Olmaota, 1998.
2. Gadjiyeva N.Z. Turkiy tillar // Lingvistik ensiklopedik lug‘at. – Moskva: Sovet ensiklopediyasi, 1990.
3. Yeremeyev D.E. Kichik Osiyoga turkiy qabilalarning kirib kelishi // VII xalqaro antropologik va etnografik fanlar kongressi materiallari. – Moskva, 1970.

Nilufar NAMOZOVA,
filologiya fanlari nomzodi

HAJVIY PUBLITSISTIKADA MUNOSABAT VA NUQTAYI NAZAR

Publitsistika tarixiga doir manbalarni kuzatganda o‘zbek hajviy publitsistikasi 1918-yildan yangi rivojlanish davriga qadam qo‘yganini ko‘rish mumkin. Bu davrga kelib tahririyatlarda gazeta va jurnallarning xalq orasiga kirib borishida hajviy materiallarning roli oshgan. To‘g‘ri, bu paytgacha chop etilgan jadid matbuotida ham hajviy publitsistika namunalarini uchratish mumkin. Masalan, Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Samarqand” gazetasi va “Oyina” jurnalida “Abdulqadim”, “Mushmirzo” kabi taxalluslar bilan taraqqiyot yo‘liga to‘g‘anoq bo‘layotgan kimsalar hajv qilingan maqolalar chop etilgan. “Hurriyat“ gazetasida Saidrizo Alizoda tomonidan “Shapaloq” hajviy bo‘limi ochilib, “Zanbur” taxallusi bilan maqolalar berib borilgan.

Biroq aytish kerakki, 1917-yildan keyin chiqa boshlagan “Chayon”, “Cho‘l chayoni”, “Tayoq”, “Mushtum”, “Mashrab” kabi hajviy jurnallar o‘zbek hajviy publitsistikasining rivojlanishida maktab vazifasini o‘tadi.

Hoji Muin Shukrullayev bir nechta mana shunday nashrlarni tashkillashtirib, ularga o‘zi muharrir-

lik qildi. Uning felyetonlari, hajviy maqolalari, xabarlari 1918-yildan boshlab "Mehnatkashlar tovushi", "Turkiston", "Zarafshon", "Tayoq", "Mashrab", "Inqilob" kabi gazeta va jurnallarda Boturbek, Ezma, Tayoq, Shumshuk, Sarimsoq, Mug'ombir, Chaqimchi, Mulla Junbul, Xotinparvar, A'rofiy kabi taxalluslar bilan chop etildi.

Publitsist bir maqolasida xalqqa kulgining ta'siri haqida shunday deydi: "Har yerda, ayniqsa, bizning Turkiston xalqig'a jiddiy so'zlardan ko'ra hajviy va kulgili so'zlarning ko'brak ta'sir etishi ko'rinib turadir. Bizning xalq har vaqt to'g'ri va jiddiy so'zlarga iltifot etmay, balki uning teskarisicha kulgilik, hangomalik gaplarga ahamiyat beradir"[1].

Dolzarb publitsistik maqolalarida turli muammolarni yoritib kelgan publitsist xalqning "ahvoli ruhiyasi"ni yaxshi anglab, 1918-yili o'zi muharrirlik qilgan "Mehnatkashlar tovushi" gazetasida hajviy "Tayoq" ruknini ochadi. Ushbu ruknda "Boturbek" taxallusi bilan turmushdagi qoloqlik va jaholat, jamiyatdagi illatlar, hukumat idoralaridagi boshboshdoqlik va talonchilik kabi noxush voqealarni hajvning o'tkir tig'i yordamida fosh etadi: "Bizning musulmonlar, boxusus, turkistonlilar dangasa, bo'yni yo'g'on va muflis, mutakabbir, g'alati bir jonvor ekan. Bu jonvorlarni turli buzuqliqlardan chiqarib inson qatorig'a kirguzmak, ikkinchi bir ibora bilan ayganda: xushyoqmasliq uyqusindan uyg'otib, ko'zini ochirmoq uchun "Tayoq"dan boshqa narsa kerak emas ekan. Men bu ishni bir necha martaba tajriba etib, yaxshi natijasini ko'rdimki, xalqni hushyor etmak uchun "Tayoq" afandi zo'r omil va muassir ekan"[2].

Ko'rinadiki, "Tayoq" shunchaki yengil kulgu uchun emas, balki aniq maqsadlarni ko'zda tutib tashkil etilgan. Boturbek buni shunday izohlaydi: "Tayoq"ning maqsad va maslagi: to'g'riliq va xalqni to'g'ri yo'lg'a solmoq bo'lib, ul hech kimga va hech bir quvvatga bo'yin egmasdir. Ul yolg'uz chin insoniyat va haqqoniyliq qoshinda ehtirom bilan tik turadur. "Tayoq" to'g'riliq yo'linda zo'raki boylardek sinib mayda-chuyda bo'lib ketgancha o'z vazifasini ado etadir, ammo egrilikni hech vaqt qabul etmaydir. So'zning qisqasi: "Tayoq" to'g'rilar uchun "asoi huzur", egrilar uchun "zulfiqori Ali"dir".

Darhaqiqat, boshqa maqolalarida ham Boturbek jamiyatdagi mavjud illatlarni fosh qilishda "Tayoq"dan ustalik bilan foydalanadi. Birida tayog'ini kinoyali kulgi bilan niqtab qo'ysa, birida fosh etuvchi hajv bilan qattiq savalaydi. Masalan, "Rishvat xastalig'i"[3] sarlavhali kichik felyetonida u boylikka mukkasidan ketgan kimsalar basharasini "rishvat xastalig'i"ning belgilarini tasvirlash, uning muolajalari haqida gapirish orqali ochib beradi, tanqid qiladi. Boturbekning yozishicha, odam bolalarini ezib, tinkasini quritib kelgan bu xastalik azaldan mavjud bo'lsa-da, Turkistonda unchalik keng tarqalmagan edi. 1918-yilning boshidan e'tiboran bu xastalikning ko'payib borishi, tez orada butun Turkistonni "Nuh to'foni"dek yutib yuborishidan tashvishga tushgan Boturbek uning Buxoro amirining tabibi tavsiya qilgan muolajasini bayon qiladi: "...anday odamni darhol "sobachniy yashik", ya'ni it uyasig'a tiqib har kun anga bir parcha qora non bilan bir piyola suvdan boshqa narsa bermaslik kerak. Shul ravishda olti oydan uch oygacha tarbiya qiling'onda (agar xudo shifo bersa) tez kunda sog'ayib ketar". Bu tavsiyani Buxoro amirining tabibi tavsiya qilgan, deya bejiz aytilmayapti. Chunki bu xastalik o'sha davrda Buxoroda keng tarqalgan. Lekin Boturbekning maqsadi bu gapni aytish bilan cheklanmaydi. U o'z fikrini felyeton xotimasida kutilmagan tarzda bayon qiladi: "Mazkur tabibning yuqoridagi bayonotig'a qarag'onda, bizning Tazminot komissiyasi ham "rishvat" xastaliqig'a mubtalo bo'lg'ong'a o'xshaydir". Shu tariqa Boturbekning tayog'i Samarqanddagi Tazminot komissiyasi boshiga tushadi.

Hoji Muin bungacha Tazminot komissiyasining ishlari haqida tanqidiy maqolalar ham yozgan edi.[4] "Mehnatkashlar tovushi" gazetasida Samarqand adliya komissarining maqola muallifiga yo'llagan xati hamda Hoji Muinning avvalgi maqolasiga yozgan izohlari[5] ham chop etilgan. Lekin kishilarning jiddiy maqolalardan ko'ra hajviy, kulgili materialni o'qishga ishtiyoqi kuchli ekanini bilgan publitsist Tazminot komissiyasi a'zolarini "Rishvat xastalig'i" felyetonida hajv yo'li bilan ham tanqid qilib o'tadi.

Publitsistning maqolalari "Mehnatkashlar tovushi" gazetasidan tashqari 1920-yilda chiqa boshlagan "Tayoq" jurnalida, keyinchalik, 1922-yildan "Zarafshon" gazetasida chop etilgan.

Hoji Muinning felyetonlari hayotni kuzatish, jamiyatdagi muammolarni o'rganish, tahlil qilish asosida yozilgan. Shu tufayli publitsistik maqolalari, xabarlari qatorida uning felyetonlarida ham o'sha davr ruhi aks etgan. Jumladan, "Boy bo'lmoq yo'llari", "Pora va poraxo'rlik", "Oxirzamon alomatlari" kabi ko'plab demokratik ruhdagi felyetonlari "Zarafshon" gazetasida chop etilgan. "Boy bo'lmoq yo'llari"[6] felyetonida publitsist hukumat idoralaridagi "xalq molidan zakot olib" boyib borayotgan kimsalarni tanqid qilsa, "Pora va poraxo'rliq" felyetonida poraxo'rlikni "bilittifoq" avj oldirayotgan poraxo'rlarni hajv ostiga olgan. U "pora" so'zining ma'nosini izohlab yozadi: "Pora "poru"dan mushtafiqdur... Mana shuning uchun bizning shariatimiz pora yemakni musulmonlarg'a harom qilmishdur. Bu poraning lug'aviy ma'nosi bo'lib, istilohda pora vijdonsiz "xodimal xalq"lar qoshida ona sutidan ham halolroq sanalg'on maxsus bir aqcha turidirkim, buni yegan kishi oz kunda cho'chqadek semirib, davlatida ham favqulodda barakot hosil bo'ladir"[7]. Publitsist poraxo'rlarni masxaralab tasvirlar ekan: "Poraxo'rliq ishi zolim Nikolay zamonida yomon bir holda edi. O'zgarishdan keyin har ish "taraqqiy" qilg'onidek, poraxo'rliq hunari ham yaxshig'ina taraqqiy qilib oldi", deya sho'ro hukumati idoralaridagi "xodimal xalq"larni ham kinoya orqali hushyorlikka chaqiradi.

"Oxirzamon alomatlari"[8] feletonida esa zamon og'irlashib, qiyomat yaqinlashayotgani, qadimgi "Aqoid" kitoblarida yozilgan oxirzamon alomatlari ro'y berayotganini bayon qiladi. U kitoblarning nomlarini hamda ulardagi oxirzamon belgilari tasvirini keltiradi. Publitsist o'sha davrdagi ayrim salbiy ijtimoiy hodisalarni oxirzamon belgilari sifatida ko'rsatadi: "Jadidlar

namozdan, qadimlar maorifdan, hukumatdorlar adolatdan qochadurlar. Maorif idoralarida aqcha, maktablarda o'quvchi, muallimlarda ta'lim qolmaydur. Oxirzamon olimlari amalsiz, boylari himmatsiz, shoirlari she'riyatsiz, muharrirlari savodsiz, gazetalari obunasiz, matbaalari hurufsiz.... bo'ladirlar... Shuni ham yozib o'taykim: bu zamonning har bir jonli va jonsiz narsalariga tog' kabi og'ir soliqlar solinadur... Soliq ishlari shuncha taraqqiy etadurki: kambag'al ishchi-dehqonlar hovuzlarida vaqillayturg'on qurbaqalarg'a ham soliq to'lashg'a majbur bo'ladilar. Faqat daraxtlarg'a qo'nib-uchaturg'on yovvoyi qushlar uchun soliq to'lashdan maof (avf – N.N.) etiladurlar"[9]. Mazkur felyeton xalq orasida katta shov-shuvga sabab bo'ladi. Bu haqida muallifning o'zi "Gazetamizning 20 nchi sonida bosilg'on "Tayoq" xalqqa favqulodda zo'r ta'sir etdi. O'ylanmagan, kutilmagan darajada xalqning nazari diqqatini o'zig'a tortdi"[10], deb yozadi.

Hoji Muin hajvlarining bir cheti hukumatga ham tegishli edi. Publitsist soliqlar to'g'risida din nomidan xalqqa noto'g'ri tashviqot qilganlikda ayblanadi va tazyiq ostiga olingani bois uning ushbu felyeton haqidagi izohi "Anglashilmasliq yoki "Tayoq"ning ta'siri" sarlavhasi bilan gazetada chop etiladi[11]. Hoji Muin o'z izohida "Tayoq"da keltirilgan kitoblar "yasama" ekanligi, "naql etilgan" so'zlar ham ramz va kinoya bo'lib, jiddiy va haqiqiy emasligini ta'kidlaydi.

Aksariyat felyetonlarida jamiyatdagi illatlarni fosh etar ekan, Hoji Muin ularning "o'ktabr o'zgarishidan keyin rivoj topgan"ligini go'yo "hazil" tariqasida aytib o'tadi. Shu bois u hukumatga qarshi nojo'ya ish qilganlikda, hukumatni masxaralab kulganlikda ayblanadi. Publitsistning "Xidmatga tuhmat" sarlavhali maqolasida qayd etilishicha, "Kommunist yo'ldoshi" jurnalida "Zarafshon" gazetasi yuqoridagi kabi hajviy maqolalarni chop etgani uchun ham tanqid qilinadi. Bu tanqidga javoban Hoji Muin shunday deb yozgan edi: "Gazetamizning bundan bir necha oy burun chiqqan sonlaridan bir-ikkisinda (hajviy kulgu bo'limida) achchig' haqiqatdan bir necha fiqra yozilg'on va shunda bir oz qattig'roq iboratlar bilan ba'zi kamchiliklar tanqid qiling'on edi. Qosim o'rtoqning aytganicha, hukumatni xalq ko'ziga yomon qilib ko'rsatish yo'q edi. Agar biz ul chog'da kuchlik sho'ro hukumatining xodimlari ichida kichgina bir "Tayoq"qa chidolmayturg'on va uning "hubba"sini "qubba" qilib ko'rsataturg'on "xayrixoh"larning borlig'ini bilgan bo'lsak edi, tayog'imizni bir oz ingichka va yumshoq qilib chiqarg'on bo'lur edik"[12].

Publitsist "Angliya barmog'i", "Kuch va foyda tanitadur", "Fitnachilik va siyosat" kabi siyosiy mavzudagi felyetonlarida ayrim davlatlarning mustamlakachilik siyosati, xalqlar o'rtasida ig'vo tarqatib, shu yo'l bilan manfaat ko'rishi tanqid ostiga olinadi. Jumladan, "Angliya barmog'i" felyetonida: "Siyosat nayrangbozlig'ida va yil o'n ikki oy suvni bulg'otib baliq ovlashda faoliyat ko'rsatib kelgan "barmoq"lardan eng ustarog'i Angliya barmog'idir. Angliyaning barmog'i bilan oltini qayerg'a kirsa, unda birlik va tinchlik yashay olmas"[13], deb yozadi.

Hoji Muinning hajviy publitsistikasida she'riy felyetonlar ham talaygina. Publitsist kishilar xarakteridagi salbiy jihatlarni ochishda, ularning jamiyatga yetkazayotgan salbiy ta'siri, yashirin kirdikorlarini fosh etishda hajviy she'rdan ustalik bilan foydalanadi. Bu jihatdan "Qasidai hajviya", "Rahmatlik uyezd – Samarqand rayqo'mining hurmatlik sadrlari tilindan", "Nima edik, nima bo'ldik, nima qilaylik?", "Xizmatlarim", "Pora ber" kabi she'riy felyetonlari xarakterlidir. Buxoro amiriga qarata yozilgan "Qasidai hajviya"[14]sida Hoji Muin amirni zolim va xunxo'r, axloqsiz odam sifatida hajv tig'iga oladi. Bu she'r 1918-yili "Mehnatkashlar tovushi" gazetasida, keyinchalik, "Ijobat bo'lgan duo" sarlavhasi bilan "Mashrab" jurnalida qayta chop etildi[15]. Murod Shukurovning yozishicha: "Hoji Muin ushbu she'ri bosilgan gazetaning bir sonini amir Olimxonga yuboradi"[16].

Publitsistning zamondoshlaridan biri: "Hoji Muinning qalami yaxshi narsalar yozmaydir emas, unda usta bir tanqidchilik ko'rib bo'ladir, faqat Hoji Muin yozg'onlarida ba'zan kuyishdan bo'lsa kerak, jiddiyatga o'tib ketadir"[17], deydi. Darhaqiqat, millat dardiga hamdardlik publitsistni hajv yozishga undadi. Hajv va kulguning ta'sir doirasidan foydalanib, xalq orasiga kirib bordi, kishilar ongini, dunyoqarashini o'zgartirdi. Adibning hajviy publitsistikasi bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

---

[1] Hoji Muin. Anglashilmasliq yoki "Tayoq"ning ta'siri // Zarafshon. 1923. 18-fevral.
[2] O'sha manba.
[3] Hoji Muin. Rishvat xastalig'i // Mehnatkashlar tovushi. 1918. 22-noyabr.
[4] Haqqoniy. 15 ming so'm nima bo'lgan? // Mehnatkashlar tovushi. 1918. 1-oktabr.
[5] Mehnatkashlar tovushi. 1918. 16-oktabr.
[6] Boturbek. Boy bo'moq yo'llari // Zarafshon. 1922. 3-noyabr.
[7] Boturbek. Pora va poraxo'rlik // Zarafshon. 1922. 16-noyabr.
[8] Zarafshon. 1922. 16-noyabr.
[9] Boturbek. Oxirzamon alomatlari // Zarafshon. 1923. 11-fevral.
[10] Hoji Muin. Anglashilmasliq yoki "Tayoi"ning ta'siri // Zarafshon. 1923. 18-fevral.
[11] O'sha manba.
[12] Hoji Muin. Xidmatga tuhmat // Zarafshon. 1922. 21-iyun.
[13] Hoji Muin. Angliya barmog'i // Mashrab. 1925. № 20. 2-bet.
[14] Mehnatkashlar tovushi. 1918. 13-dekabr.
[15] Hoji Muin. Ijobat bo'lgan duo // Mashrab. 1924. № 7. 3-bet.
[16] Shukurov Murod. Hoji Muin – jurnalist va hajvchi shoir // O'zbek tili va adabiyoti. 1969. № 4. 48-bet.
[17] Tursunqul. Mashrab // Zarafshon. 1925. 26-avgust.

Normuhammad UBAYDULLAYEV,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU huzuridagi DTIYAO' va MOM Samarqand viloyati hududiy bo'linmasi o'qituvchisi

ADABIYOT DARSLARIDA IJODKOR SHAXSINI O'RGANISH

O'zbek adabiyotini o'qitishda yozuvchi ijodi va hayotini o'rganish haqida bir qancha ilmiy-metodik asarlar yuzaga keldi.[1] Bu asarlarda yozuvchi hayoti va ijodini o'rganish metodikasi keng ko'lamda yoritilgan bo'lib, uning shaxsiyati to'g'risida esa qisman fikr bildirib ketilgan[2].

Ijodkorlarning hayot yo'lini o'rganishda avtobiografik asarlarning o'rni beqiyos. Tarjimayi hol mazmunidagi bunday asarlar nafaqat ma'lum bir ijodkorning hayoti va faoliyati haqida, balki u yashagan davr to'g'risida ham ma'lumot beruvchi muhim manba hisoblanadi. Adabiyotshunos O.Toshboyev Oybekning "Bolalik xotiralarim" asarining yaratilishini quyidagicha talqin qiladi: "Bolalik xotiralarim" – Oybekning bitmagan, bitolmagan asarlari, shonli tarixdan hikoyalar so'ylab bergan ardoqli insonlar ruhi oldidagi uzrxohligi, so'ngsiz armoni, tazarrusi... Bu uzrxohlik "Ulamolarni izzat qiling, shariatni, oxiratni o'ylang, ahli ulamo – xalqning yolg'iz rahbari", deya o'git bergan domlalari; ko'zini ochgan Tavallo-yu Behbudiy, Cho'lpon-u Munavavvarqoriga izhor etilgan. Ha, bunday iztirobli hol qalbini imon nuri tark etmagan har bir insonda, ayniqsa, ijodkorda ro'y berishi shubhasiz. Adib yarim asrlik umrini sarhisob etar ekan, Mirahmad sarbozlar alamini, yurtda muqimboy bo'lib qolgan mochalovlar kirdikorini, shimolda jon taslim etgan mardikorlar dodini bita olmaganiga o'kingan. Mana shu o'kinch va qarzdorlik hissi fursati yetib "Bolalik xotiralarim"ga aylanadi. Aqoid ilmini o'rgangan, pokiza e'tiqod insonning insonligini belgilovchi asosiy omil ekanini juda yaxshi anglagan banda undan chekinsa, hayotini yolg'on, soxta g'oyalar bilan o'tkazishga majbur bo'lsa, umr poyonidagi iztirob ko'lami ham shunga yarasha bo'ladi. "Bolalikda ko'rganlarim, eshitganlarim hammasi esimda. Ayrim hodisalar, xotiralar hozir ham quyoshdan bir tomchi kabi yalt etib ketadi xayolimda", degan adib mazkur asarni yozib bitirgach, o'zini bir qadar yengil his etganiga shubha yo'q.[3] Muallif Oybekning bolaligi qanday o'tganligi to'g'risida fikr yuritar ekan, bu ma'lumotlarning ahamiyati kattaligini e'tirof etadi. Bo'lajak adibni Xadradagi kichkina kitob do'koni maftun etadi. Onasi, akasidan yalinib-yolvorib pul undirgan zahoti o'sha yoqqa yugurar, do'konchada esa "Oyna" jurnali, shoir Sidqiy-Xondayliqiyning "Toza hurriyat"i, Vasliyning she'r to'plamlari, Hamzaning milliy ashulalari, Avloniy majmualari, Tavalloning "Ravnaq-ul Islom"i, Munavvarqorining namoz, ro'za va axloq xususidagi kitoblari terib qo'yilgan. Oybek keltirgan bu nomlar o'tgan asr boshidagi ko'hna Shoshning ma'rifiy hayotiga oid tasavvurimizni boyitadi[4].

Olimning bu qarashlari to'g'riligini Abdulla Qahhorning avtobiografik bitiklar borasidagi firklari ham tasdiqlaydi. "Ko'pchilik kabi men ham, − deb yozadi A.Qahhor, − "yozuvchilik" nimaligini, shaxsiy tajriba, taassurotlar adabiy asar uchun nihoyatda qimmatli material bo'lishini tushunib olgunimga qadar ancha ovora bo'lganman. Buni bilib olganimdan keyin bolalik chog'imda ko'rganim, odamlar, yoshligimda sodir bo'lgan voqea-hodisalar boshqacha bo'lib ko'rindi. O'tmish chuqur yerto'lalardagi sharob singari xotirada tiniydi, oradan qancha vaqt o'tsa, sharob shuncha tiniq va kuchli bo'lganiday, yoshlikda ko'rgan-kechirganlar eng sof va kuchli xotiralar bo'lib, umrbod esdan chiqmaydi. O'tmishdagi ana shu taassurotlarim keyinchalik, ko'pgina hikoyalarim uchun asos, yirik asarlarimga epizodlar bo'lib xizmat qildi"[5].

Avtobiografik bitiklar nafaqat nasriy asarlar tilida, balki she'riy asarlarda ham qo'llaniladi. Masalan, Abdulla Oripov ijodida buning go'zal namunalarini ko'rishimiz mumkin. Avtobiografik xarakterga ega "Onajon" sarlavhali she'rida ona obrazi bilan parallel ravishda muallif obrazi ham bor. She'r orqali biz shoir o'sib-ulg'aygan oilaviy muhit, uning kechinmalari, ruhiy olami bilan yaqindan tanishamiz. Muhimi, she'rda biografik lavhalar ham milliy ruh va yuksak badiiyat mutanosibligida tasvirlanadi.[6]

Ma'lumki, avtobiografiya nisbatan yosh janr. Avtobiografiya adabiy janr sifatida umumiy badiiy belgilari bilan Fransiyada XVIII asr oxirida shakllandi, mamlakat ijtimoiy hayotida shaxs rolining kuchayishi shaxslarning ozodlikka intilishida muvaffaqiyatlarning qo'lga kiritilishi bilan izohlanadi. Avtobiografiya hozirgi davrda memuar adabiyotning eng ommabop janrlaridan biri.

Avtobiografik asarning memuar, kundalik, ayrim sayohatnomalar bilan o'xshash tomonlari bor. Farqi shuki, masalan, memuar asarda muallifni voqelik (o'zi uchratgan kishilar, guvohi bo'lgan yoki qatnashgan voqealar) qiziqtirsa, avtobiografik asar muallifi diqqat markazida o'zining voqelik bilan uzviy aloqadagi hayoti turadi. Yoki kundaliklarda ham avtobiografik asardagi kabi muallifning boshdan o'tkazgan va ko'ngildan kechirganlari aks etadi. Farq shuki, kundaliklarda tasvirlanayotgan voqealarning yuz berish vaqti bilan ular haqida yozish vaqti orasida davriy masofa yo'q, bu esa o'z hayotini bir butunlikda ko'rishga xalal beradi, ya'ni muallif bosib o'tgan hayot yo'li uning o'zi uchun estetik idrok obyektiga aylanmaydi. Avtobiografik asar bilan avtobiografik xarakterdagi asarlarni farqlash kerak. Avvalo, shuni aytish kerakki, har qanday adabiy asarda biografiya unsurlari mavjud, chunki asar muallifning hayotiy tajribasi asosida dunyoga keladi: ijodkor hayotida yuz bergan ayrim voqealar, ular ta'sirida yuzaga kelgan o'y-kechinmalar matnga singib ketishi tabiiy. Avtobiografik xarakterdagi asarda biografik unsurlar salmoqli o'rin tutgani holda, badiiy to'qima hal qiluvchi

ahamiyat kasb etadi (G'.G'ulomning "Shum bola" qissasi). Boshqacha aytsak, xuddi real prototipiga ega asarlardagi kabi avtobiografik xarakterdagi asar uchun muallif – prototip, xolos, uning asosida boshqa bir shaxs obrazi yaratiladi"[7].

Umumta'lim maktablarining 6-sinf "Adabiyot" darsligida atoqli adib Odil Yoqubovning "Muzqaymoq" hikoyasi keltirilgan. Adib Odil Yoqubov ham o'z otasi taqdiri misolida qatag'on davrining dahshatlari aks etgan bolalik xotiralarini qalamga oladi. Bo'lajak yozuvchi o'n yashar chog'larida otasining qo'rquv va xavotir ichida yurgan kunlari guvohi bo'lgan. Otasi sho'ro idoralarida katta lavozimlarda ishlagan. Qatag'on siyosati avjiga chiqqan pallada u ham hibsga olingan. Yozuvchi mazkur manzarani tasvirlar ekan, bir tomonda dahshatdan haykalday qotib qolgan otasi, dod-faryod solib yig'layotgan opasi, burchakka tiqilishib, qo'rquvdan bir-birining pinjiga kirib olgan ukalari holatini ko'rsatib, qatag'on davrining naqadar qo'rqinchli bir hodisa ekanini o'quvchi tasavvurida sakllantiradi[8].

Yuqorida aytilgan fikrlardan ma'lum bo'ladiki, avtobiografik bitiklar ijodkor yashagan muhit, o'sha davrdagi adabiy jarayon, uning ijoddagi o'ziga xos uslubi, voqelikka munosabati, ichki kechinmalari, ruhiyati to'g'risida ma'lumot beruvchi muhim manba hisoblanadi. O'zbek adabiyotida avtobiografik xarakterdagi asarlar ko'p. Ularni o'rganish o'zbek adabiyotining ma'lum davrdagi o'ziga xos xususiyatlari, alohida olingan ijodkor asarlarining badiiy-estetik jihatlari, individual uslubi to'g'risida muayyan xulosalarga kelishga imkon beradi.

[1] S.Dolimov, X.Ubaydullayev, Q.Ahmedov. Adabiyot o'qitish metodikasi; A.Zunnunov. Yuqori sinflarda G'afur G'ulom hayoti va ijodini o'rganish; Q.Jo'rayev. Maktabda Oybek hayoti va ijodini o'rganish; S.Ismatov. Maktabda Abdulla Qahhorning hayoti va ijodini o'rganish; R.Usmonov. Yuqori sinflarda yozuvchi biografiyasini o'rganish; J.Usmonov. Maktabda Furqat hayoti va ijodini o'rganish.
[2] Rahimov J. Adabiyot darslarida yozuvchi shaxsini o'rganish. – Toshkent: O'qituvchi, 1975. 3-bet.
[3] Toshboev O. Kitobga sig'magan haqiqatlar // "Tafakkur" jurnali, 2020. 3-son
[4] O'sha yerda.
[5] Qahhor A. Hayot hodisasidan badiiy to'qimaga: "Adabiyotimiz avtobiografiyasi". − Toshkent, 1973. 196-bet.
[6] Usarova L. Abdulla Oripov asarlarida milliy ruh ifodasi. Filol. fan…falsafa d-ri (PhD) diss. avtoref. − Toshkent, 2020. 21-bet.
[7] Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati – Toshkent: Akademnashr, 2013. 5-bet
[8] Ahmedov S., Qo'chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi (1-qism) uchun darslik. – Toshkent: Ma'naviyat, 2017. 131–132-betlar.

Jo'rabek ISLOMOV,
Samarqand veterinariya meditsinasi instituti
O'zbek, rus tillari va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi

ASQAD MUXTOR FALSAFIY LIRIKASI MOHIYATI

Asqad Muxtor jo'shqin lirikasi, falsafiy she'riyatida, Ilhom Hasan ta'biri bilan aytganda, o'zgacha ruh – asqadona ruh hukmronlik qiladi. Shoir leksikasida baland-parvoz, jimjimador, yaltiroq so'zlarni uchratmaymiz. Shuningdek, bir-biridan yiroq tushunchalarni mantiqan bo'lib, ular orasidagi oddiy inson ko'ra olmaydigan rishtalarni mazmunli tasvirlarga singdirib yuboradi.

Ertalabdan bugun ruhim siniq,
Osmonda quyosh ham bir zum kulmadi.
Yurak siqiladi...
Ammo ertasiga
O'rik oppoq bo'lib gulladi...
Esimda, yosh edim,
Sevgan qizim ... ketdi.
Ko'z o'ngimda qaddi, gulgun ko'ylagi...
Bosh egib yurardim...
Bir kuni yana
O'rik oppoq bo'lib gulladi.
Bari o'tar ekan, biz ham o'tarmiz,
Hech kim osmonga ustun bo'lmaydi.
O'shanda ham
G'ussalarni yengib
O'rik oppoq bo'lib gullaydi.

She'riyatimizda Hamid Olimjonning *o'rik oppoq bo'lib gulladi* misralariga hamohang yozilgan she'rlar talaygina. H.Olimjon "O'rik gullaganda" she'rida o'rik, gul, novda, g'uncha, shabboda kabi tushunchalarda bahorni aks ettirsa, ko'klamni esa yosharish, yangilanish, go'zallik, baxt kabi tushunchalarga mengzaydi. Asqad Muxtor esa misraning asl ma'no bo'yoqlarini saqlagan holda uni falsafiylik, ramziylik xususiyati bilan boyitadi.

Ushbu she'riy parchada "O'rik oppoq bo'lib gulladi" lirik qolipi uch o'rinda qo'llanilgan. Lekin biror o'rinda ham Hamid Olimjon ifodalagan tabiat tasvirini kuzatmaymiz. Zamon nuqtayi nazaridan tahlil qilganimizda ham misralardagi *ertasiga, bir kuni yana, o'shanda ham* o'rik oppoq bo'lib gulladi kabi payt ko'rsatkichlari orqali ham bahor mavsumiga, gul chog'iga nisbatan hech qanday ishora sezilmaydi. Asqad Muxtor she'rida bu misra ma'lum ma'noda ramziy xarakter kasb etib, umumlashtiruvchilik xususiyatiga ega bo'lgan. Shoir she'rlarining umumiy pafosi shundan iboratki,

u odamlarni cheksiz Vaqt oldidagi bir chimdim umrni ezgulik, mangulik yaratishga, yaxshilik qoldirishga, yaxshilik uchun kurashishga chorlaydi. Shoir falsafiy lirikasining hayotbaxsh ta'sir kuchining omillaridan biri ham shunda.

Turmush muammolarini keng ko'lamda, teranlik bilan idrok etish jarayonida o'quvchini mustaqil mushohada yuritishga undash falsafiy lirikaning bosh vazifasidir. Shu boisdan ham bir she'r turli darajada intellektual tayyorgarlikka ega o'quvchilarda har xil taassurot qoldirishi, ayricha o'y-fikrlar uyg'otishi mumkin. Bu ham falsafiy lirikaning muhim belgisidir.

A.Muxtorning "Yulduzim" she'riga nazar tashlaylik:

Tim-qora osmonda yulduz jimir-jimir...
Nafis tuyg'ularni jilovlab goho,
Aql ko'zi bilan izlayman baho:
Bu sirlarga yetmas bir umr...
Ularga aqlimiz nima bizlarning?!
O'ylarim o'zimga ko'rinar erish.
Shundaylari borki, bu yulduzlarning,
Yer uning oldida zarradek emish!..
Ana, kometadan sachradi uchqun,
Bosh uzra qilt etib uzildi bir barg.

Shoir ushbu she'rida o'zining bosh estetik prinsipi mohiyatidan kelib chiqib hayotning azaliyligi va inson umrining ezguligini tarannum etadi. Real borliq ham, inson tafakkuri ham cheksiz. Garchand, inson ongi, tafakkuri moddiy olam hosilasi esa-da, lekin poetik jihatdan undan-da go'zal, sababi, u inson tafakkuri, irodasi va shijoatining buyukligini tasdiqlayapti. A.Muxtor yulduzlarga astronomik tushuncha bilan yondashmaydi; bu uning vazifasiga ham kirmaydi; u osmon jismlarining inson tafakkuriga ta'siri masalasini ham ochib berayotgani yo'q. Yulduzlar – shoir she'rida inson umrining boqiyligini anglatuvchi ko'p ma'noli obraz. Ular olis va anglab yetish qiyin olamning timsoli; inson tafakkur etib hududsiz borliq sirlarini bilishga intiladi.

Falsafiy lirikaning falsafa faniga daxldorligi nisbiy xarakterga ega. Olim mantiqiy tushunchalarga tayanib hayot va voqelik belgilari xususida falsafiy xulosaga keladi; shoir esa, poetik obrazlar vositasida fikrlaydi, shu poetik obrazlarga tayangan holda hayot va voqelikka estetik munosabatda bo'ladi, hayot voqea-hodisalarini estetik baholaydi. Falsafiy lirikaning o'ziga xos jihatlaridan biri ana shu munosabatda ravshan namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, falsafiy lirika mohiyatini tashkil etgan masalalar aksariyat tabiat va inson, shaxs va jamiyat orasidagi murakkab aloqalarni aks ettirish orqali yuzaga chiqadi. Lekin ushbu mavzularda yozilgan har qanday she'r ham falsafiy ma'no kasb etmasligi mumkin. Hamma gap shu asarning saviyasi, shu jumladan, unda yuksak poetik umuminsoniy mazmun mavjud bo'lishidadir. Falsafiy she'r mundarijasini tashkil etgan fikr shoirning shaxsiy-hayotiy tajribasi va kuzatishlaridan, hayot, umr, insoniy burch haqidagi tasavvur va tushunchalaridan, his-tuyg'ularidan sizib chiqadi. Bu o'rinda shaxsiy-hayotiy tajriba ajdodlar tajribasi, fikrlari, kechinmalari, qiziqish va idealining in'ikosiga aylansagina umuminsoniy mazmunga ega bo'ladi. Umuminsoniy mazmun har bir she'r zimmasiga yuklangan g'oyaviy-estetik maqsad bilan bevosita bog'liqlikdagina yuzaga chiqadi.

Asqad Muxtor she'rlari, eng avvalo, hayot falsafasi, tezkor davr, odamlar va ularning murakkab ijtimoiy va shaxsiy aloqalari, sevgisi, nafrati, xalq, Vatanga muhabbati haqida. Tabiat yashnoqligi, go'zallik va boqiylik to'g'risida:

... Bir qushcha churq etib, olam uyg'onganda
Shabnam qatrasida ko'rdim yuzingni.
So'ng bir umr kutdim, qaytib kelmadi,
Bir umr izladim shu zumni.
Shunday noyob, oltin lahzalarning
Qadrin bilmas ekan odamlar.
O'tib ketar ekan, takrorlanmas ekan
Umrda yagona bebaho damlar.
O'tib ketmasa-chi?

"Odamlar hayot va o'lim ovozini botindan anglab turganlari kabi she'riyatdan ham doimo ichki sado eshitilib turadi. Bu qayg'u va quvonch ovozidir. Lekin hayot zinhor yangidan paydo bo'lmaydi. Uning oxiri ham yo'q. Inson uchun yashashdan bo'lak xayrli va fayzli imtiyoz berilmagan. She'riyat hayotni sharaflab, ulug'lab, doimo unga xizmat qiladi", deb yozadi qalmiq shoiri Qaysin Quliyev. Shu ma'noda asl she'riyat voqelikning teran, ziddiyatli asoslariga murojaat etadi; bu uning asosiy maqsadi bo'lishi bilan birga, taraqqiyotining bosh yo'lini ham belgilaydi.

Asqad Muxtor lirikasida inson umrining murakkabligini taqdir va qismat go'zalligi, ezgulik yaratish yo'lidagi kurashlar, hayotning boqiyligini esa uning azaliy chiroyi ta'min etadi, degan bosh g'oyaviy-estetik konsepsiya porlab turadi. Vatan, xalq, umr, inson kabi boqiy mavzularning XX asr voqeligi, ijtimoiy taraqqiyot va xalq ongi, dunyoqarashi nuqtayi nazaridan falsafiy talqini, bir yo'la, shoirning o'zbek falsafiy lirikasi taraqqiyotiga qo'shgan hissasini ham ko'rsatadi, undagi o'rnini ham qat'iy tayin etadi. Shoir lirikasida inson umrining mohiyati dunyoni yoshartirishdan, ezgulik yaratishdan iboratdir, inson mangulik uchun tug'ilgan, degan g'oyaviy-estetik konsepsiya ilgari suriladi. Uning lirik qahramoni yashashning, umrning ma'nosi – bu hayotda berilgan ne'matlar, hayot in'omini qo'ldan kelgancha olib qolish emas, balki o'z ulushi, nasibasini odamlarga qoldirishda deb biladi; inson umrining ezguligi, yashashdan maqsadi, tiriklik ma'nosini shunda ko'radi. Bu esa umrining davomi, barhayotlik deganidir.

Yolg'iz san'atgina daqiqalarning, fursatning, vaqtning shiddatli sur'atini to'xtata oladi, degan ekan Tomas Mann. Bu fikrni bevosita Asqad Muxtor lirikasiga tatbiq etging keladi. Negaki, boshimiz uzra sharros quygan bahor yomg'iri jilg'alarga qo'shilib daryolarga ulanib ketadi. U olis-olislarda – nurli tog'lar, purviqor cho'qqilar va munsarif ufqlar ortida, yam-yashil dalalarda shabnam bo'lib maysalar kiprigiga qo'nadi; hayotdan, yashamoq zavqidan entikayotgan qizlar sochini yuvadi, tabiatga, borliqqa yashillik, yasharish ato etadi. U yana bir necha bor yomg'ir bo'lib to'kiladi. Lekin o'sha bahorning farahli, sertuyg'u kunida yog'gan yomg'ir

betakror... U faqat san'atda, adabiy asar bag'ridagina muhrlanib qola oladi. Asqad Muxtor inson umrini tabiat bilan garmonik uyg'unlikda ko'rarkan, zamondoshlarining hislari va kechinmalari, o'ylari va mushohadalarini poetik obrazlarga ko'chiradi, undan kelgusi avlod voqif bo'lishini, yugirik vaqt qadrini his etishini istaydi.

Xulosa qilib aytganda, falsafiylik shoirdan o'ziga xos, alohida bir poetik fikrlash iqtidorini talab qiladi. Negaki, bu narsa qator obyektiv va subyektiv omillar bilan belgilanadiki, ularning in'ikosi bevosita shoirning iqtidori, mavzu tanlashi, unga yondashishi va uni qay aspektdan turib yoritishi bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. No'mon Rahimjon. Asqad Muxtor poetikasi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2003.
2. Sadulla Mirzayev. XX asr o'zbek adabiyoti. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005.

Gulnoza JO'RAYEVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

HAJVIY-MAJOZIY SHE'RIYATNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

(bolalar adabiyoti misolida)

Bolalar adabiyotining o'ziga xos tabiati, uning ma'rifiy, badiiy estetik qimmati doimo ijodkorlarning ham, tanqidchilarning ham diqqat markazida bo'lib kelgan. Ayniqsa, hajviy-majoziy she'riyat ko'p qatlamliligi, tagdor mazmun kasb etishi bilan kitobxonlarni o'ziga jalb qilsa, tanqidchilar ham bunday asarlarni tahlilga tortib, ulardan kitobxon uqa olmagan mazmunni sinchi nigohi bilan kashf etadi. Mana shu jihatlari bilan bolalar she'riyatida hajviy-majoziy obrazlar alohida ahamiyatga ega.

Adabiyotshunos O.Sharafiddinov Po'lat Mo'min she'rlarining tarbiyaviy ahamiyati haqida gapirar ekan, bir misolni keltiradi: "…Bu fikrning isboti sifatida kitobxonlardan shoirga ko'plab kelib turadigan maktublarning biridan parcha keltiraylik. Uni andijonlik o'qituvchi yo'llagan: "Xuddi shu siz aytgan gap men o'qitayotgan 7-sinf o'quvchilari orasida ham topiladi. Ko'pchilik bolalar yangi daftarga o'tishlari bilan ularning yozuvlari buzilib, qing'ir-qiyshiq yozadigan bo'lib qolishadi. "Parfining harfi" she'ringizni darsda ishlab chiqdim. O'quvchilar uni o'qib ham xursand bo'lishdi, ham kulishdi. Ko'pchilik bolalar endi qoidali va chiroyli yozishga harakat qilishyapti". Bu – Po'lat Mo'minning bitta she'ri va uning ta'siri haqidagi gap. Shoirning boshqa she'rlarini jam qilib, ularning ta'sir kuchini tasavvur qilsak, Po'lat Mo'min yoshlarni tarbiyalashda katta hissa qo'shayotganiga amin bo'lamiz"[1].

Istiqlol davri o'zbek bolalar she'riyatida T.Adashboyevning "Alg'ov-dalg'ov aralash", H.Imonberdiyevning "Harflar jangi" kabi asarlari shu jihatdan e'tiborga sazovor.

T.Adashboyev she'rida lirik qahramon "Alifbe"dan o'rin olgan har bir harf, tinish belgi o'z vazifasini bajarmasdan, "adashib" ketsa nima bo'lardi, degan tasavvurga beriladi. She'rda "A" harfi bilan bog'liq voqea shunday tasvirlanadi:

Agarda "A" adashsa,
Andijon, Asakani,
Arini
Atardik ne deb qani?

Shoir dastlab harflarning ahamiyatini tushuntirishda ularning g'oyib bo'lib qolishi, shu tariqa "B", "V", "G", "K", "I", "K" kabi ko'plab harflar bilan bog'liq tasavvurlarni she'riy hikoya qiladi. Shoirning mahorati shundaki, har bir harfning shu tarzdagi "adashishlar"i oqibatida quvnoq kulgi yuzaga keladi. Bolalarni ta'lim olishga chorlaydi va shu jihati bilan u ma'rifiy xarakter kasb etadi.

She'r bolalarning tasavvur olamini kengaytiradi. Bolalar unda tasvirlanayotgan harflarning tartibsiz holatini tasavvur qilishar ekan, quvnoq yumordan, boy poetik mazmundan estetik zavq, didaktik mazmundan ma'rifiy saboq olishadi. Negaki, shoir she'rda har bir harf xususiyatini tasvirlar ekan, albatta, bolalarning dunyoqarashi, ma'rifiy ehtiyojlarini ham nazarda tutadi. Masalan, "K" harfi tasvirida:

Kitob bilan kundalik,
Kerak bizga har kuni.
Kalendarda aniqdir.
Kelgusi oy yakuni, –

deya bolalarning kundalik o'quv faoliyati bilan bog'liq, "O" harfi haqida esa u ishtirok etgan so'zlar ketma-ketligi talqinidan ma'rifiy-didaktik xulosa chiqariladi. She'rning yakuniy qismi o'ziga xos yumoristik ohangga ega. Unda harflarning ma'rifiy ahamiyati, so'zlar misolida ularning hayotimizda muhim ekanligi uqtiriladi. Kitobxon she'rdagi:

O‘ttiz besh harf agarda
Bo‘lmay qolsa basharti,
Kitobdagi she’r, hikoya
Ayting qanday yashardi? –

degan xulosani o‘qir ekan, xayoliga: “Rostdan ham harflar bo‘lmasa, nima bo‘lardi?” degan savolning kelishi tabiiy. Keyin esa u: “Bunday bo‘lishi mumkin emas”, degan xulosaga keladi. Bu ularning quvnoq tabassumiga sabab bo‘ladi, she’rning tarbiyaviy, estetik qimmatini oshiradi. Hali o‘qishni bilmagan yoki endi o‘rganishni boshlagan bolalar ham tezroq harflar bilan tanishishga intiladi. Bu she’rga yangi bir ma’rifiy mazmun ham yuklaydi.

H.Imonberdiyevning “Harflar jangi” she’rida ham shunga o‘xshash manzarani kuzatish mumkin. She’rda tasvirlanishicha, tinch-ahil yashayotgan o‘ttiz besh harfning orasiga kutilmaganda nifoq tushadi. Buning asosiy sababi esa harflar muzqaymoq uchun navbatga turishganda “U” oyim va uning o‘g‘li “U cha”ning orasiga “R” bekning bemavrid suqilishidir.

Shoir harflarning janjalini tasvirlar ekan, dialogik nutq vositasida bolalar kundalik hayotda duch keladigan tanish jarayonni harflar yordamida suratlantirib, quvnoq kulgi yaratadi. Bunda har bir harfning janjalga munosabati ularning shakliga mos kulgili tarzda tasvirlanishi bolalarning zavqini oshiradi. Katta “U” va kichik “U” harfi “U” va “U cha” deya ta’riflanishi bolalar uchun qiziq. Qolaversa, “u” va “r” harflari ketma-ketligidan “ur” so‘zining hosil bo‘lishi ham mojaroga ishora qilib keladi. Bundan tashqari, harflarning insonlar kabi harakatlari ham yaxshi tasvirlangan. Jumladan:

“F” qo‘lini beliga
Tiragancha lol turar.
“P” asta pisib borib
O‘zin panaga urar.

Ushbu she’rda harflarning harakatlari ularning tashqi ko‘rinishlariga moslanganini ko‘rishimiz mumkin. Kirillcha “Ф” harfi chindan ham qo‘llarini beliga tirab turgandek ko‘rinishga ega. Yoki:

Og‘zini ochgancha “O”
Deya oldi: Obbo...
– Vaziyatni yumshatsam –
der yumshatish belgisi.
O‘zingni epla, – deb
“K” yashirmadi kulgisin.

Shoir harflar jangi orqali bolalarga o‘zlarining to‘polonlari, urush-janjallari manzarasini shunday ustalik bilan tasvirlaydiki, natijada she’rdagi obrazlar harflar ekani ham bir zum unutiladi. Ular go‘yoki chindan bahsga kirishib ketgandek tasavvur uyg‘otadi, chunki barchasi jonli, tabiiy tasvirlanadi. She’rda harflar janjalining barham topishi ham g‘aroyib, ham ma’rifiy yo‘sinda o‘z yechimini topa olgan. Bahs yakunida harflarning do‘sti hisoblangan tinish belgilari aralashadi.

Har ikkala she’rda ham shoirlar harflar, tinish belgilari orqali yangicha poetik mazmun bilan boyitilgan original yumoristik asar yarata olgan. Jumladan, T.Adashboyev she’rida har bir harf ta’rifida shu harf bilan boshlanadigan so‘zlarni qo‘llash va ularning yo‘qolib qolishidan kelib chiqadigan alg‘ov-dalg‘ovga e’tibor qaratilsa, H.Imonberdiyev she’rida har bir harfning tashqi belgisi tasviri va vazifasining mohiyati (masalan, verguldagi yarim to‘xtash – “tinching sal” ma’nosida, nuqta – voqeaning tugashi kabi) hajv orqali ifodalanadi. Bu she’rlarda hajv tig‘i zohiran bolalarga emas, balki harflarning o‘ziga qaratilmoqda. Shu bois pand-nasihat o‘rniga ramziy-majoziylik, yumoristik ruh ustuvorlik qiladi. Ayni chog‘da, mavzuning faqat ma’rifiy ahamiyatiga emas, balki estetik tomoniga ham ko‘p e’tibor qaratiladi. She’rlarda bolalarga xos tasavvur, obrazlilik, manzara yaratish, harf va tinish belgilarining shakliga mos so‘z va qofiyalar, alliteratsiya usullarining mahorat bilan qo‘llanishi ularning yuksak badiiyligini ta’minlaydi. Bolalar harflarning behuda janjallaridan o‘zlariga kerakli xulosalarni chiqaradi. Atrofdagi barcha narsaga jonli mavjudotga qaragandek munosabatda bo‘la boshlaydi.

[1] Sharafiddinov O. O‘zbek bolalar adabiyoti. Maqolalar, adabiy portretlar. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1978. 150-bet.

Farizod AKROMOVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
katta o‘qituvchisi

O‘RTA ASRLAR ADABIYOTI TARIXIY BOSQICHLARI

O‘rta asrlar turli-tuman voqealarga boy uzoq muddatni o‘z ichiga oladi. Feodal zulm, savodsizlik, dogmatik dunyoqarash hukmronligi-yu o‘zgacha fikrlash shafqatsiz tazyiq ostiga olinganiga qaramay, bu davrdan jahon adabiyoti xazinasiga xalqlarning feodal istibdodga qarshi qahramonona kurashi, vatanparvarlik

harakati, hurfikrlilikning ajoyib badiiy namunalari qoldi. Umuman olganda, o‘rta asrlarni davrlarga bo‘lish bahstalab masalalardan biri bo‘lib, bu, avvalo o‘sha zamon madaniyati, xususan, adabiyoti tarraqqiyotining aniq xronologik chegaralarini belgilash murakkabligi bilan bog‘liq.

“O‘rta asrlar” (aniqrog‘i “o‘rta asr” – lotincha “media actates”) termini XV–XVI asrlarda Italiyada gumanistlar doirasida paydo bo‘ldi. Jahon ilmi taraqqiyotining turli bosqichlarida “o‘rta asrlar” tushunchasiga turlicha ma’nolar berilgan.

XVII–XVIII asrlarda madaniyatning antik dunyodagi va yangi zamondagi yuksak parvoziga qarshi o‘laroq, o‘rta asrlar chuqur madaniy inqiroz davri deb hisoblangan. VI–VIII asrlarning “qora davrlar” deb atalishi ham shundan.

Zamonaviy fan bu tushunchaga o‘zgacha ma’no beradi: o‘rta asrlar bu – avvalo, ibtidoiy yoki quldorlik jamiyatining o‘rniga kelgan va, keyinchalik, yangi zamonda tarixiy sahnani kapitalizmga bo‘shatib bergan feodal ijtimoiy-iqtisodiy bosqichning paydo bo‘lishi, gullab-yashnashi va inqirozga uchrashi davri.

O‘rta asrlar boshlanishi deb, shartli ravishda eramizning III–IV asrlari, ya’ni feodal ishlab chiqarish usulining belgilari oydinlashgan, yangi dinlar oyoqqa turishi natijasida dunyoqarashda tub burilish yuz bergan davr tushuniladi.

Tarixan mashhur G‘arbiy Yevropa madaniyatining muqaddimasini an’anaviy ravishda V asrning ikkinchi yarmida G‘arbiy Rim imperiyasining barbod bo‘lishi bilan bog‘lashadi. Olmon va slavyan qabilalarining vahshiyona hujumlari natijasida imperiya yemirildi hamda quldorlik tuzumi asta-sekin yo‘qola bordi. O‘rta asrlar hisobi olmon Odoakr balog‘atga yetmagan taxt vorisi Romul Avgustni imperatorlik taxtidan mahrum qilgan 476-yildan boshlanadi.

O‘rta asrlar adabiyoti tarixi ikki davrga bo‘linadi: birinchisi – urug‘chilik jamiyatining yemirilishi va feodal munosabatlarining shakllanish davri (III–X asrlar) “Ilk o‘rta asrlar adabiyoti” deb atalsa, ikkinchi “yetuk o‘rta asrlar adabiyoti” qishloq xo‘jaligi tobora yuksalayotgan, hunarmandchilik va savdo-sotiq ravnaq topgan, shaharlar gurkiragan davr – rivojlangan feodal jamiyat (IX–XV asrlar) adabiyotidir. “Ilk O‘rta asrlar adabiyoti” davrida og‘zaki ijodiyot hukmron bo‘lgan III–IV–VII–VIII asrlardan iborat o‘tish davri ajratib ko‘rsatiladi. Qadimgi Rim an’analarini tiklash maqsadida Adabiy akademiyaga asos solgan Buyuk Karl hukmronlik davri bilan bog‘liq VIII–IX asrlar esa “Karolinglar Uyg‘onish davri” deb ataladi. “Yetuk O‘rta asrlar adabiyoti” davri ham ikki bosqichga bo‘linadi: birinchi bosqich – XI–XII asrlar ilk klerikal adabiyotda xalq ijodiyoti ta’siri mavjudligi bilan xarakterlanadi. Ikkinchi bosqich – XII–XV asrlar shaharlar ravnaqi bilan, badiiy ijodda o‘zining yorqin ifodasini topgan antifeodal dehqonlar harakatining kuchayishi bilan bog‘liq.

Turli xalqlar taraqqiyoti darajasi turlicha bo‘lganidek, uni bunday davrlarga bo‘lish ham shartli xususiyatga egadir. IX asrdayoq feodalizm asosan shakllanib bo‘lgan Fransiya boshqalardan jadalroq rivojlangan edi.

Adabiyotda bu bosqich Yevropa ko‘hna xalqlari qadimiy adabiy an’analarining o‘zgarishi va yangi xalqlarda so‘z san’atining dunyoga kelishi bilan bog‘liq. G‘arbiy Yevropa xalqlarining so‘z san’ati – birlari antik tajribaga tayangan yetuk lotin tilidagi adabiyotga ega, kelajakda millat bo‘lib shakllangan va milliy adabiyot sohiblari, ikkinchilari qisqa muddat ichida gullab-yashnagan (vallar, provensallar), uchinchilari esa Yevropa madaniyatida chuqur iz qoldirib, tarix sahnasidan yo‘qolgan (gallar, gotlar) yosh, ba’zan yovvoyi xalqlarning og‘zaki ijodiyotidan iborat.

VIII asrdan boshlab yangi milliy tillarda bitilgan yodgorliklar paydo bo‘la boshladi. Dastlab ular grammatik ma’lumotlar, pand-nasihat asarlar, turli-tuman huquqiy va diplomatik hujjatlar edi. Misol tariqasida 842-yilda fransuz va olmon qirollari o‘rtasida imzolangan “Strasburg qasamlari” deya nomlangan shartnomani aytib o‘tish mumkin.

O‘rta asrlar eposi tarixi an’anaviy ravishda ikki bosqichga bo‘linadi: urug‘chilik tuzumi yemirilishi davri eposi (irland, skandinav, anglosakson, qadimiy olmon) va feodalizm davri eposi (o‘rta va yuqori olmon, fransuz, ispan). Shu bilan birga epik yodgorliklar turli ko‘rinishlarda: ommalashgan, og‘zaki nutqda va ilk yozuvga tushirilgan shaklda mavjud bo‘lgan.

Yetuk o‘rta asrlar adabiyoti feodal jamiyat asoslari shakllanishini aks ettiradi. Bu davrda joylarda g‘ayrioddiy tezlikda turli-tuman adabiy yodgorliklar yaratildi. O‘zaro bog‘liq uch adabiy oqim baravariga rivojlandi: ularning ichida eng qudratlisi xalq og‘zaki adabiyoti bo‘lib, ikkinchisi o‘quv xususiyatiga ega bo‘lgan yozma klerikal (cherkov) adabiyotdir. Keyinchalik, taxminan XII asrga kelib feodal-ritsar madaniyati shakllandi. Ritsar yoki kurtuaz madaniyatining paydo bo‘lishiga jamiyatning tabaqalarga ajralishi turtki bo‘ldi. Ritsar adabiyoti she’riy va nasriy janrlar keng tizimining o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Taxminan XII asrga kelib shaharlarning gullab-yashnashi natijasida shahar san’ati va adabiyoti dunyoga keldi, uning janrlar tizimi, estetik kategoriyalari, doimiy mavzulari va sujetlari shakllandi. Klerikal adabiyot esa, aksincha, yolg‘izlikni tark ayladi va asta-sekin shahar adabiyoti bilan qo‘shilib ketdi.

Bu davrda, shuningdek, milliy adabiyotlar paydo bo‘lishiga zamin yaratildi; ularning har birida qahramonlik eposi, kurtuaz lirika, roman, shahar satirasi, didaktika, dramaturgiya kabi endigina shakllanayotgan oqimlar va janrlar o‘zlarining yuksak cho‘qqisiga erishdi.

G‘arbiy Yevropa san’ati va adabiyotida tarixiy taraqqiyotga bog‘liq uch davrni belgilash mumkin. Birinchi davr – ilk o‘rta asrlar (V–XI asrlar). Ikkinchi davr – yetuk o‘rta asrlar (XI–XV asrlar). Uchinchi davr – “Uyg‘onish

davri" deya nomlangan yangi madaniyatga o'tish ro'y bergan so'nggi o'rta asrlar davri. O'rta asrlar mobaynida Yevropa jamiyat hayotining barcha jabhalarida o'z izini qoldirgan uzoq yo'lni bosib o'tdi. Texnikaning taraqqiyoti va ishlab chiqarishning yangicha tashkil qilinishi, feodal jamiyatning hukmron tabaqalaridagi o'zgarishlar va shaharlarning gurkirab o'sishi shular jumlasidandir.

Yaqin-yaqinlargacha olimlar o'rta asrlar madaniyatini ikkiga ajratishgan: rasmiy, cherkov madaniyati va hazil-mutoyibali xalq madaniyati. Boz ustiga bu ikki madaniyat, ta'kidlanishicha, bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan.[1] XX asrning oxirida olib borilgan izlanishlar bu jumboqqa aniqlik kiritdi va o'rta asrlar madaniyatiga turli qatlam va tabaqalar tomonidan yaratilgan yaxlit, bir butun madaniyat sifatida qarash taklif etildi.

O'rta asrlar jamiyati antik dunyo xarobalari ustida paydo bo'ldi. Insoniyat tarixining bu davriga kelib, voqelikni afsonaviy idrok etish o'rnini oddiy haqqoniy anglash egalladi. Yangicha fikrlashning o'ziga xosligini belgilab bergan nasroniylik dini tobora o'zgacha ahamiyat kasb eta boshladi. Ruhning ilohiyligi va adabiyligi zamona ma'naviy taraqqiyotini belgilab bergan asosiy xususiyatlardan bo'ldi.

Aytish joizki, ilk o'rta asrlarda antik madaniyatning va o'sha davr ijtimoiy munosabatlarining ta'siri hali ham kuchli edi. Asta-sekin antik dunyodan ham, kurrai zaminda Yevropa taraqqiyoti bilan bir zamonda mavjud bo'lgan boshqa madaniy taraqqiyotlardan ham farqli, o'ziga xos tarixiy davr dunyoga kelishiga imkon yaratgan o'rta asrlarning sof belgilari va xususiyatlari shakllana boshladi.

O'rta asrlar adabiyotining keyingi taraqqiyot jarayonida bu shamoyil faqat adabiy asar badiiyatining o'ziga xos xususiyatini belgilabgina qolmasdan, balki yangi janr ko'rinishi sifatidagi majozda ro'yobga chiqadi. Shu sababli insonning majoziy ko'rinishdagi shakllari bilan bir qatorda hayotiy obrazlar paydo bo'la boshladi. Insoniyatning bu dunyodagi umri, zamon va makoni hududsiz "u dunyoning" hamda "kelgusi mangu asrning" ko'lankasidan iborat va shu sababli ular qisqa va cheklangan,[2] deb qaraldi.

M.M.Baxtin zamon va makon munosabatlarini tik chiziq deb hisoblab, bir kishining umri va hatto butun insoniyatining umri unda faqatgina bir lahzani tashkil etadi, deb ko'rsatadi. Buni ikki xil izohlash mumkin, ya'ni insonning tug'ilishidan o'limigacha bo'lgan davr yoki insoniyatning paydo bo'lishi va qiyomat qoim o'rtasidagi zamon ko'zda tutiladi.

Xullas, ilk o'rta asrlar adabiyoti ikki asosiy guruhga bo'linadi: asrlar mobaynida og'zaki holda mavjud bo'lgan hamda keyinchalik mahalliy xalqlar tillaridan yozib olingan xalq og'zaki ijodi yodgorliklari va lotin tilida turli janrlarda yaratilgan adabiyot. O'rta asrlar jamiyati va adabiyoti taraqqiyotiga umumiy baho berib ta'kidlaganimizdek, yetuk o'rta asrlar (XI–XIII asrlar) qishloq xo'jaligi va shaharlarning jadal rivoji, hamda savdo-sotiq va hunarmandchilik ravnaqi bilan ajralib turadi. Bu davrda feodal jamiyatining shakllanishi asosan nihoyasiga yetdi. Jamiyatning tabaqalarga bo'linishi jamiyat madaniyati ravnaqiga, xususan, adabiyotiga ham ta'sir o'tkazmay qolmadi.

[1] Бахтин М.М. Творчество Рабле и народная культура Ренессанса. – Москва, 1965.
[2] Аверинцев С.С. Порядок космоса и порядок мироздания в мировоззрении раннего средневековья (Античность и Византия). – Москва, 1975.

Turg'unoy KAZIYEVA,
Andijon davlat universiteti dotsenti, PhD

FANLARARO INTEGRATSIYALASHUVDA FONETIK USLUBIYATNING O'RNI

Fanlarning nazariy taraqqiyotida differensial holat mavjud, integratsiya esa amaliyotda o'zaro bog'liqlikni bildiradi va u jarayonning ijtimoiy, pedagogik-psixologik ahamiyatini yanada oshiradi. Shuning uchun ham har bir fan pedagogikaning fanlararo bog'liqlik qonuniyatlari va tamoyillarini aniqlashi, uning boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasining nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqishi zarur. Ona tili ta'limida, xususan, fonetika o'qitishda fanlararo bog'liqlik konsepsiyasi hali yaratilmagani bu bo'limni to'la tahlil qilish lozimligini bildiradi. Zero, fanlararo aloqaning tatbiq etilishi fanlarning rivoji, insoniyat ravnaqi uchun xizmat qiladi.

Fanlararo uyg'unlikni nutq tovushlari misolida ko'rish mumkin. Chunki nutq tovushlari murakkab hodisa bo'lib, ular quyidagi xususiyatlarga ega:

1) tovushlar – fizik hodisa, chunki ular havo zarralarining tebranuvchi harakati natijasi;

2) tovushlar – fiziologik hodisa, chunki ular nutq a'zolarida hosil bo'ladi;

3) tovushlar – psixologik hodisa, chunki ularning paydo bo'lishi ongli harakat natijasi hisoblanadi;

4) tovushlar ijtimoiy hodisa, chunki ular aloqa vositasi bo'lmish tilning elementlaridir.[1]

Ko'rinib turibdiki, tilshunoslik fani hozirgi zamon fanlarining barchasi bilan ham juda yaqin aloqada, chunki inson muloqoti jarayonida til asosiy vazifani bajaradi. Demakki, tilni ham fanlarning barchasi bilan aloqadorlikda o'rgatish o'qitishda samarali kechadi. Shuning uchun ham til fanining fonetika bo'limini o'rganishda turli materiallardan foydalanish o'quvchilar tafakkurini har tomonlama rivojlantirishga yordam beradi. Akademik litsey o'quvchilari uchun nashr etilgan darslikdagi "Nutq tovushlarining uch tomoni" mavzusini o'rganishda fanlararo aloqadan foydalanishni turli usullarda tashkil etish mumkin. Bilamizki, nutq tovushlari insonning nutq a'zolari harakati natijasida hosil bo'ladi. Nutq tovushlarining bu tomoni uning talaffuz (fiziologik) belgisi hisoblanadi va u fiziologiya fani bilan uzviy bog'liqlikda o'rganiladi. Xususan, nutqiy faoliyat markaziy asab tizimi tomonidan boshqarilganligi va nutq a'zolari tomonidan talaffuz etilganligi uchun nutq apparatini tilshunoslik hamda fiziologiya fani misolida o'rganish mumkin. Nutqiy faoliyat akustik-artikulatsion hodisalarni tinglovchi tomonidan eshitish a'zosi orqali qabul qilinishiga asoslanadi. Nutqning sodir bo'lishi, avvalo, segment birliklarning o'zaro munosabatidan tashkil topadi, bunday birliklarni oson va qulay o'rganishda fiziologiya materiallaridan foydalanish katta samara beradi.

Ta'kidlash joizki, nutq tovushlarini fiziologik nuqtayi nazardan o'rganishga qadimdan katta e'tibor berilgan. Xususan, Ibn Sino fizikaviy tovushlar bilan nutq tovushlarini "savt" va "harf" terminlari ostida farqlaydi va harf savodidan farqli ravishda nutq a'zolarining faoliyati asosida hosil bo'lishini ta'kidlaydi. U nutq tovushlarini hosil qiluvchi uch jihatni ko'rsatib o'tadi:

1) diafragma va ko'krak muskullari orqali harakatga keladigan havo to'lqini;

2) havo to'lqinining nutq a'zolarining turli nuqtasida to'siqqa uchrashi;

3) tovushga turlicha sifat beradigan rezanator.[2] Ko'rsatilgan ushbu uch jihat bugungi kunda ham nutq tovushlarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Ma'lumki, fonetika yuzasidan izchil ma'lumot 5-sinfda beriladi. Lekin bu sinfda hali o'quvchi fiziologiyadan ma'lumotga ega bo'lmaydi. Shu bois ularga quyidagicha topshiriqlar berish mumkin: avvalo, o'qituvchi o'quvchilardan alifbodagi harflarni tartib bilan sanab berishlarini so'raydi. So'ng sinfdagi o'quvchilarning har biriga o'qituvchi jurnalidagi raqami bo'yicha alifboning o'sha raqamli harfini beradi, o'quvchilardan o'zlariga topshirilgan harf qanday hosil bo'layotganligini daftarlariga qalam yordamida tasvirlab berishlari so'raladi. O'quvchilar o'z tasavvurlaridagi harflarning hosil bo'lishini nutq a'zolari orqali ko'rsatib beradilar. Har bir o'quvchi individual harakat qilgani uchun bajarayotgan topshirig'i ham xususiy shaklda namoyon bo'ladi.

Fonetika bo'yicha nutq a'zolari mavzusi unli va undosh tovushlarning farqli belgilarini tushuntirishga biroz qiyinchilik tug'diradi. Shunga qaramasdan, nutq a'zolarini ifoda etuvchi tasvirni monitor orqali ko'rsatib, uning yordamida nutq a'zolari nima ekanligi, ularning vazifalari haqida boshlang'ich ma'lumot berish muhim ahamiyat kasb etadi. O'pkadan chiqayotgan havoning og'iz bo'shlig'ida to'silishi yoki to'silmasligi natijasida hosil bo'luvchi undosh va unli tovushlar yuzasidan elektron manbalar asosida ma'lumot berish mavzuning o'quvchilarga oson tushunilishiga yordam beradi. Ona tili darslarini bunday tashkil etishda darsda fanlararo bog'liqlik namoyon qiluvchi jadvaldan foydalanamiz. Bunda ona tili, adabiyot, rasm, anatomiya, falsafa, etika, estetika, fizika, biologiya va kimyo kabi sohalarning uyg'unlashganligini ko'rish mumkin. Ahamiyatli jihati shundaki, o'quvchi mazkur uyg'unlikni amaliyotga tatbiq etishi natijasida mustaqil fikrlaydi, o'z imkoniyatlarini namoyon etadi, bir vaqtning o'zida barcha o'quvchilar darsga jalb qilinadi, xotirasi kuchayadi hamda atroflicha fikrlashga odatlanadi.

Akademik litseylarda tilning tovush tomonini o'rgatishda uch xil aspektga asoslaniladi. Tilning tovush tomoni ancha murakkab hodisa sanaladi: a) har qanday tovushning fizik-akustik tabiati bor; b) har qanday nutq tovushining biologik asosi (nutq a'zolarining harakati va holati bilan bog'liq jihatlari) mavjud; d) har qanday nutq tovushlari talaffuz etiladi va eshitiladi. Fonetik birliklarning ana shu jihatlarini o'rganish fonetikaning fizik-akustik, anotomik-fiziologik, perseptiv va lingvistik-funksional aspektlari deb qaraladi.[3]

Fonema nazariyasi yaratilgandan buyon birinchi planda sanalib kelinayotgan fonemaning funksional tomoni rad etiladi. Fonetik aspektlarga xos bo'lgan bir necha terminlar umumta'lim maktablari hamda o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi dastur va darsligida "Fizika" fanida o'rganiladi. Jumladan, tovushning intensivligi – tovush to'lqinlarining tarqalish yo'nalishiga perpendikulyar bo'lgan birlik yuzasidan olib o'tiladigan energiya bilan aniqlanadigan kattalikdir.[4] "Fonetik bo'linishlar" mavzusini o'tishda "Aqliy hujum" yordamida talabalarning fikrlash qobiliyatini harakatga keltirish mumkin.

"Talaffuz a'zolari" mavzusini o'tishdan avval fonetikaning tadqiqot aspektlari haqida ma'lumotlar beriladi. Fonetikaning fizik-akustik, anatomik-fiziologik, perseptiv, lingvistik-funksional aspektlari maxsus ko'rib chiqiladi.[6] Fonetikaning fizik-akustik aspektida fonetik birliklarning fizik tabiati va akustik jihatlari tatqiq etiladi. Fonetik birliklarning fizik tabiatiga tovushning balandligi, kuchi, tembri, cho'ziqligi kiradi. Ma'lum vaqt o'lchovida un paychalarining tebranish miqdori qancha ko'p bo'lsa, tovush shuncha baland bo'ladi yoki aksincha. Ma'lumki, o'quvchi-talabalar umumta'lim maktablari hamda akademik litseylarda fizika fanidan bilimga ega bo'lganlar. Fizika fanidagi materiallar bilan ona tili fanidagi tovushga berilgan ta'riflarni solishtirib ko'raylik.

"To'lqinlar odam qulog'iga yetib borganda quloq pardasini majburiy tebratadi va odam tovushni eshitadi. Tovush to'lqinlarining chastotasi 16<Hz va > 20000 Hz oralig'ida bo'ladi. Bunday chastotali to'lqinlarga inson qulog'i dosh bera oladi"[7]. Mazkur aspektni o'rgatishda fanlarni o'zaro bir-biriga bog'lab o'qitish samarali natija beradi. Fanlararo uyg'unlikni hosil qiluvchi darslar tashkil etilishida o'quvchilarning qiziqishi ortishi bilan birga ularning xotirasi mustahkamlanadi va, eng muhimi, ushbu vazifani amaliy bajarishlari mumkin bo'ladi. O'quvchilar tovush talaffuzida uning cho'ziqligi, tembri, intensivligiga e'tibor bermaydilar. Shu bois solishtirish, taqqoslash metodidan foydalanish ularni mushohada qilishga chorlaydi.

Ta'lim bosqichlarida ona tili o'qitishning bosh vazifasi tilshunoslik fanini emas, balki aloqa vositasi bo'lgan til va uni qanday o'rgatish yo'llarini qidirishdan iborat. Shunday ekan, ona tili o'qitishda shu tilning boshqa hodisalar bilan aloqasini e'tiborga olish lozim. Til tabiiy fanlarning o'rganish obyekti bo'lgan tabiiy hodisalarga nisbatan birmuncha mavhum bo'lganligidan, uni bolalarga aniqroq hodisalarga qiyoslab o'rgatish bir qadar qulaylik tug'diradi. Bu esa litseylarda ona tilini o'qitish jarayonida fanlararo aloqaga e'tiborni kuchaytirishni talab etadi.

[1] Yuldoshev I., Sharipova O'. Tilshunoslik asoslari. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2007. 43–44-betlar.
[2] Qarang: Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 2002. 22-bet.
[3] Jamolxonov H. O'zbek tilining nazariy fonetikasi. – Toshkent: Fan, 2009. 24-bet.
[4] G'aniyev A.G. va boshqalar. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2005. 93-bet.
[5] Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent: Sharq, 2010. 8-bet.
[6] G'aniyev A.G. Fizika. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2005. 49-bet.

Tilshunoslik



Muniraxon MUXITDINOVA,
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Chet tillar kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

CHET TIL KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI MASOFAVIY O'QITISH TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLINGVISTIK JIHATLARI

Mustaqil faoliyatni amalga oshirishga tayyorgarlikda xotira, diqqat va tanqidiy fikrlashni, ta'lim oluvchining o'rganish faoliyati va uni amalga oshirishga qiziqishni rivojlantirish, shuningdek, muvaffaqiyatga erishishga turtki (motivatsiya) berish katta ahamiyat kasb etadi. Har bir insonda o'z shaxsiy xususiyatlari, shu jumladan, fikrlash faoliyati mexanizmlari ham mavjud. O'quvchi nafaqat o'z o'quv faoliyatini mustaqil holda boshqara olishi, balki anglash va fikrlashning belgilangan darajasiga ham ega bo'lishi muhim hisoblanadi.

Zamonaviy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bituruvchi o'quvchilarda mustaqil ta'limni tashkil etish orqali ularda *o'z oldiga to'g'ri maqsad qo'yishni o'rganish, o'quv materiallari bilan ishlashni o'rganish*, *vaqtni rejalashtirish, o'z-o'zini baholash qobiliyati, turli axborot manbalari bilan ishlash mahorati* kabi muhim xususiyatlarni shakllantirish mumkin. Ushbu jarayonda kommunikativ aloqa avtomatlashgan shaklda amalga oshiriladi va o'quvchilarda xorijiy tillarni o'rganish istagi ichki motiv orqali paydo bo'la boshlaydi va bu fan tarmog'i hisoblanmish psixolingvistikada o'rganiladi.

Psixolingvistika o'quvchilarning ichki nutq faoliyati jarayonini o'rganib, kommunikativ kompetensiyalarining ongli tarzda rivojlanishiga turtki beradi. Ushbu jarayonda xalqaro tajribalardan ham ma'lumki, xorijiy tillarni o'rgatish va o'rganishda elektron ta'limning o'rni beqiyos. Ushbu ta'lim til o'rgatuvchining o'z kompetensiyasini muntazam oshirib borishida foydali vosita vazifasini o'tasa, til o'rganuvchining keng ma'lumotlar bazasidan ixtiyoriy tanlov asosida tilni o'zlashtirib borishiga katta yordam beradi. [1]

Respublikamizda ta'limning uzviyligi va o'quvchi shaxsi hamda qiziqishlarini inobatga olgan holda fanga oid umumiy kompetensiyalar belgilangan bo'lib, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, masofaviy ta'limda barcha til o'qitish kompetensiyalaridan samarali foydalanish mumkin. Til o'qitish kompetensiyasining quyidagi turlari mavjud:

Kommunikativ kompetensiya orqali masofaviy o'qitish dasturida o'quvchilarning o'zaro chet tilda aloqa o'rnatib, muloqotga kirisha olish, jamoada samarali ishlay olish layoqatini shakllantirish imkoniyati mavjud.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi orqali masofaviy o'qitish dasturi asosida o'quvchilarning uzluksiz o'z-o'zini aqliy va kreativ rivojlantirish, mustaqil o'qib-o'rganish, doimiy nazoratdan o'tkazish, test trenajorlari yordamida o'z-o'zini nazorat qilib borish va baholash, kognitiv ko'nikmalarni mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, mustaqil qaror qabul qila olish ko'nikmalari shakllantiriladi.


Axborot-kommunikativ kompetensiya quyidagicha: zarur axborotlarni mustaqil izlash, axborot savodxonligi, axborotlarni qayta ishlash, axborotlarni taqdim etish, axborotga motivatsion yo'nalganlik, zarur axborotlarni saralash, axborot iste'moli madaniyati, media madaniyat kabi kompetensiyalarni o'z ichiga oladi. [2]

Bundan tashqari chet tillarni o'qitishda kommunikativ kompetentlikni shakllantirish jarayonida o'rta maktab bitiruvchi o'quvchilarining psixologik xususiyatlari va til materiallarini (leksik va grammatik) o'zlashtirish bilan bog'liq psixolingvistik muammolarni inobatga olish lozim. DTSda kommunikativ kompetensiya o'z ichiga lingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik kabi kompetensiyalarni qamrab olgan.

Masofaviy o'qitishda o'quvchilar *sotsiolingvistik kompetensiyalarni*, o'rganilayotgan til egasining madaniyati, tarixi, an'analarini turli multimedia vositalari (audio, video, rasmlar, ppt) yordamida ko'rgazmali tarzda mukammal o'zlashtirishlari mumkin. *Lingvistik kompetensiyalar* nutqiy (tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish) va til kompetensiyalari (orfografiya, fonetik, grammatik) kabi turlarga bo'linadi. Yuqorida keltirilgan masofaviy ta'lim texnologiyalari yordamida o'quvchilar chet til kommunikativ kompetensiyasining barcha komponentlarini to'laqonli shakllantirib va o'zlashtirib boradi.


Shuningdek, chet tilni o'qitish mazmuni asosiy uch qismdan iborat bo'lib, bular til materiallari (fonetika, leksika, grammatika, orfografiya) va ular bo'yicha ko'nikmalar, nutq faoliyati turlari (gapirish, tinglab tushunish, o'qish, yozuv, tarjima) va ular bo'yicha malakalar, ma'lumot manbalari (nutq tematikasi, matnlar, til tushunchalari)ni o'z ichiga oladi.

DTS asosida ishlab chiqilgan test topshiriqlari va mashqlardan iborat elektron testlar kompleks ravishda bajarishga qaratilgan bo'lishi lozim. Maktab bitiruvchi o'quvchilariga DTS bo'yicha qo'yilgan talab B1 darajada bo'lib, o'quvchilar til va nutq malakalariga ega bo'lishlari lozim, ya'ni OTMga kirish imtihonlarida leksik va grammatik til materiallaridan test topshiriqlarini bajarishlari kerak bo'ladi.



O'quvchilarning yosh xususiyatlari, zamonaviy ta'lim texnologiyalariga bo'lgan ehtiyoj va talablar yuqoriligini inobatga olgan holda ularga o'z qiziqishlari asosida chet tillarni o'rgatish; ularning til va nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishda nafaqat verbal, balki kognitiv jarayonning sensorlik va namoyish qilish holatlariga ham diqqat qaratish, ularni qabul qilish, fikrlash, tasavvur qilish, xotirada saqlash kabi lingvopsixologik xususiyatlarni hisobga olish; chet til kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda multimediaviy o'quv vositalari yordamida interfaol aloqa o'rnatish va passiv o'quvchilarning faol, o'z fikrini erkin bayon etish ko'nikmasini shakllantirish orqali fanga bo'lgan motivatsiyasini uyg'otish samaralidir.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, chet tillarni masofaviy o'qitishni bitiruvchi o'quvchilarning psixolingvistik jihatlarini inobatga olgan holda tashkil etish jarayonida ular ongli fikrlay olish, tasniflash va o'z ustida mustaqil ishlash ko'nikmalarini, ya'ni o'z-o'zini nazorat qilish, natijalarni baholab borish, turli axborot manbalari bilan ishlab o'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyalarini shakllantirib boradilar. Ushbu davrda o'quvchilarni motivatsiya orqali ta'limga qiziqtirish muhim hisoblanib, bunda zamonaviy texnologiyalar katta yordam beradi.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Морев И.А. Образовательные информационные технологии, ч. 3. Дистанционное обучение: Учебное пособие. – Владивосток, 2004. – 150 с.

2. Muxitdinova M.R. Umumiy o'rta ta'lim bitiruvchi o'quvchilarini ingliz tiliga masofaviy o'qitishning usul va vositalari. Ped. fan. bo'y. fal. d-ri (PhD) ... diss. – Toshkent, 2021. 230-bet.

3. Урбина С. Psychological Testing – Психологическое тестирование, 7-е международное издание. – Санкт-Петербург: Питер, 2002. – 688 с.

Dildora YULDASHEVA,
O'zbekiston davlat jahon tillar universiteti
Ingliz tili amaliy aspektlar kafedrasi o'qituvchisi

TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT SOHASI TERMINLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Har bir xalqning asriy tajribasini o'zida mujassam etgan ona tilidagi lisoniy boyliklarni asrab qolish, ularni ilmiy jihatdan tahlil qilish, keyingi avlodlarga yetkazish hozirgi fan, xususan, tilshunoslik oldida turgan muhim vazifalardan hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda birinchi prezidentimiz I.A.Karimov aytganidek, "Xalqning milliy madaniyati va o'ziga xosligini ifoda etuvchi vosita bo'lmish o'zbek tili"da mavjud bo'lgan so'z va iboralar, atamalar va leksik boyliklarni o'rganish hamda lisoniy meros sifatida ilmiy tahlilini olib borish bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biridir. [1]

Ilm-fan, texnika taraqqiyotidagi keskin yuksalish va ishlab chiqarish, sanoatning jadal sur'atlarda rivojlanishi natijasida determinlashgan terminning tabiatiga nisbatan XIX asrda yuzaga kelgan ilmiy-falsafiy qiziqish bu kabi tadqiqotlar uchun zamin yaratdi. XVIII–XIX asrlarda terminologiya muammolari tilshunoslarning diqqat markazida bo'lishining asosiy sabablaridan biri terminlarning yaratilishi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi sababi ekstralingvistik omillarning terminologiyaga ta'siri bo'lgan. Biroq ularni terminologiyada uchrovchi sinonimiya va polisemiya muammolari, shuningdek, termin-leksemalar, gibrid terminlar va sof terminlarning kontekstdagi paradigmatik va sintakmatik munosabatlari, muayyan tushunchalar bilan o'zaro aloqalarning xilma-xilligi ko'proq o'ylantirgan. [2]

Tilshunoslik fani rivojlanib, o'z tadqiqot doirasini kengaytirgani sayin terminlarni o'rganish uning eng muhim va tarkibiy qismlaridan biriga aylandi. "Termin" va "terminologiya" masalalari yuzasidan ko'plab tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lib, turli ta'riflar berilgan. "Termin" leksemasi lotincha "terminus" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "oxir", "chek", "chegara", "tugash" degan ma'nolarni bildiradi. [3] P.Nishonovning ta'kidlashicha, "termin – tuzilishiga ko'ra so'z yoki so'z birikmasi bo'lib, semantikasi jihatidan maxsus soha doirasi bilan chegaralangan va shu sohaga oid tushunchani ifodalovchi leksik birlikdir". [4] Termin – mazmunan muayyan mantiqiy tushunchalar tizimidagi bir-biri bilan shartsiz ravishda (majburan) nisbatlanadigan (qiyoslanadigan) so'z. Terminning tilshunoslik obyekti sifatida belgilanishi va uning tizimli ravishda o'rganilishi "termin" tushunchasi izoh (definitsiya)larining shakllanishiga, terminning tavsiflanishiga, u bilan bog'liq muammolarning yechimlarini ishlab chiqilishi pirovardida terminshunoslik fanining yuzaga kelishiga turtki bo'ldi. Termin leksik-grammatik tushunchalar tizimidan qat'iy o'rin egalladi va til leksik-semantik tizimining "to'laqonli a'zosiga" aylandi.

A.Reformatskiy fikriga ko'ra, termin "shunchaki so'z" emas, balki u "noodatiy" yoki "yangi so'z" bo'lsin, uni "ratsionallashtirish" va hatto "o'ylab topish" mumkin bo'lsa ham u, eng avvalo, so'zdir, deya e'tirof etadi. [5] Bizningcha, termin o'z lingvistik tabiatiga ko'ra, adabiy til lug'aviy tizimining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, boshqa toifadagi so'zlardan ilmiy, texnikaviy yoxud boshqa kasbiy tushunchalarni aniq, ixcham ifodalashi va axborotga boyligi bilan ajralib turadi.

So'nggi yillarda termin so'zi bilan birgalikda "atama", "istiloh", "nomenklatura" so'zlari ham keng qo'llanib kelinmoqda. O'zbekiston milliy ensiklopediyasida keltirilishicha, "termin" so'zi bilan bir qatorda ayni ma'noda "atama", "istiloh" so'zlari ham qo'llanilmoqda. Lekin ular "termin" so'zining to'liq ma'nosini ifoda eta olmaydi. "Atama" so'zi keng ma'noda qo'llanilib, geografik obyektlar, atoqli nomlarga nisbatan qo'llanilsa, "istiloh" so'zini esa asosan tarixiy mavzulardagi matnlar (masalan: adabiyot tarixi, Sharq falsafasi va b.)da bemalol qo'llash mumkin. [6]

S.Usmonov fikriga ko'ra, "... atama so'zining ma'nosi termin so'zining ma'nosiga nisbatan keng bo'lib, u barcha narsalarning nomi sifatida tushuniladi, termin esa muayyan bir tor sohada qo'llanuvchi rasmiylashgan so'zdir. Shu ma'noda, termin tushunchasi "atama" tushunchasining ichiga kiruvchi ilmiy-lug'aviy birlikdir". [7]

O.Axmedov o'z tadqiqotida "termin", "atama", "istiloh", "nomenklatura" tushunchalarini farqlab, "terminlar aslida leksik-semantik jihatdan umumadabiy qolipga ega bo'lib, ular umumxalq tiliga muayyan terminologik tizim orqali o'tadi. Zero, terminlar va umumiste'moldagi so'zlar bir-birini to'ldiradigan leksik birliklardir", deya ta'kidlaydi. [8]

Terminologiyaga oid ishlarning barchasida u yoki bu sohaning muayyan tushunchalarini anglatadigan, definitsiyaga ega bo'lgan va, asosan, nominativ funksiyani bajaradigan birliklar termin hisoblanishi qayd etilgan. Har bir tilda bo'lganidek, o'zbek tilida ham u yoki bu tushunchani ifodalash uchun bir qancha usullardan foydalaniladi. Ular semantik yo'l hisobiga boyishi, morfologik usul bilan yasalishi, sintaktik yo'l bilan yasalishi mumkin.

So'zning semantik taraqqiyoti tilda yangi so'zning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi va terminologiyani boyitishga xizmat qiladi. Morfologik usul bilan termin yasashda o'zak-negizga so'z yasovchi qo'shimchalar qo'shiladi.

Aslida termin va oddiy so'zning farqli jihatlariga e'tibor qaratmoqchi bo'lsak, bu hodisalarga, o'sha soha bilan shug'ullangan tadqiqotchilarning fikrlariga nazar solish va shu asosda termin va oddiy so'z oppozitsiyasini hal qilish maqsadga muvofiqdir. Odatda, tadqiqotchilar terminlarning quyidagi belgilarini ko'rsatadilar:

1) termin bir ma'noli yoki bir ma'noli tendensiyaga ega;

2) termin aniq, nominativ funksiyaga ega bo'lib, unga emotsionallik, ekspressivlik, modallik funksiyalari xos emas. Termin o'zining bu xususiyatini kontekstda ham, kontekstdan tashqarida ham saqlaydi;

3) terminning ma'nosi tushunchaga tengdir;

4) termin stilistik jihatdan neytraldir;

5) terminologik leksika alohida sistemadir va hokazo. [9]

So'zning ma'nosini bilishda tarjimagacha qo'shimcha ishlar quyidagicha olib boriladi:

1) so'zning bir necha ma'nolari bo'yicha ishlash ko'nikmasi;

2) sinonim so'zlar va ularni nutqda qo'llanilishini farqlash ko'nikmasi;

3) so'zning antonimini bilgan holda so'zning ma'nosini topish ko'nikmasi;

4) aniq tarjimasi bo'lmaganda so'zning ma'nosini yozish ko'nikmasi;

5) so'z yasash asosida so'zni tushunish ko'nikmasi. [9]

Sohaviy terminlarning lingvistik tadqiqi bilan L.M.Alekseyeva, O.M.Karpova, T.R.Kiyak, R.B.Kobrin, I.S.Kudashev, V.M.Leychik, A.Adamska, D.X.Kadirbekova, N.A.Martinova, A.B.Adigeneeva, D.Kamchibekova, O.Axmedov, P.Nishonov, X.Paluanovalar shug'ullanishgan.

To'qimachilik va yengil sanoat sohasidagi terminlar bo'yicha tadqiqotlarni O.A.Nikolayeva, M.A.Soliyeva, A.V.Kuvshinova, T.V.Dolgova, P.S.Medvedeva, X.S.Yusupovalar tomonidan o'rganilgan.

Xulosa qilib aytganda, har qanday fan va texnika sohasiga doir terminologik ishlarning maqsadi uning muayyan fan sohasi va u bilan bog'liq mutaxassislarning o'zaro bir-birini tushunishlari, o'zaro hamkorligi, shu soha doirasida lug'atchilik, nashr ishlari, o'qish-o'qitish jarayonining sifatli bo'lishini ta'minlashdan iborat. Bu esa, o'z navbatida, terminologik tizimdagi har bir termin yagona aniq tushunchani anglatishi, o'zbek tili qonun-qoidalariga binoan yaratilishini taqozo etadi. To'qimachilik va yengil sanoat bo'yicha nashr etilgan darslik va qo'llanmalar, ilmiy, ilmiy-ommabop asarlar, lug'atlarda ishlatib kelinayotgan aksar terminlar o'zbek tilining ichki qonunlari asosida shakllanib, tushunchalarni aniq ifodalayotgani, bu esa o'qish-o'qitish jarayonining hozirgi talablar darajasida bo'lishiga yordam berayotganini ko'rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat. – Toshkent: O'zbekiston, 1999. 19-bet.
2. Sageder D. Terminology today: a science, an art or a practice? some aspects on terminology and its development Brno studies in English. Volume 36, No.1, 2010. – pp.123–134. http://www.phil.muni.cz/plonedata
3. Крысин Л.П. Толковый словарь иноязычных слов. – Москва, 1998. – 503 с.
4. Nishonov P. Fransuz va o'zbek tillari yuridik terminologiyasining qiyosiy-tipologik tadqiqi: Filol. fan. nom. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2009. 26-bet.
5. Реформатский А.А. Введение в языкознание. – Москва, 1967. – 274 с.
6. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T. 8. – Toshkent, 2004. 615-bet.
7. Usmonov S. Yuristning nutq madaniyati. – Toshkent, 2007. 233-bet.
8. Axmedov O.S. Ingliz va o'zbek tillarida soliq va bojxona terminlarining lingvistik tahlili va tarjima muammolari: Filol.fan.d-ri. ... diss. – Toshkent, 2016. 255-bet.
9. Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. 56-bet.

Dilnoza ABDUKABIROVA,
Chirchik State Pedagogical Institute of Tashkent Region, Faculty of Foreign Languages and Literature (English), a 2nd year master's student

MAIN TYPES OF PHRASEOLOGICAL UNITS AND THEIR PECULIARITIES

Phraseological units can be classified according to the ways they are formed, the degree of the motivation of their meaning, their structure and part-of-speech of their meaning. A.V.Kunin classified phraseological units according to the way they are formed, namely primary and secondary ways of forming phraseological units. As for A.I.Smirnitsky, he points out the following structural types:

a) attributive-nominal: *a month of Sundays, grey matter, a millstone round one's neck*, etc. Units of this type are noun equivalents and can be partly or perfectly idiomatic. In partly idiomatic units (phrases), sometimes the first component is idiomatic, e.g. *high road*. In other cases, the second component is idiomatic, e.g. *first night.* In many cases both components are idiomatic, e.g. *red tape, blind alley, bed of nail, shot in the arm*, etc.

b) verbal-nominal: *to read between the lines, to speak BBC, to sweep under the carpet,* etc. The grammatical centre of such units is the verb, the semantic centre in many cases is the nominal component, e.g. *to fall in love.* In some units, the verb is both the grammatical and semantic centre, e.g. *not to know the ropes.* These units can be perfectly idiomatic as well, e.g. *to burn one's boats, to vote with one's feet, to take to the cleaners',* etc.

Very close to such units are word-groups of the type *to have a glance, to have a smoke.* These units are not

idiomatic and are treated in grammar as a special syntactical combination, a kind of aspect.

c) phraseological repetitions: *now or never, part and parcel, country and western*, etc. Such units can be built on antonyms, e.g. *ups and downs, back and forth*; often they are formed by means of alliteration, e.g. *cakes and ale, as busy as a bee.* Components in repetitions are joined by means of conjunctions. These units are equivalents of adverbs or adjectives and have no grammatical centre. They can also be partly or perfectly idiomatic, e.g. *cool as a cucumber* (partly), *bread and butter* (perfectly).

Phraseological units can be classified as parts of speech. This classification was suggested by I.V.Arnold. Here we have the following groups:

a) noun phraseologisms denoting an object, a person, a living being, e.g. *bullet train, latchkey child, red-brick university, Green Berets;*

b) verb phraseologisms denoting an action, a state, a feeling, e.g. *to break the log-jam, to get on somebody's coattails, to be on the beam, to nose out, to make headlines;*

c) adjective phraseologisms denoting a quality, e.g. *loose as a goose, dull as lead;*

d) adverb phraseological units: *with a bump, in the soup, like a dream, like a dog with two tails;*

e) preposition phraseological units, e.g. *in the course of, on the stroke of;*

f) interjection phraseological units, e.g. *Catch me!, Well, I never!*

In I.V.Arnold's classification, there are also sentence equivalents, proverbs, sayings and quotations, e.g. *"The sky is the limit", "What makes him tick", "I am easy"*. Proverbs are usually metaphorical, e.g. *"Too many cooks spoil the broth",* while sayings are as a rule non-metaphorical, e.g. *"Where there is a will there is a way"*. Before discussing phraseology, it is necessary to outline the features common to various word-groups irrespective of the degree of structural and semantic cohesion of the component words.

There are two factors which are important in uniting words into word groups:

1) the lexical valency of words;

2) the grammatical valency of words.

Words are used in certain lexical contexts, i.e. in combinations with other words; the noun question is often combined with such adjectives as *vital, pressing, urgent, delicate,* etc. The aptness of a word to appear in various combinations is described as its lexical valency. The range of the lexical valency of words is delimited by the inner structure of English words. Thus, *to raise* and *to lift* are synonyms, but only the former is collocated with the noun question. The verbs *to take, to catch, to seize, to grasp* are synonyms, but they are found in different collocations:

to take – exams, measures, precautions, etc.;

to grasp – the truth, the meaning.

Words habitually collocated in speech tend to form a cliche.

Structurally, word groups can be considered in different ways. Word groups may be described as for the order and arrangement of the component-members. For example, the word group *to read a book* can be classified as a verbal-nominal group, *to look at smb* – as a verbal-prepositional-nominal group, etc.

By the criterion of distribution, all word groups may be divided into two big classes: according to their head words and according to their syntactical patterns. Word groups may be classified according to their head words into:

1) nominal groups: *red flower;*

2) adjective groups: *kind to people;*

3) verbal groups: *to speak well*.

The head is not necessarily the component that occurs first.

Word groups are classified according to their syntactical pattern into predicative and non-predicative groups. Such word groups as *he went, Bob walks* that have a syntactic structure similar to that of a sentence are termed as predicative, all others are non-predicative ones.

References:

1. Бушуй А.М. Текст как лингвистический объект // Преподавание языка и литературы, 2003, № 4.
2. Бушуй А.М. Сущность языка как проблема общей лингвистики. Тексты лекций. – Самарканд: СамГИИЯ, 2004.
3. Butaev Sh. English-Uzbek Dictionary. – Toshkent, 2006.
4. Жуков В.П. Семантика фразеологических оборотов. – Москва, 1990.
5. Кунин А.В. Английская фразеология. – Москва: Высшая школа, 1970.
6. Xolmuradov A., Azizov R. English-Uzbek, Uzbek-English Dictionary (online version). – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005.
7. www.wikipedia.com

Sayyora KABILOVA,
Pedagogical Institute of Termez State University

METAPHOR IN NEWSPAPERS

Metaphor is hotly debated and much researched by linguists. This may seem strange: why are linguists concerned with the stuff of poets? The answer has to do with cognitive linguistics, a powerful new way of looking at both language and thought – and with them metaphor. Unlike earlier models of language, which

considered language apart from other cognitive abilities, cognitive linguistics sees language as interacting with perception, memory and reasoning. It emphasizes that even seemingly arbitrary aspects of language, like choosing prepositions (why do you get *on* the bus but *in* the car?), have meaningful systematic underpinnings in thought. In 1980, Lakoff and Johnson published a seminal work on metaphor that would go on to set the direction of metaphor research for years to come. In their work, Lakoff and Johnson collected sets of systematically organized metaphorical language data that, it was claimed, reflect conventional thought structures in the human mind. Here is an example of such a set (1980, p.46, italics in original):

What he said left a bad *taste in my mouth*.

All this paper has in it are *raw facts, half-baked ideas, and warmed-over theories*.

There are too many facts here for me to *digest* them all.

I just can't *swallow* that claim.

That argument *smells fishy*.

Let me *stew* over that for a while.

Now there's a theory you can really *sink your teeth into*.

We need to let that idea *percolate* for a while.

That's *food for thought*.

He's a *voracious* reader.

We don't need to *spoon-feed* our students.

He *devoured* the book.

The expressions in italics do not refer to food in this context but are used to describe the more abstract topic of ideas. In each list item, one can see that an abstract, more complex and fuzzy concept – an idea – is structured in terms of a concrete, more familiar, simple and physical concept of food. These are expressions of metaphor in the sense of cognitive linguistics: metaphor is seen as the linguistic expression of a cross-domain mapping in thought – usually from a more concrete source domain (e.g. food) to a more abstract target domain (e.g. ideas). The patterns of thought underlying *linguistic* expressions are termed *conceptual* metaphors. The expressions themselves are referred to as linguistic metaphors. In the example above, the metaphorical expressions in italics are realizations of the conceptual metaphor Ideas are Food. Lakoff and Johnson took such systematic sets as evidence that we not only talk about one thing in terms of another, but that we also *think* in these terms. "Metaphors as linguistic expressions are possible precisely because there are metaphors in a person's conceptual system" (Lakoff & Johnson, 1980, p.6). Metaphors thus provide a window on the ways language is structured and on the ways in which we think and learn. In this view, they are no longer regarded merely as an element of poetry but are recognized as a central device in human thought. This is the reason metaphor has become such an important topic of linguistic research.

Lakoff and Johnson's work on conceptual metaphor created a whole new field of research within cognitive linguistics. As with much groundbreaking research, it also has been heavily criticized (e.g. Jackendoff & Aaron, 1991; Murphy, 1996, 1997; Steen, 1994; Verwaeke & Green, 1997; Verwaeke & Kennedy, 1996). One point of critique is their method of data collection: it is not clear how they accumulated the examples offered in support of their claims. The bulk of their examples seem to be constructed rather than found and are presented out of a larger context.

In this thesis I will take the view that to develop a deep understanding of metaphor, it is necessary to move beyond invented examples and decontextualized materials. If we want to understand how people use metaphorical language, its functions, in what kind of situations and in what ways it is used, how people understand metaphorical language and what kind of effects it might have on them, we need to look at real language as it is used and produced in everyday life. This focus on metaphorical language use by real people in real situations of use is only a recent phenomenon (Cameron, 2003; Charteris-Black, 2004; Cienki & Müller, 2008; Deignan, 2005; Koller, 2004; Semino, 2002).

There is a variety of prior work on metaphor in news. It has been investigated in very specific topics such as immigrant discourse (Santa Ana, 1999), or single articles (e.g. Kitis & Milapides, 1997 on ideology construction), and its use has been discussed for a range of subregisters such as business texts (e.g. Koller, 2004) or sports reporting (e.g. Charteris-Black, 2005). Other research has given detailed accounts of the use of selected samples of conceptual metaphors and/or metaphorical expressions (Heywood & Semino, 2007; Koller, 2004). Metaphorical language use in news as a register as a whole, however, has not yet been given due attention. Goatly (1997) created "metaphorical profiles" for several registers, giving estimates of the frequencies of a range of metaphorical phenomena in news texts. This had not been previously attempted, and was a worthwhile effort. How precisely his metaphorical data was collected, however, is not clear. This makes it difficult to draw general conclusions from that study.

In order to extract features of metaphorical language use that are characteristic of news texts, I will take a corpus-linguistic, quantitative approach. Though discourse analysts have not traditionally drawn comparisons to other texts or general corpora (Deignan, 2005, p.135), there is good reason to do so: a corpus analysis that compares the news register to other domains of discourse can reveal distinguishing features of metaphorical language in newspapers. The corpus I work with contains four registers – news texts, academic texts, fiction and conversation – and has been built using a systematic, explicit, repeatable method for metaphor identification. Chapters are devoted to the development of this protocol, which is a response to the vast amount of intuition-based metaphor research. It will also supplement quantitative methods with qualitative analysis. While a quantitative analysis can show general trends, a qualitative analysis of metaphorical language use is required to gain a better understanding of its functions in a larger discourse context.

With most studies of metaphor being concerned with analyzing artificial examples, short snippets of text,

a restricted selection of conceptual metaphors or a narrow topic of interest, the field remains in its infancy. In order to "grow up", it needs to make the leap from qualitative to quantitative research. And in order to do that, a large corpus of text annotated for metaphor is essential. Here we make that leap. Together with a small group of analysts, I have built a corpus of about 190,000 words comprising four registers taken from the BNC-Baby – a four-million-word sub corpus of the British National Corpus: these registers are news, academic texts, fiction, and conversation. In this thesis, the news register is singled out for particular attention. The other three registers receive similar treatment in a series of companion works (Dorst, in preparation; Herrmann, in preparation; Kaal, in preparation).

In order to build a corpus annotated for metaphorical language use it is not sufficient to take an "I-know-it-when-I-see-it" approach. Instead, it is necessary to have a clear set of rules for identifying metaphor. The Pragglejaz Group (2007, Peter Crisp, Ray Gibbs, Alan Cienki, Graham Low, Gerard Steen, Lynne Cameron, Elena Semino, Joe Grady, Alice Deignan, Zoltán Kövecses) has formulated such a set of instructions for identifying metaphorical language use in discourse. Their goal was to move away from intuition and to achieve reliable metaphor identification across analysts. My study aims at quantifying metaphorical language and answering questions like: how common is metaphorical language in newspapers and how does its frequency compare to that of other registers? Which metaphor forms are most common? Which word class is typically metaphorically used? And so on. Moreover, my study will describe the use and function of metaphor in newspaper texts and will test whether people create metaphorical schemas when reading metaphorical expressions in press reports. This host of important questions cannot be addressed without a solid database.

Analysts systematically collected metaphorically used expressions by applying the Pragglejaz protocol and monitored their performance through reliability tests. The resulting database is a unique effort to add validity and comparability to metaphor research. It forms the backbone for all ensuing analysis. To my knowledge this is the first study to describe the characteristics of metaphorical language in newspapers in comparison to other registers that is based on a corpus annotated for metaphorical language use on the basis of an explicit, reliable procedure.

News texts have served as a rich source of data for metaphor analysis. However, I am aware of no previous work focusing on the identification of linguistic metaphors themselves in this type of discourse. Since linguistic metaphors often serve as a basis for further linguistic, conceptual, and communicative analysis, a reliable identification procedure, as well as an understanding of how it works within the news register, is essential.

Linguistic metaphor identification in news articles is relatively straightforward. General world knowledge is sufficient to understand the meaning of a news text, specialized terms are rare and the discourse is coherent. Indeed, only 5.1% of the lexical units in a series of reliability tests, performed by four analysts, did not receive unanimous inter-coder agreement, which is the lowest of all four registers in our data. Of this already low metaphor identification in news texts 81 percentage, the majority of cases of disagreement can be attributed to coder error.

The application of our procedure to newspaper discourse has unveiled very few difficult or ambiguous cases. These few remaining items, though they may seem challenging at first, can generally be solved in a reliable and consistent manner. For each of the core steps of the identification procedure I have demonstrated a series of difficult examples that have surfaced when applying MIP to bulk news data, along with their possible solutions, which helped create our more elaborate tool for metaphor identification, MIPVU. This is not meant to suggest that the analyses are free of error. Instead, it should be possible to detect remaining errors fairly easily against the explicit set of assumptions formulated in MIPVU.

Though there are those cases that need a more elaborate decision process, I emphasize that, once an analyst is familiar with MIPVU, the metaphorical status of a lexical unit can be judged quickly for the majority of lexical items in news texts. The examples offered have pointed out that even complex cases can be approached in a systematic and reliable manner. By following a consistent decision process, the number of borderline cases can be kept low, which reduces the level of potential error and noise in subsequent quantitative analysis. The challenging examples are not a setback, as they have guided the design of MIPVU, a procedure capable of dealing with subtler cases.

References:

1. Allbritton D.W. (1995). When metaphors function as schemas: Some cognitive effects of conceptual metaphors // Metaphor & Symbol, 10(1), 33-46.
2. Allbritton D.W., McKoon G. & Gerrig R.J. (1995). Metaphor-based schemas and text representations: Making connections through conceptual metaphors // Journal of Experimental Psychology: Learning, Memory and Cognition, 21(3), 612-625.
3. Anderson A.R. & Nicholson L. (2005). News and nuances of the entrepreneurial myth and metaphor: linguistic games in entrepreneurial sense-making and sense-giving // Entrepreneurship: Theory and Practice, 29(2), 153-172.
4. Anderson R.C., Reynolds R.E., Schallert D.L. & Goetz E.T. (1977). Frameworks for comprehending discourse // American Educational Research Journal, 14(4), 367-381.
5. Steen G.J., Dorst A.G., Kaal A.A., Herrmann J.B. & Krennmayr T. (2010). A method for linguistic metaphor identification: From MIP to MIPVU. – Amsterdam: Benjamins.
6. Tendahl M. & Gibbs R.W. (2008). Complementary perspectives on metaphor: Cognitive linguistics and relevance theory // Journal of Pragmatics, 40(11), 1823-1864.

7. Thibodeau P. & Durgin F.H. (2008). Productive figurative communication: Conventional metaphors facilitate the comprehension of related novel.
8. Archer D. Wilson A. & Rayson P. (2002). Introduction to the USAS category system. Benedict project report, October 2002.
9. Baggett P. (1975). Memory for explicit and implicit information in picture stories // Journal of Verbal Learning and Verbal Behavior, 14, 538-548.
10. Barclay J.R., Bransford J.D., Franks J.J., McCarrell N.S. & Nitsch K. (1974). Comprehension and semantic flexibility // Journal of Verbal Learning 13, 471-481.
11. Bell A. (1991). The language of news media. – Oxford: Blackwell.

Tarjimashunoslik

Saida SULTANOVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Ingliz tilini o'qitish metodikasi va ta'lim texnologiyalari kafedrasi katta o'qituvchisi

ZAMONAVIY ILMIY-USLUBIY ADABIYOTLARDA TALABALARNI BADIIY TARJIMAGA O'RGATISH MASALALARI

Bugungi kunda har tomonlama yetuk, jahon andozalari talablariga javob bera oladigan malakali mutaxassislar tayyorlash masalasi ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Tarjimaga o'rgatish metodikasi nazariyachi olimlar va amaliyotchilarning professional tarjimonlar tayyorlash masalasiga tobora e'tiborini tortib kelmoqda. Professional darajadagi tarjimonlarni tayyorlashda og'zaki va yozma tarjimaga o'rgatish mashg'ulotlari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, pedagog va talabalardan jiddiy yondashuvni talab etadi.

Badiiy tarjima ijodiy faoliyatning o'ziga xos bir murakkab shakli, desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu faoliyatda yaratilgan asl badiiy asar shakl va mazmuni, o'ziga xos barcha milliy va madaniy komponentlari saqlangan holda o'zga til vositalari asosida qayta yaratiladi. Bu jarayon tarjimondan katta mahorat va qobiliyatni talab etadi. Badiiy tarjima ana shunday murakkab ijodiy jarayondir.

Jamiyatda badiiy tarjimaning ahamiyati beqiyos. Badiiy adabiyot jahon taraqqiyoti, xalqlar o'rtasidagi do'stlik va qardoshlik munosabatlari, shuningdek, madaniy va adabiy aloqalarning kengayishiga xizmat qiladi. Bu jarayonlarning barchasi "badiiy tarjima"da o'z aksini topadi. Shu munosabat bilan badiiy asarlarni tarjima qilishga o'rgatish, ya'ni badiiy tarjimani o'qitish metodologiyasi bo'lajak tarjimonga tarjima mahoratini shakllantirish masalasini hal qilishda yordam beradi. Bunda tarjimonga o'zga madaniyatni to'laqonli ravishda, muallifning uslubini saqlab qolgan holda yoritib berish o'rgatilib, uning kasbiy kompetensiyasi shakllantiriladi.

Mahoratli va yetuk tarjimonlarni tayyorlashda ilmiy va uslubiy adabiyotlar yetakchi o'rin egallaydi, zero, ilmiy va uslubiy adabiyotlar tarjima, ta'lim va tarbiya yo'nalishlarida olib borilgan bir qator ilmiy izlanishlar mahsulidir.

O'tgan asrning 50-yillarida badiiy tarjimani ilm sifatida tadqiq etish boshlandi. Bunda olimlarning xizmati katta bo'ldi. Tarjimashunoslik keng rivojlanib, o'ziga xos ilmiy maktab yuzaga keldi.

Badiiy tarjimada tarjima mahoratini shakllantirish masalalarini o'rganish G'.Salomov, I.G'ofurov, A.Muminov, R.A.Yusupov, T.A.Kazakova, V.N.Komissarov, K.Latishev, R.K.Minyar-Beloruchev, A.V.Fedorov, I.I.Xaleyeva, A.D.Shveyser, S.Bassnet, M.Beyker, P.Nyumark kabi olimlar va boshqa tadqiqotchilar ilmiy izlanishlari va adabiyotlarida o'z aksini topgan. Ushbu izlanishlar nazariy-metodologik ahamiyatga ega bo'lib, ko'p yillar davomida badiiy tarjimaga o'rgatishga salmoqli hissa qo'shib kelmoqda.

Tarjima nazariyasi asoschisi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, Xalqaro Bobur mukofoti laureati, filologiya fanlari doktori, professor G'aybulla Salomov o'zining butun ilmiy faoliyatini tarjimonlikni o'rganib, uni alohida fan sifatida shakllantirishga bag'ishlagan salohiyatli olim hisoblanadi. O'zbek tilining chuqur bilimdoni, uslubshunos va qiyosiy adabiyotshunoslikdan ishlar yaratgan G'.Salomov tarjima nazariyasi, tarixi va tanqidini birga baqamti olib rivojlantirdi, uning ishlari tufayli O'zbekistonda o'ziga xos tarjimashunoslik kelib shakllandi. G'.Salomovning "Badiiy tarjimaning nazariy-uslubiy muammolari va tarjima aniqligi masalalari" mavzusida bajargan doktorlik dissertasiyasi katta ahamiyatga molik. [1]

G'.Salomov tarjima nazariyasini umummilliy madaniyatning tarkibiy qismi hisoblab, til taraqqiyoti, adabiy hayot, davr ruhini inobatga olish haqida ta'lim berib keldi. Shuni aytish kerakki, sobiq Ittifoq olimlari orasida tarjima hodisasiga oid turli qarashlar bor edi: bir guruh olimlar tarjimani faqat lisoniy (til) hodisa deb o'rganar, boshqalari buni inkor qilib, badiiy tarjimani adabiy-estetik hodisa sifatida tadqiq etar edilar. Tarjima uslubi, tarjimon mahorati masalalari ham bahsli edi.

Professor G'.Salomov birinchilardan bo'lib bu ikki yo'nalishni qo'shdi, ya'ni tarjima ham lisoniy, ham badiiy hodisa ekanini ilmiy isbotladi.

Professor G'.Salomovning tarjima ham lisoniy, ham badiiy hodisa ekanligi xususidagi fikri chuqur ma'no kasb etib, bugungi kunda bu fikr o'zining to'laqonli ifodasini topdi, degan fikrdamiz. Badiiy tarjimaga o'rgatishda nafaqat adabiy-estetik sifatlar, balki lisoniy xususiyatlar ham shakllantirib borilishi lozim. Tarjimashunoslik – umumfilologik ilm, uni bir soha bilan chegaralab qo'yish noo'rin, degan fikrni ilgari suradi professor G'aybulla Salomov. Darhaqiqat, tarjimashunoslik tilshunoslik, pedagogika, metodika, didaktika, lingvodidaktika kabi sohalar bilan uzviy bogliq. Adabiy-estetik sifatlar va lisoniy xususiyatlar shakllantirib borilishida lingvodidaktik asoslar muhim ahamiyat kasb etadi.

Yozuvchi-tarjimon, tanqidchi, filologiya fanlari nomzodi Ibrohim G'afurov badiiy tarjima xususida so'z yuritar ekan, shunday fikrni ilgari suradi: "Tarjimani ijodkorlik deb qarash undan aniqlik talab qilmaslik kerak ekan-da, degan ma'no chiqarishga hech qachon asos bermaydi. Tarjimadan agar aniqlik, nazariya tili bilan aytganda, adekvatlik talab qilinmasa, bu tarjimonni butunlay noto'g'ri yo'nalishga olib kirib ketadi. Aniqlik talab qilmaslik tarjimada istagancha yo'rg'alashlar va "olib qochishlar"ga, ayniqsa, she'riy tarjimalarda sabab bo'ladi va yo'l ochadi. Aniqlik – har qanday tarjimaning bosh mezoni. Aniqlik bo'lgandagina ekvivalentlik va uning turlari ravshan tus oladi. Aniqlik bilan ekvivalentliklar bir-birlari bilan g'oyatda nozik bog'lanishlar bilan chirmashib ketadi". [2]

Ibrohim G'afurovning fikri g'oyatda teran. Yozma tarjimaning badiiy tarjima yo'nalishi ham og'zaki tarjima yo'nalishlari kabi aniqlikni talab etadi. Qanday tarjima bo'lmasin unda aniqlik saqlanib qolishi lozim. Adekvatlik tarjima jarayonining eng muhim va dolzarb masalalaridan. Badiiy tarjimada ham adekvatlikka erishish yo'llarini chuqur o'rgatish, muallif uslubi va g'oyasini saqlab qolish birlamchi masala ekanligi bo'lajak tarjimonlarga singdirilishi kerak. Masalan, asliyatdagi bir iboraning o'zga tilda bir necha ekvivalenti bo'lishi mumkin, adekvat ravishda yondashib tanlangan ekvivalent asar ruhiyatini saqlab qoladi va asarni qisman, ba'zi bir hollarda butunlay o'zgarib ketish hollarining oldini oladi. Adekvat tarjima tarjimondan jarayonga tegishli bilimlardan talab darajasida xabardor bo'lishni taqozo etadi.

Sovet, keyinchalik rus, tarjima maktabining asosiy xususiyatlaridan biri uning aniq didaktik yo'naltirilganligida. Olib borilgan tarjima tadqiqotlarining maqsadi ushbu intellektual faoliyat turi mohiyatini, keyinchalik, tarjimonlar tayyorlashni yanada samaraliroq qilishga imkon beradigan didaktik modellarni yaratishdir.

V.N.Komissarov oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislar, professional tarjimonlar tayyorlash bo'yicha tarjimaga o'rgatish metodikasini ishlab chiqdi. Komissarov tomonidan yaratilgan o'quv adabiyoti tarjima mashg'ulotlarini tashkil etishning asosiy tamoyillari, tarjimonning kasbiy mahorati, tarjima fani o'qituvchisining kasbiy mahorati, tarjimaga o'rgatishga oid mashqlar, tarjimada matn bilan ishlashga o'rgatish metodikasi, tarjimaga o'rgatish metodikasi kabi masalalarni yoritib berdi; talabalar nafaqat ikki tilni mukammal bilishlari, balki keng ko'lamda tilshunoslik va filologiya masalalariga oid bilimga ham ega bo'lishlari lozimligiga urg'u berdi. [3]

Komissarov o'z ilmiy izlanishlaridan kelib chiqqan holda o'quv mashqlari qobiliyatni shakllantirishda yetakchi omil bo'lib, o'quv materiallarini tanlash va tarjimaga o'rgatilayotgan talabalar fikrini ma'lum bir tarjima masalalariga jamlash imkonini beradi deb ta'kidlaydi. Biz bu fikrga to'laqonli ravishda qo'shilamiz. Darhaqiqat, o'quv mashqlari kasbiy mahoratni shakllantirishda va masalalarga aniqlik kiritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

R.A.Yusupov birinchilardan bo'lib tarjima asoslarining ilmiy konsepsiyasini ishlab chiqib, tarjima nazariyasi va amaliyoti fanini oliy o'quv yurtlari o'quv jarayoniga kiritdi. Olimning "Введение в теорию перевода" nomli o'quv adabiyotida rus tilidan tatar tiliga tarjima qilsishning muhim masalalari xususida so'z yuritadi. Mazkur o'quv adabiyotida tarjima faoliyatining qisqacha tarixi, tarjimaning asosiy tamoyillari, tarjimada moslashuv masalalari, tarjimada leksik ifoda vositalarining qayta yaratilishi va tarjima jarayonida tilning rivojlanishi kabi masalalar o'z ifodasini topgan. [4]

Olimning fikriga ko'ra tarjima jarayonida o'rganilayotgan xorijiy til yanada rivojlanadi, badiiy tarjimada leksik ifoda vositalari til xususiyatlari va madaniyatdan kelib chiqqan holda va mos ravishda qayta yaratiladi. Biz olimning fikriga to'liq qo'shilamiz, chunki tarjima jarayonida tilni o'rgatish yoki tilni o'zlashtirish darajasi ortadi. Xorijiy tilni o'rgatishda A1, A2, B1, B2, C1, C2 kabi darajalar mavjud. Tarjima jarayonida tarjimaga o'rgatish orqali darajani oshirish imkoniyati mavjud bo'lib, bu o'rinda ta'limning lingvodidaktik asoslari yetakchi omil hisoblanadi.

Tarjima nazariyasi va amaliyotiga katta hissa qo'shgan tarjimon va pedagog, zamonaviy tarjimashunoslik va tarjimaga o'rgatish maktabi asoschisi, pedagogika fanlari doktori va professor Minyar-Beloruchev muallifligida yaratilgan tarjima nazariyasi va tarjimaga o'rgatish metodikasiga oid ko'plab ilmiy ishlar salmoqli ahamiyatga ega. Muallifning "Как стать переводчиком?" (1999) va "Теория и методы перевода" (1996) nomli kitoblarida badiiy tarjima va badiiy tarjimaga o'rgatish masalalari xususida ham so'z yuritiladi. "Как стать переводчиком?" kitobining amaliy qismida tarjima ko'nikmalarini rivojlantirish va shakllantirish bo'yicha mashq va ko'rsatmalar o'z aksini topgan bo'lib, ular tarjimaga o'rgatishda muhim rol o'ynaydi.

Minyar-Beloruchev "Теория и методы перевода" nomli kitobida badiiy tarjimaga alohida urg'u berib, o'quv muassasalarida tarjimonlarni tayyorlash jarayonini keng qamrovda ochib bergan va bu, o'z navbatida, badiiy tarjima yo'nalishi shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Muallifning fikr-mulohazalari bilan tanishar ekanmiz, uning bir fikri e'tiborimizni tortadi: "Tarjimaning past-u-balandliklarini yengib o'tishda tarjimon muallifga nisbatan yorqin qobiliyat egasi bo'lishi lozim va bu qobiliyatning o'rnini maxsus ta'lim muassasasidagi hech qanday maktab va pedagoglar bosa olmaydi". [5]

Ha, albatta, tarjimon yorqin qobiliyat egasi bo'lishi maqsadga muvofiq, biroq har qanday mahoratli va qobiliyatli tarjimon ham tarjima maktabini bosib o'tishi va pedagoglar maslahati va ko'magida yanada shakl-

lanishi ayni muddaodir, ya'ni bu jarayonda qobiliyatli tarjimonni olmosga o'xshatsak, ishlov berilgan olmos yanada yorqinlashib mukammallik darajasiga yetadi. Bizning fikrimizcha, har qanday kasb egalari shakllanishida maxsus maktab va pedagoglar katta ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umirov S. Ajoyib kishilar hayoti. Sollanib oqayotgan daryo (Olim, muallim, mutarjim, muharrir, noshir, shoir va maqolanavis inson G'aybulla As-Salom porteretiga chizgilar). – Toshkent: Fan, 1992.
2. G'afurov I. Tarjimada aniqlik kerakmasmi? // "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, 2010-yil, 8-son.
3. Комиссаров В. Теоретические основы методики обучения переводу. – Москва: Рема, 1997. – 112 с.
4. Юсупов Р. Введение в теорию перевода. – Казань, 1972. – 88 с.
5. Белоручев М. Теория и методы перевода. – Москва, 1996. – С. 179.

Tadqiqotlar



Dilnoza MAMATOVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti doktoranti

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI OSHIRUVCHI OMILLAR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini oshirishda hal qiluvchi omillarning ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan keng yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *kompetensiya, kompetentlik, o'qituvchining kasbiy kompetentligi, kompetentlik yondashuvi, omillar, maktabgacha ta'lim, shaxsiy sifatlar.*

Annotation. In this article, the significance of the decisive factors in increasing the professional competency of teachers of pre-school educational organizations has been widely covered scientifically and theoretically.

Keywords: competence, competency, teacher's professional competency, competency-based approach, factors, preschool education, personal qualities.

Аннотация. *В данной статье в научно-теоретическом аспекте широко освещено значение решающих факторов в повышении профессиональной компетентности педагогов дошкольных образовательных организаций.*

Ключевые слова: *компетенция, компетентность, профессиональная компетентность учителя, компетентностный подход, факторы, дошкольное образование, личностные качества.*

Ta'lim jarayonida o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish uchun tashkiliy-pedagogik harakatning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish "o'qituvchi-tarbiyachi" va "o'qituvchining kasbiy mahorati" kabi asosiy tushunchalarning pedagogik mazmunini aniqlashdagi asosiy yondashuvlarni dastlabki tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Tadqiqot muammolarini hal qilish uchun "o'qituvchi-tarbiyachi" tushunchasining mohiyatini ochib beruvchi ilmiy manbalarda keltirilgan konseptual qoidalarni ko'rib chiqish lozim. Shuningdek, hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatda o'qituvchi-pedagog xodimlar faoliyati doirasida hal qilib bo'lmaydigan murakkab muammo va vazifalar taqdim etilmoqda.

O'qituvchining pozitsiyasi – shaxsning o'z-o'zini aniqlash natijasi, pedagogik faoliyatida asosiy tarbiyaviy qadriyatlarni amalga oshirish hisoblanadi. Pedagogik pozitsiya o'qituvchi-pedagoglarning pedagogik faoliyati shaxsiy va kasbiy qadriyatlar, ma'nolarni amalga oshirish bo'lsa, kasbiy rivojlanishga sotsiologik yondashuv tamoyillariga asoslanadi.

Pedagogik voqelikning eng muhim transformatsiyasi o'qituvchi-pedagogning yaqin va uzoq istiqbollari uchun ularning kasbiy va shaxsiy rivojlanish strategiyalarini mustaqil loyihalashdir. Bu narsa pedagogni shaxsiy kasbiy salohiyati, bolaga bo'lgan muhabbati tufayli intuitiv ravishda tarbiyaviy ta'sir ko'rsatuvchi shaxsdan ajratish imkonini beradi.

Kompetentlik va kompetensiya tushunchalari ilmiy muammo sifatida hozirgi kunda aniq ta'rifga ega emas va to'liq tahlil qilinmagan. Zamonaviy psixologik-pedagogik adabiyotlarda o'qituvchilar kasbiy kompetensiyasi tushunchasida kasbiy-tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish bilan bog'liq juda keng ko'lamli ilmiy-tadqiqot ishlari keltirilgan. Malaka oshirish jarayonida ishtirok etuvchi o'qituvchi-pedagogning kasbiy-tarbiyaviy faoliyati deganda ularning o'quv tajribasi va kasbiy mahoratini rivojlantirish uchun maqsadli tashkil etilgan tadbirlar tushuniladi. Shu munosabat bilan kurslarda yoki o'z ish joyida malaka oshirish jarayoniga jalb qilingan o'qituv-

chi o'z ta'limini davom ettirib, shaxsiy o'z-o'zini tarbiyalash va malaka oshirish jarayonlarida ishtirok etadi. Shunday qilib, uning ta'lim berish jarayoni o'z-o'zini professional boshqarish, o'z-o'zini tushuna olish, professional mahorat va ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Ko'pchilik olimlar fikricha, uzluksiz ta'limning muhim vazifalaridan biri pedagog-o'qituvchilarning o'z-o'zini takomillashtirish, faollashtirish, rivojlantirish jarayoni, o'z navbatida, muassasalarning malakasini oshirish tizimiga bog'liq. Bunga maqsadlarni qayta yo'naltirish, mazmunni boyitish va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tashkiliy shakllarining xilma-xilligi orqali erishish mumkin.

Kasbiy kompetentlik – o'qituvchi-tarbiyachi tomonidan to'plangan pedagogik tajribaning yagona xususiyati. Bu ifodada o'qituvchi-pedagoglarning kasbiy kompetensiyasi malaka oshirish jarayonida namoyon bo'lishini qayd etish mumkin. O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini har tomonlama psixologik-pedagogik diagnostika qilish asosida biz o'qituvchilar uning professional va shaxsiy ontogenezida muhim dinamik rivojlanish yo'li bo'lgan va ta'lim tajribasi bosqichiga erishgan amaliyotchilarning tajribasini farqlashimiz mumkin. Kasbiy pedagogik tajribani to'plash va boyitish bilan o'qituvchi-pedagoglarning kasbiy kompetensiyasi, uning xususiyatlari va sifatlari o'zgarib boradi, binobarin, "kasbiy kompetensiya"ning psixologik-pedagogik fenomeni rivojlanishining pedagogik mexanizmi o'zgarishiga sabab bo'ladi.

Markaziy Osiyoda qadimdan jamiyatning eng munosib aql-idroki shu faoliyatga jalb etilgan. Bu esa yosh avlod ta'lim-tarbiyasining jamiyat taraqqiyoti yo'nalishini belgilashda naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Bugungi kunda ta'lim berish tamoyillari va qonuniyatlarini ijodiy qo'llash, asrlar davomida shakllangan va pedagog-psixolog mutaxassislar tomonidan qo'llanilayotgan ilmiy bilimlar g'oyalari, nazariyalari va qonuniyatlarini amaliyotda qo'llash katta ahamiyatga ega. Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Kaykovus, Zamaxshariy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Jaloliddin Davoniy, Husayn Voiz al-Koshiy kabi uyg'onish davri allomalarining asarlari o'qituvchilik kasbining nozikligi, mas'uliyati, murakkabligi, shuningdek, sharafliligi, pedagogik mahorat, unga qo'yiladigan talablarni to'g'ri tushunish zarurligini ko'rsatadi. Bu allomalarning ijodiy merosi hanuzga qadar yosh o'qituvchilar uchun pedagogik mahorat va tafakkurni shakllantirishda muhim manba hisoblanadi.

Mamlakatimizda o'qituvchilar yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga mas'ul shaxs, yurtimizning porloq kelajagini quruvchilar etib belgilangan. Shundan kelib chiqib, M.Xushnazarovaning ilmiy tadqiqot ishlarida maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish, takomillashtirish maqsadida maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagoglarining kasbiy kompetensiyasini oshirishning uslubiy-didaktik ta'minoti, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish metodikasi, "Ilk qadam" tayanch dasturi va "Ilmga yo'l" variativ dasturida belgilangan talablar bilan uzluksiz malaka oshirish jarayonini tashkil etishning kooperativ hamkorligi asosida innovatsion texnologiyalar tizimlashtirilgan. [4: 7] Sh.Primovning ilmiy izlanishlarida bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetentligini lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik komponentlarning darajali bosqichlarini aniqlash orqali takomillashtirish masalalari aks etgan. [5: 8] S.Raximova tomonidan maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog-xodimlari malakasini oshirishning pedagogik shart-sharoitlari aniqlanib, malaka oshirish kurslarining mazmuni xalqaro me'yorlar va davlat talablari asosida integratsiyalashtirilgan, zamonaviy axborot-ta'lim bazasini ishlab chiqish yo'llari ko'rsatilgan. Bundan tashqari, malaka oshirish natijalari asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog-xodimlari kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarining sifat va samaradorligini innovatsion baholash tizimi tajribada sinovdan o'tkazilgan. [6: 8]

A.S.Makarenko birinchi bo'lib pedagogikada mahorat masalasini to'liq ko'targan. Makarenkoga ko'ra o'qituvchining mahorati murakkab bilim va ko'nikmalar majmuasidir. Unda birinchi o'rinda tashkilotchining mahorati turadi. Makarenko tarbiyaviy ishlar, birinchi navbatda, tashkilotchining ishi ekanligini bir necha bor ta'kidlagan. Bu xulosa esa shaxs tarbiyasi va rivojlanishini to'g'ri tushunishdan, ta'lim jamoasi tushunchasidan kelib chiqadi. Tarbiyachi, albatta, tarbiyalashni istasa, bolalarning pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq hayotini tashkil etish, jamoani tashkil etish, ularga rahbarlik qilishga chaqiriladi. Buning uchun u yaxshi tashkilotchi bo'lishi kerak. Bu pedagogik mahoratning birinchi tarkibiy qismidir. Lekin bu yetarli emas. Tarbiyachi doimo o'qituvchi va murabbiydir.

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarni uch guruhga bo'lish mumkin: yetakchi faoliyatdagi o'zgarishlar, rivojlanishning ijtimoiy holati va shaxsning subyektivligini ko'rsatish.

Yetakchi faoliyatning o'zgarish omillari guruhiga quyidagilar kiradi: yetakchi faoliyatning o'zgarishi, faoliyatni amalga oshirish usulining o'zgarishi, xususan, uning takomillashuvi. Bu omillar kasbiy kompetentlikning faoliyat komponenti rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Kasbiy shakllanish jarayonida yetakchi faoliyatning o'zgarishi kasbiy tayyorgarlik va kasbiy moslashish bosqichlarida sodir bo'ladi. Shuningdek, o'qituvchining malakasini oshirish bilan bu omil o'zining belgilovchi ahamiyatini yo'qotadi. Voyaga yetishda aqliy rivojlanish shu faoliyat doirasida yuz berishiga shubha yo'q. Shuning uchun keyingi omil amaldagi faoliyat doirasida bir xil professional faoliyat hisoblanadi (B.G.Ananev, E.F.Zeyer, E.A.Klimov, A.K.Markova). Birlamchi professionallashuv bosqichida faoliyatni amalga oshirish usuli me'yoriy va tasdiqlangan xarakterga ega bo'lib,

ikkilamchi professionallashuv yoki mahorat bosqichida individual ijodiy yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda sifat o'zgarishlari ish tajribasining oshishi bilan sodir bo'ladi, degan xulosaga kelish imkonini beradi. Kasbiy faoliyatni amalga oshirish yo'llarini takomillashtirish (yangi o'quv dasturlari, texnologiyalar va boshqalarni joriy etish) ham kasbiy kompetentlik rivojlanishiga olib keladi.

Hozirgi kunda ta'lim tizimida ro'y berayotgan o'zgarishlar mutaxassis o'qituvchining kasbiy mahorati darajasiga yangi talablarni qo'ymoqda. Innovatsion o'zgarishlarga muvofiq kasbiy kompetentlikni rivojlantiradigan o'qituvchilar raqobatbardosh bo'ladi. Kasbiy faoliyat bilan mashg'ul bo'lish natijasida ijtimoiy-kasbiy sotsiolingvistik muhitni kengaytirish ham kasbiy kompetentlikni rivojlantirish omiliga aylanishi mumkin.

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning sotsiolingvistik omili kasbiy rejalarni amalga oshirishdagi tasodifiy hodisa va holatlar (masalan, yashash joyini majburiy o'zgartirish, ish joyini qisqartirish va boshqalar) bilan bog'liq bo'lib, ular kasbiy hayotning odatiy kechishini izdan chiqaradi, ruhiy zo'riqish, bezovtalik hosil qiladi, oldingi vaziyatning mumkin emasligi holatini yaratadi va boshqa tomondan kasbiy rivojlanishdagi o'zgarishlarga undaydi. Natijada o'qituvchi o'zi uchun yangi sohalarda (masalan, bugungi kunda ta'lim muassasasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lgan qo'shimcha ta'lim sohasida) o'z bilimlarini qo'llashni izlashga majbur bo'ladi. Shunga ko'ra bu undan muloqot qobiliyatidan faol foydalanishni talab etadi.

Uchinchi guruh omillar shaxs rivojlanishining ichki shart-sharoitlari va o'z-o'zini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan faoliyatdan kelib chiqqan holda insonning subyektivlik xususiyatlaridir. Bunday xususiyatlar sifatida biz quyidagilarni aniqladik: ijtimoiy-kasbiy faoliyatning ortishi, shaxs ehtiyojlaridan qoniqmaslik, kasbiy o'z-o'zini aniqlashga tayyorlik, o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini anglashga intilish, rivojlanishdan to'xtamaslik hissi.

Kasbiy kompetentlik rivojlanishini belgilovchi muhim omillardan yana biri ijtimoiy va kasbiy faoliyat bo'lib, bunda o'qituvchi rivojlanadi, o'z ustida ishlaydi, faollikni rivojlantiradi. Biroq agar faoliyat qat'iy tartibga solina boshlansa, bu vaziyatda faollik darajasi yuqori bo'lgan odam eng kuchli bezovtalikni, ish joyidagi mavqeyidan qoniqmaslikni boshdan kechiradi. Bu holat ba'zan "o'z-o'zini yo'qotish" deb ataladi. [7: 128] O'qituvchilarning eng go'zal fazilatlaridan biri – kamtarlik. O'qituvchi kasbiy faoliyatiga baho berishda, avvalo, uning go'zal xulqi, tarbiyasi, jamoa oldida o'zini tutishi, bolalarga o'z farzandi kabi muomala qilishiga e'tibor berilmog'i lozim. Shaxsiy komponentning rivojlanishi uchinchi guruh omillar – shaxsning subyektivligi (ijtimoiy-kasbiy faoliyatning ortishi, kasbiy o'z-o'zini aniqlashga tayyorlik, o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini anglash istagi, rivojlanishda to'xtash subyektiv hissi) bilan bog'liq.

Aniqlangan omillar orasida eng muhimi, avvalo, ta'lim muhitining shart-sharoitlari, ya'ni uning innovatsion xususiyatidir. Zero, o'qituvchining kasbiy faoliyatni faol bajarishga qo'shilishini o'z ichiga olgan innovatsion ta'lim muhiti bo'lib, o'z navbatida, u kasbiy kompetentlikni rivojlantirishni nazarda tutadi.

Hozirgi kunda ta'limning yangi mazmunini shakllantirish, yangi ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish, yangi dasturlarni o'zlashtirish usullari va metodlaridan foydalanish, o'quv jarayonida bolalarning o'z-o'zini aniqlashi uchun sharoit yaratish, mutaxassis o'qituvchi va bolalarning fikrlash uslubini hamda ular o'rtasidagi munosabatlarni o'zgartirish, ta'lim muassasalarida ijodiy innovatsion muhit yaratish va rivojlantirish muhim masala bo'lib qolmoqda. Ta'kidlash lozimki, o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish, shakllantirish birgina o'qituvchining o'ziga emas, balki u faoliyat yuritayotgan tashkilot, tizim va ijodiy muhitga ham bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Григорьева А.И. Педагог как профессиональный воспитатель. – Тула: Изд-во Тул. гос. пед. ун-та, 1999. – 100 с.
2. Бондаревская Е.В., Кульневич С.В. Педагогика: личность в гуманистических теориях и системах воспитания: учебное пособие. – Ростов н/Дону: Творческий центр «Учитель», 1999. – 560 с.
3. Равен Дж. Компетентность в современном обществе: выявление, развитие и реализация / Пер. с англ. – Москва: Когито-Центр, 2002. – 396 с.
4. Xushnazarova M. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2021.
5. Primov Sh. Bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2020.
6. Raximova S. Maktabgacha ta'lim tashkilotilari pedagog xodimlarining malakasini oshirish mazmunini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2020.
7. Карцева Т.Б. Личностные изменения в ситуациях жизненных перемен // Психологический журнал, 1988, №5. – С. 120–128.

Dilorom ABDULLAYEVA,
Buxoro davlat tibbiyot instituti O'zbek tili va adabiyoti, rus tili, pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti;
Ruqiya ASHURBAYEVA,
Buxoro davlat tibbiyot instituti O'zbek tili va adabiyoti, rus tili, pedagogika va psixologiya kafedrasi assistenti

INTEGRATSIYA VA UNING TA'LIM TIZIMIDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya. *Maqolada integratsiya tushunchasiga berilgan izohlarga chuqur to'xtalib, uning ta'lim tizimi bilan bog'liq jihatlari borasidagi mulohazalar o'rin olgan.*

Kalit so'zlar: *integratsiya, ta'lim tizimi, birlashtirmoq, termin, tiklash, o'zaro aloqadorlik, lug'atlar.*

Annotation. *This article is devoted to the interpretation of the concept of integration and comments on its aspects related to the education system.*

Keywords: *integration, education system, unification, terminology, restoration, interconnection, dictionaries.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается интерпретация концепции интеграции и комментируются ее аспекты, связанные с системой образования.*

Ключевые слова: *интеграция, система образования, объединить, терминология, восстановление, взаимосвязь, словари.*

Bugungi kunda *integratsiya* termini kirib bormagan sohani topish mushkul. Integratsiya – inson hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan tushuncha. Borliq, voqelik, hatto inson organizmi ma'lum bir tizim, ma'lum bir aloqadorlik, ma'lum bir mutanosiblikdan iborat. Integrativ tamoyil ostida muvaffaqiyat kaliti mavjudligini tushunib yetgan jahonning ilg'or davlatlari tomonidan bu tushunchaning nazariy qonuniyatlari va amaliy mexanizmlari ishlab chiqilib, sohalarda tatbiqi ta'minlangan.

Xo'sh, integratsiya nima? Bu terminning izohi berilgan bir nechta lug'at turlariga murojaat qilamiz:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati"da:

"Integratsiya" [lot.integratio – tiklash, qaytadan boshlash, to'ldirish]

1) ayrim qismlarning, elementlarning bog'liq holatini, ularni qo'shib birlashtirishni ifodalovchi tushuncha;

2) fanlarning yaqinlashish va o'zaro bog'lanish jarayoni;

3) ikki va undan ortiq davlatlarning iqtisodiyotini o'zaro muvofiqlashirish va birlashtirish.

Demak, mazkur termin tilimizga rus tili orqali lotin tilidan o'zlashgan. Bizda, aslida, ***integratsiya*** termini o'rnida *aloqadorlik, bog'liqlik, uyg'unlik, uzviylik, uzluksizlik, tizimlilik* kabi birliklar qo'llanilgan. Zero, bu tushunchaning zamirida butun borliq, olamning yaxlitligini anglash va anglatish, uning tarkibiy qismlari orasidagi uzviy bog'liqlikni his etish – dunyo o'zaro mantiqan bog'langan bir yaxlit tizim ekanligini ongli qabul qilishga o'rgatish mohiyati turadi. Bu borada fizikaning "butun olam tortishish qonuni" (Nyuton), tasavvufning "butun borliqning yaxlitligi" (Qur'on), falsafaning "mohiyatning butunligi" (ibn Rushd) kabilarni eslash kifoya.

2. "Oliy ta'lim (Lug'at-ma'lumotnoma)"da:

Uyg'unlashish, integratsiya (lot. integral; tiklash, to'ldirish) – quyidagi natijalarga ega jarayon yoki harakat:

1) biror qism, unsurlarning yaxlit bo'lib birlashishi, birlikning tiklanishi;

2) iqtisodga iqtisodiy subyektlarning birlashishi, ular o'zaro munosabatining chuqurlashishi, ular o'rtasidagi aloqaning rivojlanishi;

3) pedagogika, bir necha ta'lim muassasasining har biri o'z vazifasini mustaqil bajargan holda qo'shilishi, lekin birgalikda boshqarilishi, shuningdek, ta'lim yagona infratuzilmasidan foydalanish (tashkil etilgan darajada uyg'unlashish).[1]

Mazkur o'rinda integratsiya tushunchasiga xususiy yondashuvni kuzatish mumkin.

3. "Tilshnoslik terminlarining izohli lug'ati"da:

Integratsiya (lot. integratio – butunlanish, birlashish) tillar, shuningdek, dialektlarning o'zaro noo'xshashliklari yo'qola borib, bir umumiy tilga birlashishi[2] tarzida izohlanganki, bunda mazkur tushunchaning sohalarda xususiylashuvini kuzatish mumkin.

4. "Politexnika lug'ati"da:

Integrator (lot. integro – to'ldiraman, tiklayman):

1) statik momentlar, intersiya momentlari va yassi shakllarning yuzalarini mexanik usulda hisoblaydigan asbob (q. planimetr);

2) differensial tenglamalarni integrallaydigan qurilma. Matematik masalalarni yechishda mustaqil hisoblash qurilmasi sifatida yoki avtomatik rostlash sistemasining elementi (integrallash zvenosi) sifatida ishlatiladi; hisoblash mashinasining tarkibiga kiritilishi, fizik jarayonlarni modellash va b.da foydalanishi mumkin.[3]

5. "Qisqacha siyosiy lug'at"da:

Integratsiya (lot. integratio, integer – butun) – biror bir qism va elementlarni bir butunga birlashtirish. Ekonomikada – xo'jalik hayotini internatsionalizatsiyalashning oliy formasi bo'lib, bunga xalqaro mehnat taqsimotini chuqurlashtirish obyektiv ravishda sabab bo'ladi. U turli mamlakatlarning o'zaro yaqinlashuvida va ularning korxonalari, tarmoqlari va hatto milliy ekonomikasining yagona xo'jalik organizmiga birlashuvida ifodalanadi hamda bu protsessni tartibga solib turuvchi iqtisodiy kuchdir.[4]

6. Mustaqillik (izohli-ommabop) lug'atida:

Integratsiya – milliy iqtisodiyotlarning sifat jihatidan yangi sharoitlarga ega bo'lishi va mamlakat taraqqiyoti

imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida, ixtiyoriy ravishda birlashishi, bir-birlariga o'zaro ta'sir etish jarayoni.[5]

7. "Iqtisodiyotga oid atamalar va tushunchalar izohli lug'ati"da: Integratsiya (lot. integer – butun) – mustaqil xo'jalik faoliyatining milliy, mintaqaviy va xalqaro miqyosda o'zaro qo'shilib yaxlit xo'jalik tizimini tashkil etishi.[6]

Turli sohalarga oid lug'atlardagi izohlarni umumlashtiradigan bo'lsak:

– integratsiya termini turli yo'nalishlarda ma'lum bir doiraning birlashishi,

– ma'lum bir jarayonlarning aloqadorligi, qismlarning birlashishi kabi tushunchalarni qamrab olgan butunlikdir.

Ushbu tushuncha dastlab XVIII asrda Gerbart Spenser tomonidan fanga kiritilgan va muayyan soha yoki yo'nalishda o'zining samarali natijasini berishi ta'kidlangan. Hozirda bu tushuncha haqida rivojlangan davlatlarning Internet resurslarida quyidagi kabi ma'lumotlarni uchratish mumkin:

1. Integratsiya – kichikroq komponentlarning bir butun sifatida ishlaydigan yagona tizimga birlashishi. ... Bu aloqalar, odatda, jarayon komponentlari va har bir tizimning boshqaruv tekisligi o'rtasida, tizimlarning erkin ma'lumotlar oqimi orqali o'rnatiladi. Integratsiya eng umumiy ma'noda narsalarning har qanday yaqinlashuvi va birlashuvini anglatishi mumkin: ikki yoki undan ortiq iqtisodiyot, madaniyat, din (odatda, sinkretizm deb ataladi) integratsiyasi va hokazo.[7] (AQSh)

2. Integratsiya (lot. integratio – tiklash, to'ldirish, bog'lanish) – qismlarni bir butunga birlashtirish jarayoni.

Kontekstga ko'ra bu quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

I. Veb integratsiya – turli qismlar va tizimlarni yagona veb-muhitga birlashtirish.

II. Ma'lumotlar integratsiyasi – turli manbalardan olingan ma'lumotlarni birlashtirish va foydalanuvchilarga ma'lumotlarni birlashtirilgan shaklda taqdim etish.

III. Implantlarning suyak to'qimalariga integratsiyalashuvi – tirik organizmning to'qima muhitiga begona jismni kiritishining alohida holati.

IV. Siyosiy integratsiya – siyosiy tuzilmalarning o'zaro hamkorlikka yo'naltirilgan yaqinlashuv jarayoni. (Rossiya)

V. Tizim integratsiyasi va boshqalar.[8]

3. Integratsiya – alohida ehtiyojli ta'limga ega bo'lgan o'quvchilarning o'quvchi darajasiga mos keladigan ba'zi darslarda asosiy ta'limga integratsiyalashuvini anglatadi. Masalan, o'ziga xos ehtiyoj talab qiladigan o'quvchiga umumiy hunarmandchilik yo'nalishidan ta'lim berilishi mumkin. Til o'rganishda jiddiy qiyinchiliklarga duch kelgan bola asosiy matematika darslariga kiritilishi mumkin. Boshqa hollarda talabalar maxsus sinf yoki guruhda o'qiydilar.[9] (Finlandiya)

4. "Integratsiya" so'zi lotincha "butun son" sifatdoshidan kelib chiqqan bo'lib, "butun, yaxlit yoki benuqson" degan ma'noni anglatadi va "integratsiya" fe'lidan "tiklash yoki to'ldirish" ma'nosida ishlatilishi mumkin. Umuman olganda, integratsiya butunni tiklash ma'nosini bildiradi.[10] (Germaniya)

5. Integratsiya deganda bir nechta jarayonlar qo'shiladigan yaxlit (butun, yaxlit mavjudot, demak, yaxlitlik tushunchasi) g'oya tushuniladi: tashqi elementlarni qo'shish (qismlarni bir butunga birlashtirish); muvofiqlashtirish, bu qismlarni izchil va samarali bir butunlik xizmatida muvofiqlashtirish.[11] (Fransiya)

Ta'lim jarayonida o'ziga xos yutuqlarga erishgan davlatlarda integratsiya mohiyati va qanday turlari bo'lishidan qat'i nazar, barchasida bitta maqsad – integrativ tamoyil orqali sohalarda taraqqiyotga erishish mazmuni yotadi. Integratsiya esa taraqqiyotni tezlashtiradigan "katalizator" vazifasini o'taydi. Shuning uchun bu tushuncha nafaqat ta'limda, balki hayotiy ehtiyojlar uchun muhim bo'lgan barcha soha va yo'nalishlarni qamrab olgan qonuniyat. Faqat biz bu qonuniyatning ishlash usul va vositalarini tabiiylikdan sun'iylikka olib bormasligimiz kerak. Integratsiyaning ishlash mexanizmi qonuniyatlari hamma joyda bir xilligini xoh AQSHda bo'lsin, xoh Rossiya, Fransiyada, barcha-barcha rivojlangan davlatlarning Internet resurslarida berilgan ma'lumotlar orqali bilsa bo'ladi. XIX asrda fan va texnika aql bovar qilmas darajada rivojlanayotgan davrda inson intellekti o'zining yuqori nuqtasiga chiqqanida, atrof-muhit "ma'lumotlar chiqindisi" bilan to'lib-toshganida, global muammolar atrofida hukmron bo'lgan vaziyatda integratsiyaga innovatsion yondashuv talab qilinadi.

O'zbekistonda mavjud lug'atlar asosida ko'rib chiqqanimizda, bu tushuncha ancha yillar oldin kirib kelganligining guvohi bo'lamiz. Demak, integratsiya – hayotiy ehtiyojlarni qondiruvchi, mavjud qonuniyatlar asosida birlashtirilganda, samarali natijalarni taqdim eta oladigan, barcha sohalarni qamrab oladigan tushuncha hisoblanadi. Xuddiki, oddiygina "*tabiatda oziq-ovqat zanjiri*" ishlash mexanizmi bir-birini taqozo etganidek, integratsiya tushunchasida ham qismlar bir-biriga ehtiyoj sezadi, bu jarayon tabiiy ravishda sodir bo'ladi. Agar qismlarning biri bo'lmasa, tabiat muvozanati buzilganidek, integrativ ta'limot muvozanati ham buziladi, ana shunda ilmda noto'g'ri gipotezalar hosil bo'ladi. Shuning uchun ham izohlarda o'rin olgan birlashtirish, bir-birini taqozo qilish aniqlikni, o'z maqsadiga xatosiz yetkaza oladigan "birlashuv"ni talab etadi. Zero, muvofiqlik, mutanosiblik, uzviylik integratsiyaning muhim xususiyatlari hisoblanadi.

---

[1] O'zbek tilining izohli lug'ati, I harfi. 49-bet. https://n.ziyouz.com/books
[2] Oliy ta'lim (lug'at-ma'lumotnima). – Toshkent: Moliya, 2003. 344-bet.
[3] Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zME, 2002. 44-bet.
[4] https://www.ziyouz.com/(201-bet)
[5] Qisqacha siyosiy lug'at. – Toshkent: O'zbekiston, 1983. 132-bet.
[6] Jalolov A., Xonazarov Q. Mustaqillik lug'ati (izohli ilmiy-ommabop lug'at) – Toshkent: Sharq, 1998. 71-bet.
[7] Iqtisodiyotga oid atamalar va tushunchalar izohli lug'ati. – Toshkent: Fan, 2004. 15-bet.
[8] https://en.wikipedia.org/wiki/Integration
[10] https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%98%D0%BD%D1%82%D0%B5%D0%B3%D1%80%D0%B0%D1%86%D0%B8%D1%8F
[11] https://fi.wikipedia.org/wiki/Integraatio_(kasvatustiede)
[12] https://www.grin.com/document/190389

Muzaffar MAMATQULOV,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

MUBOLAG'A IMKONIYATLARI VA SHOIR MAHORATI

Annotatsiya. *Maqolada yozma va og'zaki adabiyotda mubolag'a, uning o'ziga xosligi masalalariga e'tibor qaratiladi. Xalq og'zaki ijodida mubolag'aning ifodalanishi "Tohir va Zuhra" dostoni misolida yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *mubolag'a, xalq og'zaki ijodi, doston, bayt, misra, tasvir vositalari, mubolag'a turlari.*

Annotation. *The article focuses on the issues of exaggeration and its specificity in written and oral literature. The expression of exaggeration in folklore is illustrated by the example of the epic "Tahir and Zuhra".*

Keywords: *exaggeration, folklore, epic, distich, verse, means of expression, types of rhetoric.*

Аннотация. *В статье рассматриваются вопросы преувеличения и ее специфичность в письменной и устной литературе. Выражение преувеличения в фольклоре иллюстрируется на примере эпоса «Тахир и Зухра».*

Ключевые слова: *преувеличение, фольклор, эпос, байт, стих, средства выражения, виды риторики.*

Mubolag'a usulidan yozma adabiyotda ham, xalq og'zaki ijodida ham keng foydalanib kelingan. O'tmishda, shuningdek, keyingi davrlarda yaratilgan mumtoz poetikaga oid tadqiqotlarda ham mubolag'a to'g'risida ayrim fikrlar uchraydi. Jumladan, Atoulloh Husayniy bu tasvir vositasi haqida "… mubolag'a andin iboratturkim, so'zlaguchi bir nimani vasf etarda aning kuchlulugi yoki kuchsizluguning ortiqlig'in, ul ortiqliq odattin tashqari yoki eshitkuchi ul vasf yetuk ermas degan xayolga bormayturgan darajada, da'vo qilur", [1: 152] deb yozsa, Fitrat "Adabiyot qoidalari" risolasida "tuyg'ularimizdan birining juda kuchli ekanin bildirmak, uni bo'lg'anidin bir oz orttirib ko'rsatmakka mubolag'a deymiz. Mubolag'a chin (samimiy) bo'lsa, judayam oshirib yuborilmasa, zo'raki yasama bo'lmasa, tuyg'ulardag'i kuchlilik – o'tkirlikni onglatishga katta yordam qiladir", [2: 71] deb qayd etadi.

Darhaqiqat, mubolag'aning mohiyati biror narsa, hodisa, voqea yoki insonga xos bo'lgan belgi, xususiyatni orttirib, kuchaytirib tasvirlash va shu yo'l bilan ifodani obrazli tarzda bo'rttirish, uning ta'sirchanligi oshirish bilan izohlanadi.

Mubolag'a asosida yaratilgan misra yoki baytlar "Tohir va Zuhra" dostonida ham alohida o'rin tutadi. Dostondagi mubolag'alar, asosan, masnaviy va g'azallar tarkibida uchraydi. Masnaviydagi mubolag'alar ko'proq voqealar tasviri bilan bog'liq vaziyatlar, shuningdek, obrazlarning ayrim xususiyatlarini kuchliroq bo'rttirish jarayonida yuzaga chiqadi, ko'p hollarda tashbih, tashxis, istiora kabi badiiy tasvir vositalari bilan birgalikda qo'llaniladi.

Bag'dod hukmdori Odilshohning uchala qizi go'zalligi tavsifiga aloqador quyidagi baytda tashbih bilan birgalikda mubolag'aning ham alohida vazifasi bor:

Bu uch qizlar edi oydin ziyoda,
Ko'rub shohlar bo'lur erdi piyoda. [3: 84]

Ko'rinadiki, birinchi misra qizlarning go'zallik timsoli bo'lgan oydan ham chiroyli ekanligidan xabar bersa, ikkinchi misradagi mubolag'a qizlar chiroyining beqiyos darajada ekanligini asoslashga xizmat qiladi. Shohlarning piyoda bo'lishi – mubolag'a ko'rsatkichi sanaladi. Zero, shohlarni otdan tushirib, piyodaga aylantirish judayam oson ish emas. Buning uchun ular go'zallikning maftuniga aylanishi lozim. Odilshohning uch qizi ham latofat bobida tengsiz edi. Shu sababli ham bunday go'zallik oldida har qanday shoh hayratda qolardi.

Tohir Bag'dodda yetti yil yashasa-da, ko'ngli doimo Zuhrada bo'ldi. Zaruratdangina Odilshohning saroyida ko'rinish berardi. G'amginlik uning asosiy hamrohi edi. O'zidan o'tganlarni faqat o'zi va Tangrigina bilardi:

Ki yetti yil qilib anda madoro,
Oning holig'a yig'lar sangi xoro. [3: 94]

Baytning ikkinchi misrasida mubolag'a qo'llanilgan. Xarsang toshning yig'lashi – badiiy tasvir vositasi ko'rsatkichi hisoblanadi. Mubolag'a tashxis bilan bog'lanish asosida yuzaga kelgan bo'lib, lirik qahramonning holatini bo'rttirish uchun xizmat qilyapti.

Dostonda ko'z yoshi bilan bog'liq mubolag'ali tasvirlar anchagina uchraydi. Ko'z yoshi – qayg'uli vaziyat va holatni yorqin ifodalash vositalaridan biri. Bu jihatdan qaraganda quyidagi misralarda muallif yanada ta'sirchanlikka erishgan:

Bu abyotni o'qub chiqdi qoshidin,
Ro'molin ho'l etibon ko'z yoshidin. [3: 132]

Bayt Tohirning o'z yurtiga qaytish uchun Mohimxonimdan ruxsat olib chiqqanidan so'ng keltirilgan. Shu darajada qahramonning ko'p yig'laganidan ro'molning ho'l bo'lib ketishi hodisasi mubolag'aning mahsuli hisoblanadi.

Dostondagi voqealar rivojini kuzatish ko'z yoshining Zuhra bilan bog'liq jarayonlarda ham mubolag'a vositasidan unumli foydalanilgan holda tasvirlanganini ko'rsatadi:

Ki tongla bordi ul qabrning boshig'a,
Bori yo'l ho'l bo'lubon ko'z yoshig'a. [3: 183]

Birinchi misrada Zuhra Tohirning qabrini ziyorat qilish uchun qabristonga borgani xabari berilsa, ikkinchi misradagi mubolag'a uning qayg'u-alamga to'la qiyofasini gavdalantiradi. Tohirdan ayrilish Zuhra uchun oson ish emas edi. Sevgilisining o'limi uning azoblarini yanada oshiradi. "Bori yo'l ho'l bo'lubon ko'z yoshig'a" misrasi esa Zuhraning Tohir dardidagi iztiroblarini ifodalaydi.

Dostondagi ayrim mubolag'ali vaziyatlar xalq og'zaki ijodi namunalaridagi ayrim tasvirlarga o'xshab ketadi. Mubolag'ali tasvirlar orasida bir bayt alohida ko'zga tashlanib turadi. Unda podshohning qizi Zuhrani Qorabotirga nikohlash maqsadida yoshi ulug'lar yig'ilib, xursandchilik qilgani bayoni berilgan. Baytning ikkinchi misrasi ayrim xalq ertaklaridagi to'ylarni yodga soladi. Chunki ertaklardagi to'ylarda ham hisobsiz jonivorlar so'yilib, bir necha kunlab osh beriladi:

Ulug'larni yig'ib ul kun qilib to'y,
Ki so'ydilar yuz ot-u yuz tuman qo'y. [3: 163]

Tuman – o'n ming degani. Yuz tuman bir million bo'ladi. Podshohning to'y uchun bir million qo'y so'yishiga aqlan ishonish qiyin. Shoir baytda mubolag'aning g'uluv nomli turini muvaffaqiyatli qo'llagan. G'uluv podshohning Zuhra Qorabotir bilan yashashga rozi degan o'yda juda xursand bo'lib ketganini ifodalashga xizmat qilgan.

"Tohir va Zuhra" dostonidagi g'azallarda mubolag'a mohirona qo'llangan. Ularda oshiqning iztirobli holatlarini bo'rttirish, shu bilan birga, obrazli vaziyatlar, yangicha tafakkur mahsuli bo'lgan adabiy hodisalar yaratish borasida ham mubolag'aning o'rni beqiyos:

Do'stlarim, jon ichra ko'rdum ul mayi gulfomni,
Yuzining aksi magar xurshid aylar jomni. [3: 149]

G'azal do'stlarga murojaat bilan boshlanadi. Mayi gulfom – qizil may tushunchasini anglatadi. May to'la qadahga yuzning aksi tushib, uni quyoshga aylantirishi mubolag'a mahsulidir. Baytning mazmuni: Do'stlarim, butun borliq ichra shunday qizil mayni ko'rdim. Unga yuzining aksi tushib, go'yoki, quyosh kabi qadahdan nur taralayotgandek.

G'azallardagi mubolag'alar ko'proq ma'shuqa bilan aloqador jarayonlarni bo'rttirish asosida yuzaga keladi. Ma'shuqaning yuzi, labi, og'zi, sochi, ko'zi – tashqi ko'rinishi ayrim baytlarda beqiyos darajada ideallashtirilsa, ba'zan uning fazilatlari ham mubolag'a asosida bo'rttiriladi:

Lutf etib qilg'il karam, ey podshohi husnkim,
Ro'zi anvardek qilur lutfing qorong'u shomni. [3: 149]

Oshiq uchun ma'shuqaning marhamati – eng katta yaxshiliklardan biri. Agar haqiqatan ham ma'shuqa lutf qiladigan bo'lsa, oshiq uchun unutilmas bayram. Eng asosiysi, unda visol umidi paydo bo'ladi, zimistonday ko'ngli yorishadi. Lutfning qorong'u shomni kunduzdek yop-yorug' qilishi mubolag'a ko'rsatkichi hisoblanadi.

Mubolag'a o'tmish zamonlardan beri badiiy ijod olamida keng qo'llanib kelinadi. U har bir asarning mohiyatidan kelib chiqqan holda o'ziga xos xususiyatlarda namoyon bo'ladi. Sayyodiyning "Tohir va Zuhra" dostoni sof ishqiy mazmundagi asar bo'lgani va undagi voqealar tizimi ko'proq qayg'u-alam bilan bog'liq tasvirlarga qaratilganidan mubolag'a ham qahramonlarning iztirobli holatlarini kuchaytirish maqsadida qo'llangan. Ayniqsa, Tohir va Zuhraning dardli kechinmalari, ichki dunyosi ifodasi, g'azallardagi bosh qahramonlar tilidan aytilgan ruhiy holatga oid tasvirlar mubolag'a vositasida yanada ta'sirchanlikka erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Husayniy A. Badoye' us-sanoyi'. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1981.
2. Fitrat A. Adabiyot qoidalari. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.
3. Sayyodiy. Tohir va Zuhro. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2019.

Arslon ESHMURODOV,
O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining
mustaqil izlanuvchisi

MILLIY INTERNET JURNALISTIKASINING JAMOATCHILIK FIKRIGA TA'SIRI: MANIPULATIV HOLAT, MUAMMO VA YECHIM

Annotatsiya. *Maqolada milliy Internet jurnalistikasining jamoatchilik fikri shakllanishidagi manipulativ holatining ijobiy va salbiy tendensiyalari qiyosiy tahlil qilinadi. Ommaviy axborot vositasi sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan Internet saytlari orqali tarqatilayotgan axborotlarning jamoatchilik*

Annotation. *This article provides a comparative analysis of the positive and negative trends in the manipulative state of national Internet journalism in the formation of public opinion. The impact of the information disseminated through state-registered Internet sites as mass media is considered.*

Аннотация. *В статье проводится сравнительный анализ положительных и отрицательных тенденций манипулятивного состояния национальной Интернет-журналистики в формировании общественного мнения. Рассматривается влияние инфор-*

ongiga ko'rsatayotgan ta'siri to'g'risida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: *axborot, Internet, matbuot, manipulatsiya, ong, jamiyat, taraqqiyot, tarmoq, globallashuv, qadriyat, ta'sir.*

Keywords: *information, Internet, press, manipulation, consciousness, society, development, network, globalization, value, influence.*

мации, распространяемой через зарегистрированные государством Интернет-сайты в качестве средства массовой информации.

Ключевые слова: *информация, Интернет, пресса, манипуляция, сознание, общество, развитие, сеть, глобализация, ценность, влияние.*

Zamonaviy fan va texnika taraqqiyoti, xususan, axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining yuksak darajada rivojlanishi natijasida nafaqat yaqin qishloqlar o'rtasida, balki davlatlararo, qit'alararo sifatli axborot almashinuvi vujudga keldi. Mana shu yuksak taraqqiyot bir tomondan axborot olishni, izlashni, tarqatishni qanchalik osonlashtirgan, qulaylik yaratgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ba'zi bir jiddiy muammolarni ham keltirib chiqardi. Muammolardan biri ijobiy ma'noda e'tirof etilayotgan qadriyatlar transformatsiyasi (uyg'unlashuvi) jarayonida millatning, xalqning faqatgina o'ziga xos qiyofasini ko'rsatib turadigan, ming yillar davomida shakllanadigan an'anaviy milliy qadriyatlarga putur yetkazishdir.

Filologiya fanlari doktori X.Do'stmuhammedovning mulohazalariga ko'ra "globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarni muhofaza qilish, asrab-avaylash jiddiy muammoga aylanishi xilma-xil aspektlarda o'rganilmoqda".

Butun dunyo betizgin axborot oqimi ichida yashayotgan, uning beshafqat to'lqinlari har qanday sarhadlarni chil-parchin qilayotgan bir paytda Internet jurnalistikasi vujudga keldi, bosma matbuotga qaraganda shiddat bilan rivojlandi va qisqa muddat ichida juda katta auditoriyani egallab oldi.

Internet jurnalistikasi zamonaviy ommaviy axborot vositalarining yangi interaktiv turi bo'lib, hozirgi kunda mediamakonda keng ta'sir kuchiga ega. U boshqa OAVga nisbatan alohida ahamiyat kasb etadi. "Internet-jurnalistika bu – XX asr oxirida Internetning rivojlanishi va tarqalishi bilan paydo bo'lgan jurnalistikaning yangi turi".[1]

Ushbu sohadagi tadqiqotchilarning fikriga ko'ra 2010-yillarga kelib elektron OAV orasida katta ta'sir kuchiga ega bo'lgan televideniye o'zining keng auditoriyasini asta-sekin Internetga, birinchi navbatda, yoshlar o'rtasida ommalashgan *YouTube*ga ajratib berishga majbur bo'ldi.

Mamlakatimizda ham Internet jurnalistikasi ommaviy axborot vositalari orasida alohida mavqega ega bo'lib, kun sayin taraqqiy etib bormoqda. "Respublikamizda faoliyat yuritayotgan 1893 ta ommaviy axborot vositasidan 638 tasi yoki 33,7 foizi Internet nashrlari – veb-saytlar sifatida ro'yxatdan o'tgan"[2].

Ommaviy axborot vositalarining qaysi turi bo'lishidan qat'i nazar, uning vujudga kelishidan ko'zlangan asosiy maqsad axborot (faqatgina yangilik tarzidagi xabar emas) yetkazib berish orqali davlat va jamiyatda ro'y berayotgan voqea-hodisalarga nisbatan jamoatchilikning ongli munosabatini shakllantirishdan iborat.

Ushbu ta'sir fanda manipulatsiya deb yuritiladi.

Manipulatsiya ijtimoiy ta'sir ko'rsatish turlaridan biri sifatida baholanadi, ya'ni u ijtimoiy-psixologik hodisa[3] bo'lib, boshqa odamlarning idroki yoki xulq-atvorini yashirin, aldamchi va zo'ravon taktikalar yordamida o'zgartirishga qaratilgan faoliyatdir.[4]

Ommaviy ong manipulatsiyasi deb nomlanadigan, jamiyat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadigan tushuncha mavjud ("jamoatchilik fikrini manipulatsiya qilish") bo'lib, u xulq-atvorni nazorat qilish uchun illuziyalar yoki sharoitlar yaratish orqali odamlarni nazorat qilish usullaridan biridir. Ushbu ta'sir insonning aqliy tuzilmalariga qaratilgan bo'lib, yashirin tarzda amalga oshiriladi va odamlarning fikrlarini, sabablarini va maqsadlarini ma'lum bir guruh tomonidan xohlagan yo'nalishda o'zgartirishga qaratilgan.[5] Lekin uni faqat salbiy hodisa deb baholash to'g'ri emas. Aynan manipulatsiya orqali ro'y berayotgan voqea-hodisalarning mohiyatini to'g'ri anglash, ezgu g'oyalarni targ'ib etish ham mumkin.

Mamlakatimizda davlat ro'yxatidan o'tgan Internet saytlarini milliy Internet jurnalistikasi deb tushunadigan bo'lsak, dastlabki Internet saytlari ko'proq mahsulotlarni, xizmatlarni reklama qilish yoki e'lonlar joylashtirishga ixtisoslashganligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, "Krasota.uz", "Sharqona.com", "Vibiray.uz", "Viol.uz", "Discount.uz", "Casting.uz", "Premera.uz", "Afisha.uz" singari Internet saytlarida jurnalistik materiallar juda kam berilgan. Ular orasida mamlakatimizda yoki xorijda ro'y berayotgan voqea-hodisalar, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy yangiliklarni berib boradigan Internet saytlarini deyarli uchratmaysiz.

Keyinchalik bir qator Internet saytlari vujudga keldiki, ularda beriladigan xabar, maqola va materiallar professionallik nuqtayi nazaridan yuqori saviyada bo'lib, bevosita jamoatchilik fikrining shakllanishiga amaliy ta'sir ko'rsatadi. 2008-yildan buyon faoliyat ko'rsatib kelayotgan mana shunday milliy Internet saytlaridan biri gazeta.uz hisoblanadi. Ushbu saytda "Jamiyat", "Siyosat", "Iqtisodiyot", "Koronavirus", "Foydali" singari bo'limlar mavjud.

Turli mavzulardagi tahliliy materiallari bilan o'zining doimiy o'quvchilariga ega bo'lgan Internet saytlaridan yana biri sangzor.uzdir. Ushbu saytda yaratilgan bo'limlarda ham alohida o'ziga xoslik bor. Masalan, "Mediasavodxonlik", "Blogerlar nima deydi?", "O'zi nima gap?", "Murojaatlar" bo'limlari nomlari o'qilishi bilan kishi e'tiborini o'ziga tortadi. "Mediasavodxonlik" bo'limida berilayotgan materiallarda, asosan, jamiyatda tarqatilayotgan axborotlarning inson ongiga ta'siri, ba'zi yolg'on axborotlarning zararli oqibatlari ochib beriladi. Saytda nafaqat matn, balki qisqa va ta'sirli videoroliklar ham joylashtirilib boriladi. Shunday videoroliklardan biri 2021-yil 22-aprelda saytga qo'yilgan. Unda Internet tovlamachilarining kirdikorlari fosh etiladi. Videorolikning

ahamiyatli jihati shundaki, so‘nggi yillarda paydo bo‘lgan Internetdagi tovlamachiliklarning bir necha turi, aldanib ularning to‘riga tushib qolmaslik to‘g‘risida ravon va tushunarli tilda ma’lumotlar bayon etiladi. Axborotning ishonchliligi qanday aniqlanishi to‘g‘risida soha mutaxassislarining maslahat va tavsiyalari bor.

Toshkent viloyati hokimligi tomonidan viloyatning ma’muriy markazi Nurafshon shahrida barpo etilishi rejalashtirilgan Zulfiya Zokirovaning haykali va uning atrofini obodonlashtirishga 28,4 milliard so‘m, zamonaviy kutubxona qurishga esa 6 milliard so‘m ajratilgani 2021-yil noyabr oyining birinchi o‘n kunligida Internet saytlarida eng ko‘p muhokamalarga sabab bo‘ldi.

Yoki 2021-yil 7-noyabr kuni soat 9.44 da sangzor.uz saytida joylashtirilgan “Yozmay deyman-u, til bilan qo‘l qichiyveradi-da...” sarlavhali maqola ijobiy ma’nodagi kesatiq, biroz yumor bilan yozilgan. Maqola sarlavhasi o‘quvchining diqqatini darrov o‘ziga tortadi.

Maqola quyidagicha boshlanadi:

28,5 mlrd. + 6 mlrd hech tinchlik bermayapti. Agar men hokim bo‘lganimda:

34,5 mlrd so‘mga bitta zamonaviy shifoxona qurardim va uni Zulfiya ona nomi bilan atardim. Juda haykalga boshqorong‘i bo‘lsam, shifoxona eshigi yoniga nari borsa onaxonning bitta byustini o‘rnatardim. Shifo topib chiqib ketayotganlardan duo bilan eslab qo‘yishlarini so‘rardim;

34,5 mlrd so‘mga Toshkent viloyatilik 5 mingta talabaning 1 yillik kontraktini to‘lab berardim. Yoki Toshkentga yaqin hududdan ulkan yotoqxona qurdirardim va talabalarni bepul turar-joy bilan ta’minlardim[6].

Bu fikrlarda mahalliy budjetdan ajratilayotgan mablag‘larni insonlarga munosib turmush tarzi uchun yetarli sharoitlar yaratish maqsadida sarflash kerakligi to‘g‘risida ishora bor. Bir so‘z bilan aytganda, matbuot jamiyat hayotida o‘zining missiyasini bajarmoqda. Zero, uning birdan bir vazifasi jamiyat hayotini o‘zida aks ettirish, unda ro‘y berayotgan yaxshi va yomon voqea-hodisalarga xolis nazar bilan qarab, jamoatchilikka ular yuzasidan ma’lumotlar tarqatishdir.

Endi milliy Internet jurnalistikasining jamoatchilik fikriga ta’siri manipulativ holatining salbiy jihatlarini ham ko‘rib chiqamiz.

Sport sohasi yangiliklarini tarqatadigan Internet saytlariga kiruvchilar ko‘pchilikni tashkil etadi. Shundan kelib chiqib, milliy Internet jurnalistikasining sportga ixtisoslashtirilgan ayrim saytlarida berilayotgan materiallarni ko‘rib chiqamiz.

https://stadion.uz/ sport sayti 2012-yil Qashqadaryo viloyat kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi muassisligida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan. Ushbu saytga 2021-yil 9-noyabr kuni soat 17.01 da joylashtirilgan “Ana xolos! Ronaldu “Manchester United”ni tark etishi mumkin” sarlavhali materialning boshiga dunyoning eng mashhur futbolchisi Krishtianu Ronalduning futbol maydonidagi katta surati tagida yarim-yalong‘och ayolning saunada o‘tirgan surati berilgan. Bu saytdagi har bir xabarni ochib o‘qish uchun kirganda reklama tarzidagi bir-biridan behayo rasmlar almashib turadi.

www.olamsport.uz sport saytining “Sportchilarning ijtimoiy tarmoqlarida” bo‘limida beriladigan mashhur sportchilarning suratlari orasiga sportchilarning behayo suratlaridan bir nechtasi joylashtirib boriladi. Masalan, 2021-yil 6-noyabr kuni soat 15.57 da joylashtirilgan qirg‘izistonlik mashhur sportchi, aralash jang san’atlari ustasi, bir necha bor jahon chempioni Valentina Shevchenkoning behayo rasmi qo‘yilgan. Bu saytlarda pornografiyani targ‘ib etuvchi ko‘plab suratlarni ko‘rish mumkin. Vaholanki, “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasiga ko‘ra ommaviy axborot vositalarida pornografiyani targ‘ib qilish taqiqlanadi.

Ushbu saytlarda odatdagi xabarlarda berib borilayotgan: *“E zaybal”*[7], *“Yakinda chmosi chikib ketadi oz koldi*[8]*”, “dina... yukalll*[9]*”, “Krishtianu Kidalo”*[10] singari hayosiz, qo‘pol, ma’no-mantiqsiz izohlar ham auditoriya tarbiyasiga, dunyoqarashiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotir. Misollarni keltirib o‘tishda ehtiyotkorlik yuzasidan sal yumshoqroqlarini havola qilishga harakat qildik. Afsuski, sayt o‘quvchilarining ba’zi bir izohlarini misol tariqasida keltirib o‘tishga uyalamiz.

Ommaviy axborot vositalarining jamoatchilik fikri shakllanishidagi beqiyos ahamiyatidan kelib chiqib, bunday muammolarni bartaraf etishga qaratilgan quyidagi taklif-mulohazalarni bildiramiz:

birinchidan, ommaviy axborot vositalari faoliyatini tartibga soladigan, shuningdek, axborot olish hamda uni tarqatish bilan bog‘liq qonunchilik ijrosini qat’iy nazorat qilish maqsadga muvofiq;

ikkinchidan, keng jamoatchilikning mediasavodxonlik darajasini kuchaytirishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqish va uni amalga oshirish zarur;

uchinchidan, milliy Internet jurnalistikasi kadrlarini tayyorlashda xalqaro tajribani chuqur o‘rgangan holda oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun darsliklarni takomillashtirib borish lozim;

to‘rtinchidan, Internet saytlarida jurnalistika janrlaridan keng foydalanish, ayniqsa, maqola va materiallarda publitsistik ruhni kuchaytirish kerak.

---

[1] X.Do‘stmuhammad. Axborot – mo‘jiza, joziba, falsafa. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013 yil. 34-bet.
[2] Lenta.ru: Интернет: Гражданская журналистика на службе интересов общества., Lenta.ru: Интернет: «Катрина» и Сеть.
[3] https://president.uz/uz/lists/view/4454. 26.06. 2021.
[4] Braiker H.B. Who’s Pulling Your Strings? How to Break The Cycle of Manipulation. — McGraw-Hill Prof Med/Tech, 2004. – 256 c. – ISBN 9780071446723.
[5] Кара-Мурза С.Г. Манипуляция сознанием. – Москва: Алгоритм, 2004. 528 с.; Москва: Эксмо, 2005. – 832 с. ISBN 5-699-08331-6.
[6] https://sangzor.uz/, 2021-yil, 7-noyabr.
[7] https://stadion.uz/news/detail/301789
[8] https://stadion.uz/news/detail/301818
[9] https://stadion.uz/news/detail/301833

Nazokat YUSUFJONOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

TA'LIM TURKMAN TILIDA OLIB BORILADIGAN MAKTABLARNING 7-SINF "ADABIYOT" DARSLIGIDA XALQ DOSTONLARI MAVZUSINING O'RGANILISHI

Donishmandlik va yuksak tafakkur mahsuli bo'lgan xalq dostonlari, shubhasiz, o'quvchilarda "Adabiyot" fanidan Davlat ta'lim standartida ko'zda tutilgan *adabiy-nutqiy* hamda *badiiy asarni tahlil qilish* kabi umumiy tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda eng qulay vosita va omil bo'lib xizmat qiladi. Zero, pedagogika fanlari doktori E.Abduvalitov yozganidek, "Asarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari bilan o'quvchining ma'naviy ehtiyoji o'rtasidagi aloqani tiklash adabiy ta'limning bosh vazifasi"[1]. Ammo shu vaqtga qadar qaysi xalq dostoni nechanchi sinfda, nima uchun, qancha va qanday o'rganilishi borasida maxsus ilmiy tadqiqotlar olib borilmagani o'qitishda qator kamchilik va qiyinchiliklarga sabab bo'lmoqda. Afsuski, aksariyat o'quvchilar badiiy asarning darslikda berilgan parchasini o'qish bilangina chegaralanadilar. Darsliklarda doston matnidan so'ng berilgan savol va topshiriqlarning ko'pi o'tilgan mavzuni qayta hikoyalashga qaratilgan. Bu yaxshi, albatta. Lekin ular o'quvchining ijodiy fikrlashiga qaratilsa, metodik jihatdan maqsadga muvofiq bo'lar edi. Shundagina o'quvchilar doston o'tmishning bir yodgorligigina emas harakatdagi estetika ekanini his qiladilar.

Ta'lim turkman tilida olib boriladigan umumta'lim maktablarining 7-sinf "Adabiyot" fani darsligi[2] "Adabiy janr", "Proza janri (Qissa)", "Qadimiy va o'rta asrlar adabiyoti", "XVII asr turkman adabiyoti" kabi qismlarga ajratilgan. "Proza janri (Qissa)"da o'qish uchun tavsiya etilgan "Qo'rqut ota" eposi har biri alohida voqeani hikoya qiluvchi bir necha bobdan iborat. Asarni uch qismga bo'lib o'rganish ko'zda tutilgan bo'lib, har bir qism uchun dasturda 1 soatdan, jami 3 soat vaqt ajratilgan. Bir soatlik "Qo'rqut ota" eposi" mavzusidagi dars uchun hech qanday savol va topshiriqlar berilmay, dostonning "Darsa xon o'g'li Bug'ach xon hikoyasi" nomli ikkinchi qismida quyidagi ikkita savol, topshiriq berilgan:

Ushbu hikoyada (bo'limda) qanday voqea bayon etilgan?

"Darsaxon o'g'li Bug'ach xon hikoyasi"ning to'liq matnini uyda o'qing.

Keyingi soatda o'tiladigan Salar G'azanning uyini yoqishgani haqidagi 11 betlik matn uchun tuzilgan beshta savol ham shunga o'xshash:

1. Bu hikoyada qanday voqea tasvirlangan?
2. Dushman Salar G'azanning uyini, yurtini qanday talon-taroj qiladi?
3. Garaja cho'pon kim? Uning jasorati sizga qanday ta'sir qildi?
4. Salar G'azan uyini – oilasini qanday qutqaradi?
5. Ushbu asar qatnashchilarining har birini baholashga o'rganing.

O'quvchi ma'naviyatini shakllantirishda doston mazmunidan xabardor bo'lish, sujetlar ketma-ketligini eslab qolishning o'zi yetarli emas. Javoblari matnning o'zida tayyor berilgan, bir ko'z yugurtirib topib olsa bo'ladigan yuqoridagi topshiriqlar o'quvchilarda badiiy asar tahlili bo'yicha hech qanday malaka va ko'nikmani hosil qilmaydi. Shunday nodir epik asarni darslikda berilgan savol va topshiriqlar asosida o'qitish talabga javob bermaydi. Qahramonlarning ruhiy olamini tadqiq etish, asar mohiyati va badiiyatini ochishga xizmat qilmaydigan bu kabi savol va topshiriqlar mashg'ulotlar saviyasiga salbiy ta'sir ko'rsatib, adabiy ta'limdan ko'zlangan maqsaddan o'qituvchini ham, o'quvchini ham yiroqlashtiradi.

Darslikda "Shohsanam G'arib" dostoni ham berilgan bo'lib, dostondan olingan parchadan avval bir soatlik dars uchun mo'ljallangan "Dostonlar" mavzusi kiritilgan. Turkman xalq dostonlarining o'ziga xos xususiyatlari, mavzu ko'lami va turlari haqida nazariy ma'lumotning berilishi darslikda izchillik va tizimlilik tamoyiliga amal qilinganini ko'rsatadi. Mavzu yuzasidan berilgan savol va topshiriqlarga e'tibor bersak:

1. Qanday asarlar doston deb ataladi?
2. Dostonlarning muallifi bo'lmasligining qanday sabablari bor?
3. Xalq dostonlari xususiyatiga ko'ra necha guruhga bo'linadi?
4. Qaysi dostonlarni bilasiz?
5. Dostonlardan parchalar aytib bering.

Bu savollar o'quvchidan sinchkovlik, ijodiy izlanish talab etmaydi. Sababi bu savollarga matnda berilgan ma'lumotlar asosida ketma-ketlikda javob topish mumkin. O'quvchi mavzuni tushunmasa ham savollarga javob bera oladi. O'quvchiga "yengillik" maqsadida tuzilgan bunday savollar ularni zeriktirib, badiiy asar tahlili uchun muhim bo'lgan adabiy-nazariy ma'lumotlarni chuqur o'zlashtirmaslikka sabab bo'ladi.

Dasturga ko'ra "Shohsanam G'arib" dostoni uchun bir soat, dostonning mazmunini o'zlashtirish uchun uch soat vaqt ajratilgan. Aksariyat darsliklarda doston qahramonlarining tavsifi dostondan avval berilib, ularning asarda tutgan o'rni, xatti-harakatlari, ularning boshqa obrazlar bilan munosabatlari, hatto asarning to'liq mazmuni ham yozib qo'yiladi. Mazkur majmuada esa avval asarning o'zi o'qilib, so'ng undagi voqealar va qahramonlar tahliliga kirishiladi. Darslikda, shuning-

dek, tasavvur uchun surat ham berilgan bo‘lib, unda bir mulozim bog‘da Shohsanamning kanizi bilan suhbatini yashirincha eshitib turgani lavhasi tasvirlangan. Doston mazmunini o‘zlashtirish uchun 44 betlik matn so‘ngida 8 ta savol, topshiriq berilgan. Faktologik mazmundagi dastlabki 6 ta savol quyidagilardan iborat:

1. “Shohsanam-G‘arib” dostoni qanday boshlanadi?
2. G‘arib va Shohsanamning yoshligi qanday kechdi? Ularning bir-biridan ajralishiga nima sabab bo‘ldi?
3. G‘arib qayerlarda va qancha vaqt sargardonlikda yurdi?
4. Akja (Gulnahal) oshiqlarning uchrashishlariga qanday yordam berdi?
5. G‘aribning do‘stlari kimlar? Ular G‘aribga qanday yordam berdilar?
6. Doston qanday tugaydi?

Mualliflarning mazkur savollarni tuzishdan ko‘zlagan maqsadi o‘quvchiga dostondagi voqealar ketma-ketligini eslatishmi? Ammo o‘qituvchining maqsadi o‘quvchini asarga qiziqtirish, mutolaadan zavq tuyishga o‘rgatish, doston badiiyatidagi go‘zallikni ko‘rsatish, o‘quvchilarda qahramonlar taqdiri misolida yuksak ezgu ma’naviy fazilatlarni tarbiyalash bo‘lsa, bu savollardan foydalanmagani ma’qul. Chunki yuqoridagi savollar bu vazifani amalga oshirishga yordam berolmaydi.

Matn ustida ishlash uchun yana ikki topshiriqda dostonda berilgan qo‘shiqlardan birini yod oling, asar qahramonlarini ikki guruhga ajratib, jadval tuzing, deyilgan. Ammo qahramonlarni nima uchun va qanday xususiyatlariga ko‘ra ikki guruhga bo‘lish bo‘yicha izoh berilmagan.

“Shohsanam G‘arib” dostoni haqida”gi oxirgi darsda adabiyot nazariyasidan “Doston haqida tushuncha” berilgan, avvalgi darslarda “Dostonlar” mavzusini o‘zlashtirgan o‘quvchiga yana qayta doston haqida ma’lumot berish ortiqcha, nazarimizda. Boz ustiga qisqagina berilgan ushbu nazariy ma’lumotda deyarli yangi fikr aytilmagan, avval berilgan ma’lumotlarning aksariyati takrorlangan. Shu jihatdan doston haqidagi nazariy ma’lumotlarni umumlashtirib, asosiy e’tiborni asar tahliliga qaratish maqsadga muvofiq bo‘lardi. Qolaversa, doston mavzusi bilan tanishib, uning epik ko‘lami, qahramonlarning mislsiz jasorati va millatning kechmishi-yu, istaklarining o‘ziga xos ifodasini o‘qib, endigina anglay boshlagan o‘quvchiga birdaniga ikkita yirik hajmli dostonning ketma-ket berilishi ham psixologik, ham metodik talablarga muvofiq kelmas. Shu bois mazkur darslikda, fikrimizcha, faqat bitta doston, masalan, “Shohsanam G‘arib” dostonidan olingan parcha o‘qish uchun tavsiya etilgani ma’qul.

Maktabda o‘quvchi istagan asarlarni emas, o‘quv dasturiga muvofiq darslikka kiritilgan mavzularni o‘zlashtirib borishi shart hisoblanadi. Majburiy darslarni qiziqarli mashg‘ulotga aylantirishda o‘qituvchining mahorati asosiy o‘rin tutadi. Media-interaktiv darslar nafaqat mashg‘ulotlarning qiziqarli va samarali bo‘lishini, balki o‘quvchilarning darsda faol ishtirok etib, mavzuni chuqur o‘zlashtirishlarini ham ta’minlaydi. Har jihatdan puxta va zamon talablariga mos yaratilgan darsliklar o‘quvchilarning adabiy savodxonligini oshirish, ularni ma’naviy-estetik jihatdan yuksaltirishda ham katta ahamiyatga ega.

---

[1] Abduvalitov E. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida qardosh xalqlar adabiyotini qiyosiy o‘rganish. Ped. fanl. doktori (DSc) disser. – Toshkent, 2020. 52-bet.
[2] Suyunova G., Arazov I., Haydarov S. Umumiy o‘rta ta’lim maktabining 7-sinf “Adabiyot” darsligi. – Toshkent: Sharq, 2017.

Kichik tadqiqotlar

Orzigul HAMROYEVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

SHAMSIDDIN QAYS ROZIYNING “AL-MO‘JAM FI MA’OYIRI ASH’OR UL-AJAM” ASARINING O‘RGANILISHI

Mumtoz poetika ilmining bilimdoni, yirik nazariyotchi Shamsiddin Qays Roziyning “Al-mo‘jam fi ma’oyiri ash’or ul-ajam” asari mumtoz she’r shakli, badiiyat ilmi, aruz va qofiya tizimiga oid muhim manbalardan biridir. Bu asarning tadqiqi mumtoz matnlarni to‘g‘ri tahlil qilish va sharhlashda muhim ahamiyatga ega.

“Al-mo‘jam” asari dastlab 1909-yilda olimlar Edvard Braun, Mirza Muhammad Qazviniyning sa’y-harakatlari bilan Leydenda nashr qilingan. Bu nashr poetikaga oid tadqiqotlar uchun zamin yaratdi. Asar ko‘plab olimlar, tadqiqotchilarning e’tiborini tortdi, ko‘p o‘tmay uning tadqiqiga oid bir qancha ilmiy sharhlar, tahlillar yuzaga keldi.

Eron adabiyoti she'r tizimi, aruz va qofiya nazariyasiga oid bir qancha risolalarda Shamsiddin Qays Roziyning "Al-mo'jam" asarida keltirilgan ilmiy-nazariy qarashlarga tayaniladi. M.Sharifov "Shamsiddin Qays Roziyning adabiy-tanqidiy qarashlari" nomli dissertatsiyasida Abbos Iqbolning "Ta'rifi mufassali Eron", Said Nafisiyning "Tarixi nazm va nasr dar Eron va dar zaboni forsiy", Zabihullar Safoning "Tarixi adabiyoti dar Eron" asarlarida Qays Roziyning ilmiy-nazariy qarashlaridan unumli foydalanilganini qayd etadi.

Sharq she'riyati, janrlar takomili, she'r tuzilishi, aruz va qofiya nazariyasiga oid bir qancha ilmiy tadqiqotlar uchun ham Shamsiddin Qays Roziyning "Al-mo'jam" asari asosiy manba vazifasini bajargan. K.Toyserkani "Bahs dar baroyi kitab "Hadayiq us-sihr fi daqoyiq ash-she'r"[1] asarida "Hadoyiq us-sihr" va "Al-mo'jam" asarlarini qiyosiy aspektda o'rganadi. P.N.Xanlari "Tahqiqi intiqodi dar aruzi forsiy", "Vazni she'ri forsiy"[2] asarlarida "Al-mo'jam" asarini bir necha bor tilga oladi.

Zarrinkub Abdul Husaynning "Naqdi adabiy"[3] asari Shamsiddin Qays Roziy va uning ilmiy-nazariy qarashlari tadqiqiga bag'ishlangan bo'lib, asarda olimning adabiy-estetik qarashlari aks etgan bir qancha tadqiqotlari bilan birga mumtoz she'r shakliga oid adabiy-tanqidiy qarashlari, ularga asos bo'lgan arabiy, forsiy manbalar tahlilga tortilgan. Abdul Husayn Zarrinkubning "Sheri bedurug, she'ri beniqob", "Na sharqi, na g'arbi insoniy", "Yoddoshtxo va andeshaxo" kabi bir qancha asarlarida ham Qays Roziy qarashlariga murojaat qilingan.

Yana bir eronlik olim Mahmud Kaenush "Qudamo va naqdi adabiy" asarida tanqid va badiiy ijod, janrlar masalasiga to'xtalganda, "Al-mo'jam" asarini bir necha bor tilga oladi, bahsga kirishgan holda asar matnidan parchalar keltiradi.

A.A.Azer[4], B.I.Sirus[5], V.V.Kotetishvili[6] asarlari, I.V.Steblova[7], V.M.Jirmunskiy[8], I.Yu.Krachkovskiy[9] maqolalari, A.Sattorovning[10] doktorlik dissertatsiyasi, M.L.Reysnerning[11] g'azal, qasida, masanaviy janrlarga oid maqola va tadqiqotlarida "Al-mo'jam" asari asosiy manba bo'lib xizmat qilgan.

Xudoy Sharipov "X–XI asrlarda tojik adabiy-estetik tafakkurining shakllanishi"[12] mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida "Al-mo'jam" asarini tilga oladi, shuningdek, "She'riyat haqidagi eng qadimgi risola" va "Shoir va she'riyat" kabi bir qancha maqolalarida Shamsiddin Qays Roziyning ilmiy-nazariy qarashlarini Umar Roduyoniy va Rashididdin Votvotning risolalaridagi mulohaza-munosabatlar bilan qiyosan o'rganadi.

Eronlik olim A.Sattorov Eron va tojik xalqining qadimgi davr adabiyotidan to X asrgacha bo'lgan adabiy-estetik qarashlari aks etgan "Fors-tojik adabiy-estetik tafakkuri tarixidan"[13] asarida maxsus bob tartib berib, unda Shamsiddin Qays Roziyning fors mumtoz poetikasi ilmiga qo'shgan hissasi borasida chuqur to'xtaladi. Olimning "Mahorat darajasi" va "To'liq va mukammal kitob" nomli maqolalarida ham adabiy tur va janr tadqiq etilib, Qays Roziy fikrlari asos qilib olingan.

Shamsiddin Qays Roziyning "Al-mo'jam" asari sharqshunos olima N.Yu.Chalisova tomonidan chuqur o'rganilgan. Dastlab, olima Rashididdin Votvotning "Hadoyiq us-sihr" asari tadqiqiga bag'ishlangan nomzodlik dissertatsiyasida bu ikki asarni qiyoslab o'rganadi. "Al-mo'jam" asari tili xususida maqola e'lon qiladi[14]. Keyinchalik "Al-mo'jam" asarining rus tilidagi tarjimasini e'lon qiladi.[15] N.Y.Chalisova tomonidan amalga oshirilgan ushbu nashrda muallif tomonidan berilgan she'riy va badiiy parchalarning asli fors, arab va rus tilidagi tarjimalari bilan birga keltiriladi. Ushbu nashrning ilmdagi qimmati shundaki, N.Y.Chalisova kitobning so'zboshi qismida asar borasidagi jiddiy tadqiqot, ilmiy xulosalarini taqdim etadi. Asarning yozilish tarixidan tortib, tarkibi, o'ziga xos tuzilish uslubi, poetikaga oid boshqa asarlardan farqli jihatlari batafsil yoritiladi. Nashr so'ngida olima tomonidan "Izoh" qism qo'shilgan. Bu qismda asardagi izohtalab o'rinlar tahlilga tortilgan, parchalar mualliflari va ularning asarlari haqidagi ma'lumotlar taqdim etilgan.

Sharqshunos olim R.Musulmonqulovning doktorlik dissertatsiyasida Atoulloh Husayniyning "Badoe' us-sanoyi" asarini tadqiq etadi. Shu orqali arab-fors tilida yaratilgan poetika ilmiga bag'ishlangan risolalarni chuqur o'rganadi. O'z ilmiy xulosalarini "Персидско-таджикская классическая поэтика X–XV вв."[16] tadqiqotida taqdim etadi. Asarda sharq mumtoz poetika ilmi nazariyasiga bag'ishlangan arabiy, forsiy, turkiy risolalar tahlilga tortilgan, qiyosiy o'rganilgan. Bu risolalar orasida Shamsiddin Qays Roziyning "Al-mo'jam" asari ilmiy-nazariy jihatdan mukammal asar sifatida baholangan.

Ko'rinib turibdiki, Shamsiddin Qays Roziyning "Al-mo'jam" asari to'laligicha, yaxlit holda o'rganilmagan. Afsuski, bu asarning o'zbek tilidagi tarjimasi, matni ham mavjud emas. Soha mutaxassislari va kitobxon bu kabi nazariy kitobga muhtoj. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, mumtoz she'r matnlarini to'g'ri tahlil va sharhlashda shakl va mazmun mutanosibligini belgilovchi o'lchovlarni bilish zarur. Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk shoirlarimiz ijodiy merosining mukammalligi siri ham shunda.

---

[1] Шарифов М. Шамс-и Кайс-и Рази и его литературно-критические взгляды. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 1984.
[2] Тойсеркани К. Баҳс дар баройи китоб. Ҳадойиқ ус-сиҳр фи дақойиқ уш-шеър. – Теҳрон, ҳ.1336.
[3] Ханлари П.Н. Вазни шеъри форсий. – Теҳрон, ҳ.1354.
[4] Зарринкуб А. Нақди адабий. – Теҳрон, ҳ.1338.
[5] Азер А. Рифма персидского стиха / Проблемы восточного стихосложения. – Москва, 1973. – С. 110.
[6] Сирус Б. Рифма в таджикской поэзии. – Сталинабад, 1953. – С. 211.
[7] Котетишвили В.В. Структура персидской классической рифмы. Автореф. дис. …докт. филол. наук. – Тбилиси, 1975. – С. 284.
[8] Стеблова И.В. Арабо-персидская теория рифмы и тюркоязычная поэзия / Тюркологический сборник. – Москва, 1996. – С. 246–254.

[9] Жирмунский В.М. Рифма, ее история и теория / Теория стиха. – Ленинград, 1975.
[10] Крачковский И.Ю. Арабская поэтика в IX в. / Избранные произведения, т. 2. – Москва, Ленинград, 1956. – С. 360–372.
[11] Сатторов А. Аристотель и таджикско-персидская литературная мысль (X–XI вв.) Автореф. дис. ... докт. филол. наук. – Душанбе. 1984.
[12] Рейснер М.Л. Газель в системе категорий классической иранской поэтики // Вестник Московского университета. Востоковедение. – Москва, 1986, № 3. – С. 32–41.
[13] Шарифов. Х. Формирование таджикской литературно-теоретической мысли в X–XI вв. Автореф. дис. … канд. филол. наук. – Душанбе, 1970.
[14] Сатторов А. Аристотель и таджикско-персидская литературная мысль (X–XI вв.). Автореф. дис. ... докт. филол. наук. – Душанбе, 1984.
[15] Чалисова Н.Ю. Язык описания поэзии в трактате Шамс-и Кайса Рази «Свод правил персидского стихотворства» // Восток, 1993, № 1. – С. 73–83.
[16] Шамси Қайси Розий. Ал-Муъжам фи маъойири ашъору-л-ажам (перевод с персидского, исследование и комментарий Н.Ю.Чалисова). – Москва, 1997. – С. 464.

Elmurod NASRULLAYEV,
Jizzax davlat pedagogika instituti dotsenti;
Halima SHUKUROVA,
Jizzax davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi

NAVOIYNING TASAVVUF TA'LIMOTIGA MUNOSABATI

Insoniyat tarixiga nazar tashlasak, insonning bir mavjudot sifatida o'z yaratuvchisi va o'zligini izlashi, komillikka intilishi natijasi o'laroq bir qancha ta'limotlar yuzaga kelgan. Islom dinining axloqiy falsafasi – tasavvuf ta'limoti bir necha juzvga ega bo'lgan umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi sanaladi.



"Tasavvuf" va "sufiy" atamalari dastlab IX asrning boshlarida yashagan Abu Hoshim Sufiy tomonidan qo'llana boshlagan. Undan oldingi davrlarda bu atama o'rnida "zuhd" ("zohidlik", "tarkidunyochilik"), "taqvodorlik", "parhezkorlik" kabi atamalar ishlatilgan. Ibn Xaldunning fikricha, sahobalar, tobeinlar va ulardan keyingi asrda yashagan kishilarda hidoyat, ibodat, taqvo va zohidlik kabi xususiyatlar mujassam bo'lgan. Lekin hijratning ikkinchi asri va undan keyingi davrga kelib, ko'pchilikda mazkur xususiyatlar o'rnida dunyoparastlik, din ishlariga beparvolik, kibr va riyokorlik kabi qusurlar urchiy boshlagach, obidlik va zohidlikni ixtiyor qilgan kishilar tasavvuf va so'fiylik nomi bilan boshqalardan ajralib chiqqan.

Adabiyotshunos olim M.Imomnazarovning kuzatishlariga qaraganda, Sharqda an'anaviylik tamoyili nihoyatda kuchli bo'lgan. Ammo bu fikr Sharqda rivojlanish, o'sish, takomillashish yuz bermagan, degan ma'noni bildirmaydi. Sharqning o'ziga xosligi shundaki, kelgusi avlod o'z ajdodlari erishgan yutuqlarni inkor etmaydi, balki o'tmishni unutmagan holda uni yangilaydi, boyitadi, yanada sayqal beradi, mukammallashtiradi. Shu sababli buyuk ajdodlarimizning insoniyat tarixiy takomiliga qo'shgan hissasini aniq idrok etish uchun ulardan oldin nimalarga erishilgani haqida muayyan tasavvurga ega bo'lish talab etiladi.

Bunga hazrat Alisher Navoiyning tasavvuf ta'limotiga munosabatida ham guvoh bo'lishimiz mumkin. Shoir yashagan davrda Movarounnahr va Xurosonda tasavvufning yassaviylik, kubraviylik, chishtiylik, suhravardiylik kabi tariqatlari mavjud edi. Afg'onistonlik adabiyotshunos olim doktor G'ulom Foruq Ansoriyning e'tiroficha, so'fiylik Xurosonda, xususan, Hirotda aynan temuriylar davrida keng tarqalgan. U Hirotda naqshbandiya tariqati rivojlanishining omillaridan biri sifatida Abdurahmon Jomiy ta'sirini ko'rsatadi. Shuningdek, olim islomiy tasavvufning kuchayib borishi natijasida so'fiylik halqalari va guruhlari, xususan, naqshbandiya tariqati Hirotda ko'plab izdoshlarni topgani, xususan, Sulton Husayn Boyqaro ham o'zining vaziri Amir Alisher Navoiy izidan borib, ushbu tariqatga erishganini qayd etadi.

Aynan shu fikrni turkiyalik adabiyotshunos Birjan Ufuk tadqiqotlarida ham kuzatamiz. Olimning qayd etishicha, Alisher Navoiyga kuchli ta'sir etgan mutasavvuflar qatorining boshida Abdurahmon Jomiy turadi. Jomiyga yaqinligi sabab Navoiy u mansub bo'lgan naqshbandiya tariqatiga kiradi.

Atoqli adabiyotshunos olim N.Komilovning qayd etishicha, Alisher Navoiy o'z asarlarida Bahouddin Naqshbandni, shuningdek, Abdurahmon Jomiyni "murshidi ofoq", "koshifi asrori iloh", barcha ishlardan xabardor karomatli va pok niyatli zotlar sifatida ta'rif-tavsif etadi.

Ko'rinadiki, Alisher Navoiy tabiatan so'fiy orif bo'lib, Abdurahmon Jomiy ta'sirida naqshbandiya tariqatini ma'naviy komillikka erishish yo'li sifatida tanlagan.

Doktor Ansoriy Navoiyning Hirotda naqshbandiylik misolida tasavvufni mustahkamlashdagi o'rniga baho berar ekan, naqshbandiya ta'limotining keyingi davrlarda kengayib, Markaziy Osiyodan tashqari Xitoy, Hindiston, Turkiya va Eron Kurdistoniga kirib borgani, Hirot esa bir necha asrlar davomida naqshbandiylik tariqatining asosiy markazi sifatida tanilganiga diqqatni qaratadi. Olim naqshbandiylik tariqatini o'sha davrdagi mo'tadil so'fiylik usuli deb hisoblaydi. Chunki bu usul Rumiy kabi raqsga tushish va Suhravardiy kabi tinglash emas, balki zohidlik va ibodat bilan bog'liq bo'lsa-da, yolg'izlikni rad etganligini alohida ta'kidlaydi.

Naqshbandiylik tariqatining tarixiy ildizlari haqida so'z yuritganda, atoqli olim N.Komilov ma'lumotini alohida qayd etish zarur. Olimning fikricha, naqshbandiya silsilasi Salmoni Forsiy va Abu Bakr Siddiq orqali Payg'ambarimiz alayhissalomga borib ulangan. N.Komilov so'fiylik haqida yozar ekan, so'fiylikning o'ziga xos xususiyati sanalgan *jazba* (ba'zilar buni "ishq", "junun" so'zlari bilan ham ifodalagan) haqida fikr yuritadi. Olimning fikricha, *jazba* –insondagi alohida ilohsevarlik mayli, ruhiy va tafakkuriy-shuuriy bir tavajjuh. Jazbaning tasavvufdagi o'rnini belgilashda N.Komilov quyidagi ma'lumotni keltiradi:

"Hazrat Bahouddin Naqshbanddan bu martabaga qanday qilib erishdingiz, deb so'raganlarida, ul zot mana bu arabcha jumla bilan javob bergan ekanlar: "Jazabatun min jazabotil-haqqi yuvazil amalas-saqalayn", ya'ni: "Odamzod va jin-parining amali uchun Haqning jazbalari – tortishishlaridan bir tortish kifoya".

Bundan kelib chiqadiki, jazba Haqning bandalariga va bandalarning Haqqa intilishi hamda irodani Ilohga bog'laydigan *dardni anglatadi.* U ko'ngilni betoqat etib, faqr-u fano yo'liga yetaklayveradi. Jazba qanchalik kuchli bo'lsa, solik shunchalar tez tariqat odobini o'zlashtiradi, qalb ko'zi ochiladi, holga kiradi. Lekin agar jazba yetarli bo'lmasa, xohish bo'lgani bilan ko'zlangan maqsadga erisholmasdan, yarim yo'lda qolishi mumkin.

N.Komilovning ta'kidlashicha, Alisher Navoiy Sayyid Hasan Ardasher haqida yozganida, uni ahli dardlarning peshvosi, "faqiri zotiy va foniy jibilliy" (tug'ma darvesh, ilohiyot foniysi), deb ta'riflaydi. Alisher Navoiy "Xamsa"sining ikki qahramoni Farhod bilan Majnun ham ana shunday tug'ma jazba yuqqan kishilar timsolidir. Tug'ma faqirligi ko'ringan solikni "majzubi solik", suluk davomida jazba paydo qilgan solikni "soliki majzub" deb nomlaganlar.

"Allohning yerdagi xalifalari" deyilgan ilohsevar darveshlar o'z pirlari yoki tasavvufning boshqa bir namoyandasini g'oyibona hurmat qilganlar. Ko'pincha, bu hurmat chinakam muhabbatga aylangan. Masalan, Shams Tabriziy bilan Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy bilan Abdurahmon Jomiy, Mirzo Bedil bilan majzub Shoh Qobuliy orasidagi munosabatlar shunday pok, g'oyat nozik va ibratli bo'lgan. Chunonchi, hazrat Navoiyning Abdurahmon Jomiyga bag'ishlangan "Xamsat ul-mutahayyirin" asaridan ma'lumki, ular bir-birlarining suhbatiga hamisha intiq bo'lganlari, ikki-uch kun ko'rishmasalar sog'inib qolishlari, bir-birlarini nafaqat farzand-ota muhabbati, balki ixlosmand pir-murid muhabbati, yor-u birodarlik muhabbati bilan yo'qlab, qo'msaganlar. Jomiy esa, o'zining "Yusuf va Zulayho" dostoni xotimasida Navoiyni tengi topilmas sadoqatli do'st, yori aziz, deb ta'riflaydi. Ularning bir-birlariga yo'llagan maktublari ham mehrli so'zlarga to'la. Bunda ham o'sha hodisa, ya'ni ma'naviyat kamoli, orzudagi ilohiy sifatlarni real insonda ko'rib, uni sevish hodisasi kuzatiladi.

Ayni paytda, milliy va islomiy qadriyatlar tiklanib borayotgan, ijtimoiy hayotning diniy-madaniy tarkibiy qismi sifatida Islom dini Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatining muayyan bir qismiga aylangan davrda Alisher Navoiyning ma'naviy-ruhoniy merosini chuqur o'rganish alohida dolzarblik kasb etadi.

Ilm-fan, san'at va adabiyotga homiylik, jamiyatda tinchlik va uyg'unlikni barqarorlashtirishga intilish bugungi kunda Markaziy Osiyo xalqlari ijtimoiy-madaniy taraqqiyotida juda zarur. Shu nuqtayi nazardan buyuk shoir va mutafakkirning ma'naviy merosi o'sib kelayotgan yosh avlodni insonparvarlik, ma'rifatga intilish, inson va jamiyatga nisbatan bag'rikenglik ruhida tarbiyalashda bebaho xazina va muhim ijtimoiy omil sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: Movarounnahr, 2009. 9-bet.
2. Imomnazarov M. Ma'naviy kamolot ehtiyoji yoxud insoniyat ma'naviy takomilida Alisher Navoiy nazariy qarashlarining ahamiyati // "Alisher Navoiy dunyo sharqshunoslari nigohida" Xalqaro konferensiyasi ilmiy to'plami. – Toshkent, 2021. 5–6 fevral.
3. Ansoriy G'.F. Temuriylar davrida Hirot tasavvufi va amir Alisher Navoiyning tasavvufni mustahkamlashdagi o'rni // "Alisher Navoiy dunyo sharqshunoslari nigohida" Xalqaro konferensiyasi ilmiy to'plami. – Toshkent, 2021. 5–6 fevral.

Kozim Mechiyev va uning she'riyati



(Davomi. Boshi o'tgan sonda.)

Qaysin QULIYEV,
bolqor shoiri

Mechiyevning otasi Bekki o'qimagandi, temirchi-dehqon edi, yana ko'plab hunarlarni bilardi, shuning uchun ovul ahli uni hurmat qilardi. U o'g'lining o'qishi uchun sharoit yaratdi. Balki o'qib mulla bo'lishini istagandir. Shu tariqa bolqor she'riyatining bo'lajak namoyandasi arab tilini o'rgana boshladi. Turk va arab mamlakatlarida bo'lib, Sharqning mumtoz adabiyoti va tillarini chuqur o'rgandi. Arab tilidan tashqari turk va fors tillarini ham yaxshi bilardi. Taqdir yo'llari Kozimni qayerga boshlamasin, qalbida ona yurti ruhini olib yurdi. Hamma joyda mehnatkashlar xuddi tog'lik dehqon kabi qiynalib non topayotganini ko'rgani uchun ovuldoshlariga ham, boshqa xalqlarga ham yaxshi kunlar kelishini tiladi. Safarlarda hayotning achchiq haqiqatlarini ko'rdi va yanada teranroq tushundi. Shoir she'rlarida yozgandi: hamma joyda boylar boylarga o'xshab yashaydi, kambag'allarning holiga voy, kuchlilar kuchsizlarni ezadi, shodlik va qayg'uning ranglari bir xil. 1910-yili yurtidan uzoqda yozgan she'rida bir bechora arabning ko'zlaridagi alam yoshlari tog'lik dehqon ko'zlaridagi alam yoshlariga o'xshashini ta'kidlagandi, yana hamma joyda ezilgan odamning alami, o'kinchi bir xil, deb yozgandi. Hayotning achchiq falsafasi, shafqatsiz haqiqatlari Mechiyev she'riyatidan o'rin oldi. Sharq mamlakatlarida bo'lganida sulton va xonlarning muhtasham saroylari, muqaddas Makka haqida emas, oddiy odamlar, ularning sehrli qo'llari va topqirligi haqida she'rlar bitdi.

Agar yurtidagi haq-huquqsiz, zulmdan qiynalayotgan jabrdiydalarni ko'rmaganida, qalbidagi haqiqat va adolatparvarlik sezgisi uni har lahzada sergaklikka undamaganida Mechiyev qadimiy Bolqoristonda shoir bo'lib voyaga yetmasdi. Axir, uning yozganlari maqtov keltirmasdi, ta'qibga uchrashi tayin edi. Shu bois boshqa buyuk ijodkorlar kabi Mechiyev ham chorizm, zulm va o'zboshimchalikka qarshi yozgan she'rlarini o'tkir zehn va chuqur mulohaza bilan bitdi. Ana shunday xislatlari uni ulug' shoir darajasiga ko'tardi. Uning fikrlarini oddiy bayon etishi Aleksandr Blok samimiyligiga o'xshab ketadi. Mechiyev umri davomida imtiyozlardan foydalangan holda yaxshi yashayotganlar tarafida emas, zulmdan qiynalayotgan, azob chekayotgan va yordamga muhtojlar tarafida sobit turdi. Bu o'sha davrda unga yuklangan vazifa edi. Afsuski, u Sharq adabiyotini chuqur bilganday rus adabiyotini chuqur bilish imkoniyatiga ega bo'lmadi. Bu borada omad tengdoshi Kosta Xetagurovga kulib boqdi, uning otasi rus zobiti bo'lgani uchun o'g'lini rus maktabiga o'qishga berdi. Kozimning otasi bunday qadam tashlashga yo imkon topolmadi yoki bunday qilishni istamadi, balki buning ahamiyatini to'la tushunib yetmagandir. Rus adabiyoti oliyjanob bolqor shoirining bilimini ancha boyitgan bo'lardi. Ehtimol, Kozim rus maktabida o'qiganida shoirlik taqdiri ham o'zgarib ketarmidi.

Men Mechiyev to'rtliklarini har gal hayrat bilan o'qiyman. Ularda teran donishmandlik, yuksak badiiylik va milliy o'ziga xoslik uyg'un, naqd toshga o'yib yozilgan quyma hikmatlarning o'zginasi. Bir gal Marshakka Mechiyev to'rtliklari toshga o'yib yozilgan quyma hikmatlar deganimda, u juda oshirib yubormayapsanmi, deb qo'ygandi. Sharqda qadimdan to'rtlik-ruboiylarni toshga o'yib yozish rasm bo'lgan. Shuni ta'kidlashni istardim, an'anaviy ruboiylardan (Sharqda ruboiy yozish shartlari bor) Kozim to'rtliklarining farqi faqat shaklida emas, uning to'rtliklarida milliy fikrlash ustuvor, umumbashariy yoki dunyoviy mavzular qalamga olinsa-da, bolqorlarga xos ruh singdirilgan, tog'lik shoir she'rlari ekanligi yaqqol sezilib turadi. Mechiyev Sharqning buyuk so'z ustalari ijodini yaxshi bilardi, shunga qaramay umrining oxirigacha ularning asarlarini o'rganishdan to'xtamadi. O'rganish – takrorlash degani emas. Shu bois Kozim atrofidagi yozish lozim bo'lgan narsalarnigina qog'ozga tushirdi. U o'z xalqining ruhiyatini dildan his etgani uchun tog'liklar hayoti haqiqatlarini yozgan ijodkor sifatida shoirlar safidan o'rin oldi. Barcha she'rlari tog'liklarga xos mavzuda yozilgan, aniq va ravshan, masalan, keng qamrovli "Yarador taka" dostoni. Darvoqe, bu dostoni uchun Mechiyevni boshidan judo qilishlari mumkin edi. Shoir zukkolik bilan yozadi:

Ha, elchiga o'lim yo'q,
Men elimning elchisi.
G'amdan elim bag'ri cho'g',
Men shu elning she'rchisi.

Yoki:
Men elimning dardiman,
Elim menga darmondir.


Albatta, har qaysi she'r yozuvchiga ham shunday misralarni yozish huquqi va baxti berilmagan.

Rus tilidan Asror MO'MIN tarjimasi.

Davomi keyingi sonlarda.

«Til va adabiyot ta’limi» – «Преподавание языка и литературы» – «Language and literature teaching» jurnaliga «CLICK» orqali tez va oson OBUNA BO‘LING!

«OBUNA – 2022»




Hurmatli mushtariylar! Endi siz *«Til va adabiyot ta’limi» – «Преподавание языка и литературы» – «Language and literature teaching»* jurnaliga yanada qulay usulda obuna bo‘lishingiz mumkin.

Mushtariylarimiz tomonidan yo‘llangan taklif va istaklarni inobatga olgan holda jurnalning elektron obuna shaklini yo‘lga qo‘ydik. Bu haqda batafsil ma’lumotni quyidagi ko‘rsatmalardan bilib olishingiz mumkin:


Mobil telefoningizga Play Маркет dan CLICK Evolution ilovasini yuklab oling va o‘rnating.

1




CLICKka kirib **«–»** tugmasini bosing.

2




To‘lov tugmasini bosing.

3




Ta’lim yo‘nalishini tanlang va unga bosing.

4




Logotipimizni topish uchun **Til** so‘zini kiriting va logotipimiz ustiga bosing.

5



F.I.Sh., manzil, telefon raqamingiz, to‘lov summasini kiriting va **Davom eting** tugmasini bosing.

6



Tafsilotlarni tekshiring, to‘lov kartasini tanlab, **To‘lov** tugmasini bosing.

Biz Siz uchun qulayliklar yaratish ustida ishlayapmiz. Biz bilan birga qoling va ushbu yangilikni do‘stlaringiz bilan bo‘lishing!

TIL VA ADABIYOT TA’LIMI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
ПРЕПОДАВАНИЕ ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

CLICK QR bilan to‘lash qulay!
To‘lov uchun QR kodni skanerlang
yoki USSD so‘rovnomani tering
*880*016832*SUMMA#
CLICK
Til va adabiyot ta’limi

Платить удобнее! вместе с CLICK QR
Отсканируйте QR код для оплаты
Или наберите USSD запрос *880*016832*СУММА#

ISSN 2010-5584
INDEKS 872